

ISSN: 2181-4120

Scientific Journal

# GOLDEN BRAIN

*Social Sciences & Humanities*



**Volume 2, Issue 22**



[webgoldenbrain.com](http://webgoldenbrain.com)

**December**

ISSN 2181-4120

VOLUME 2, ISSUE 22

DECEMBER 2024



<http://webgoldenbrain.com/>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 2, ISSUE 22, DECEMBER, 2024**

**EDITORIAL BOARD**

**G. Kholmurodova**

*Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**A. Madaliev**

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University*

**G. Sotiboldieva**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Rashidova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University*

**D. Darmonov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**X. Abduxakimova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**U. Ruzmetov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

**M. Yusupova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University*

**M. Kambarov**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University*

**S. Sadaddinova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies*

**M. Fayzullaev**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University*

**Z. Muminova**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**B. Kuldashov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

**Kh. Askarov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**S. Nazarova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University*

**O. Rahmonov**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute*

**G. Tangirova**

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**Z. Koryogdiev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University*

**S. Ubaydullaev**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

**R. Yuldasheva**

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University*

**M. Yuldasheva**

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University*

***Editorial Secretary: J. Eshonkulov***

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14426936>

## CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA HAYOTIY VOQELIK

**To‘raqulova Sabina Ulug‘bek qizi**

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

**Obidova Ozoda Obidjon qizi**

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Tulishova Gulzina Ravshanovna**

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning asosan "Sarvqomat dilbarim", "Oq kema", "Qiyomat" kabi asarlaridagi hayotiylik, asar kompozitsiyasi, syujet va uning turlari, konflikt, obraz va obrazlilik, shakl va mazmun kabi jihatlari ham tahlil qilingan. Asarning umumiy ko‘rinishi, har bir qahramon va voqeliklarga nisbatan alohida to‘xtalish, bugungi kun bilan bog‘liqlik jihatlari tasvirlangan.*

*Kalit so‘zlar Sarvqomat dilbarim, Asal, Ilyos, Xadicha, Jontoy, Boytemir, Pomir, Tyanshan, avtobaza, qiyomat, bo‘ri, Avdiy Kallistratov, Issiqko‘l.*

### ABSTRACT

*In this article, Chingiz Aitmatov’s works such as "Sarvqomat dilbarim", "Aq kema", "Qiyamat" are analyzed. The general view of the work, special attention to each character and reality, aspects of connection with today are described.*

**Key words** Sarvkomat Dilbarim, Asal, Ilyas, Khadicha, Boytemir, Pamir, Tyanshan, Autobaza, Qiyamat, Bori, Avdiy Kallistratov, Issyk-Kul.

## Kirish

Har bir ijodkorning yaratgan asarlari u haqida ko‘plab ma’lumotlar olishimizga yordam beradi. Ijodkor o‘zining yashagan muhiti, Vatani, dunyoqarashini asarlarida aks ettiradi. Shunday ekan Chingiz Aytmatov ham Qirg‘izistonda tavallud topgan bo‘lib ko‘plab asarlarida ona Vatanini, uning aholisini, muhitini yoritgan. Masalan, "Oq kema", "Qiyomat", "Sarvqomat dilbarim", "Jamila" va h.k kabi asarlarida aynan Qirg‘iz xalqini, hududigagi tog‘larni, yashash sharotini aks ettirgan. Aynan biz Issiqko‘lni yuqoridagi asarlarning barchasida uchratishimiz mumkin. Shuningdek, uning zamoni qanday bo‘lganini ham bilishimiz mumkin. Masalan, G‘afur G‘ulomning asarlarini o‘qiganimizda birinchi jahon urushi ekanligini darrov anglaymiz va ijodkor shu davrlarda yashagan ekanligi haqidagi ma’lumotga ega bo‘lamiz. O‘tkir Hoshimovning asarlarni o‘qiganimizda esa ikkinchi jahon urushi paytlarida yashagan ekanligini, aholini o‘sha paytdagi turmush tarzini, urushning qay tarzda yakunlanganini va undan keyingi holatlarni asarlarida tasvirlagan. Chingiz Aytmatovning asarlarida ham xuddi shunday qirg‘iz xalqining milliy an’ana va urfodatlarini bilishimiz mumkin. Xususan, "Sarvqomat dilbarim" qissasini tahlil qiladigan bo‘lsak, voqelar rivoji asar ekspozitsiyasi Tyanshan, Pomir tog‘lari, Issiqko‘l kabi hududlar hisoblanadi. Qissa hayotiy-maishiy bo‘lib, qahramonlarni bugungi kunda ham uchratishimiz mumkin va bu dolzarb muammolardan biri ham hisoblanadi. Ilyos va Asalning turmushi, Ilyosning muqaddas atalmish oilasiga xiyonat qilib Xadicha bilan birga ma’lum bir muddat Toshkentga borib yashashi, so‘ng o‘z aybiga iqror bo‘lib farzandi Samadni eslab yana qayta eski ovuliga qaytganida Asalni uchratmasligi, Asal ham farzandi bilan yo‘l masteri Boytemirga turmushga chiqib baxthi hayot kechirishi bugungi kunda ham ayrim oilalarda bunday voqealarning guvohi bo‘lamiz.

"Qiyomat" romanida ham Ernazar va ayoli Gulimxonning, Bo‘ston va Orzigelning taqdirlari ham Ilyos, Asal va Boytemirning hayotiga ma’lum bir tomondan o‘xshaydi. "Sarvqomat dilbarim" asari shakl jihatdan qissa bo‘lib, mazmun jihatdan esa hayotiy-maishiy voqealar tasvirlangan deb bilamiz. Qissaning bosh qahramonlari

Asal, Ilyos, Samad, Xadicha, Alibek, Jontoy, Boytemir, Gulbara va h.k kabilar hisoblanadi. Qissa jurnalistning hikoyasi bilan boshlanadi va qolgan o‘rinlarda ham qahramonlar tilidan hikoya qilinadi. "Haydovchi hikoyasi", "Yo‘l masterining hikoyasi" kabilardan iboratdir. Shu orqali asar yaratilgan. Shuningdek, muqaddima va xotimadan ham tashkil topgan. Asarda konflikt ham mavjud bo‘lib, konflikt o‘zi bu lotincha to‘qnashuv degan ma’noni anglatadi. Badiiy asar personajlarining o‘zaro kurashlari, qahramonning o‘z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi. Badiiy asar voqelikni badiiy aks ettingani va uning markazida inson obrazi turgani uchun ham insonning real hayotida mavjud konfliktlarning bari unda badiiy aksini topadi. Konflikt turlari ham bo‘lib, xarakterlararo konfliktga Ilyos va Jontoy munosabatini keyinchalik o‘z o‘rtog‘i Alibek bilan ham ziddiyat yuga kelgan. Ichki konfliktga esa Ilyosning o‘zi xohlamagan ravishda Xadichaning eshigini tagiga borib qolishi kabilarni misol qilishimiz mumkin.

"Qiyomat" romanida esa Hazrati Isoning xalq bilan munosabati muhit konfliktini kelib chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin. Avdiyning nashavand jamoadoshlari o‘rtasidagi munosabat, Bo‘ston va Bozorboy orasidagi munosabat bularning barchasi qahramonlar o‘rtasidagi konfliktni yuzaga keltirgan. Shuningdek, bo‘rilar obrazi keltirilgan bo‘lib, juft bo‘rilar Toshchaynar va Akbara kabi bir-biridan baquvvat bo‘lgan bo‘rilar tasviri ham keltirilgan. Aynan bo‘rilar va xalq o‘rtasida ham qarama-qarshilik yuzaga kelgan. Bozorboy bo‘rilarning nasl qoldirish uchun Akbara dunyoga keltirgan bo‘rivachchalarni o‘g‘irlagani uchun Akbara va Toshchaynarning g‘azabi kelib tinch aholiga hujum qilishadi. Har tunda qo‘y-qo‘zilarni bo‘g‘izlab ketishadi va tog‘da uchragan odamlarga ham hujum qiladigan odat chiqarishadi. Asar so‘ngida Akbara ham Bo‘stonning yolg‘iz naslini davom ettiradigan 2 yoshli boladi Kenjashni o‘g‘irlab ketadi va Bo‘ston esa bo‘rini otaman deb o‘z jigaporasining yuragini ilma teshik qilgani o‘quvchining qalbini larzaga soladi. Asarni o‘qish davomida ko‘plab baxtiqaro insonlarning hayoti tasvirlanganini ko‘ramiz.

## Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir ijodkorning asar yozishda o‘z uslubi bo‘lganidek, Chingiz Aytmatovning ham o‘z uslubi bo‘lib, hayotda ham uchratish mumkin bo‘lgan voqealarni yozgan. Yaratgan asarlari kitobxon e’tiborini tortadi va qo‘ldan qo‘ymay o‘qiladigan asarlar sirasiga kiradi. “Qiyomat” romanida ezgulik va insoniylikning, yaxshilik va to‘g‘rilikning,adolat va haqgo‘ylikning, Qiyomat qoyim darajasiga tushayotgan holatlari tabiat, jamiyat, inson va iymon muammolarini aks ettirish orqali ochib berilgan. Tabiatni poymol etish tufayli ro‘y berayotgan qiyomat darajasidagi payhonliklar, xunrezliklarni amalga oshirayotgan ijtimoiy kuchlar, razil odamlar bor. Akbara bilan Toshchaynarga tabiatda yashash uchun hatto boshpana qolmasligi, tog‘da noyob konga yo‘l ochilishi munosabati bilan ularning uyasi joylashgan qamishzorga o‘t qo‘yilishi tufayli besh bo‘ri bolasining nobud bo‘lishi, bo‘rilar toqqa qochgandan so‘ng esa bu yerda yangi dunyoga kelgan to‘rt bo‘ri bolasining endi razil, insoniy xislatlardan mahrum Bozorboy tomonidan o‘g‘irlanib, aroq olish uchun sotib yuborilishida bularni ko‘rish mumkin. Asardagi eng murakkab obraz Avdiy Kallistratovdir. U Xudoga, dinga chin dildan ishonadi. Biroq uning fikricha, shu vaqtgacha insoniyat tafakkurida bo‘lib kelgan Xudo eskirgan, shu bois uni yangilash, zamondosh Xudo yaratish kerak. Bu fikridan, o‘zi aytishicha, o‘tda kuydirsalar ham qaytmoqchi emas. “Asr bo‘yi qotib qolgan fikrlarni o‘zgartirish, aqidabozlikdan qutulib, inson ruhiga Xudoni anglashda hurlik berish va Xudoni inson borlig‘ining eng oliy zuhroti deb bilish” Avdiyning din va Xudo haqidagi qarashlarining asosini tashkil etadi. Aytmatov asarda ezgulik mohiyatini rang-barang: ilohiy, falsafiy, insonparvar asoslar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvirlay olgan mahoratli, ayni paytda chuqur bilim va mantiqqa ega yozuvchidir.

## ADABIYOTLAR

1. D.Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari" - T: Noshir 2019.
2. Ch. Aytmatov "Sarvqomat dilbarim" - T: 2019
3. Ch. Aytmatov "Qiyomat" - T: 2020
4. <http://akmbtlib.unaux.com/product/sarvqomat-dilbarim-chingiz-aytmatov/>
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/chingiz-aytmatov-sarvqomat-dilbarim-qissaning-1-qismi.html>
6. <https://daryo.uz/2019/10/07/odamlar-borilar-va-gunohlar-qiyomat-romani-haqida>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14427054>

## **THE IMPORTANCE AND MAIN PRINCIPLES OF TEACHING RECEPTIVE SKILLS**

**Sultanova Umidakhan Matkarimovna**

“Foreign languages among faculties” department lecturer  
Urgench State University,

**Xaitbayeva Sevara Kamiljanovna**

“Foreign languages among faculties” department lecturer  
Urgench State University,

### **ANNOTATION:**

*This article explains how effective listening and reading in classroom management are critical components of teaching. Students can learn and develop in a well-managed receptive skills classroom. However, receptive skills can be difficult, particularly for inexperienced educators.*

*Different approaches to receptive skills can be used, and what works for one teacher might not work for another. Nonetheless, some universal guidelines might assist all educators in developing their abilities to control the classroom.*

**Key words:** Receptive, listening, reading, aid, online, activity, strength, weakness, enhance, interactively, skill, learner, prediction, material.

Reading and listening are examples of receptive skills, which are crucial for language acquisition and communication. The following are the key ideas and significance of teaching receptive skills:

### 1. The Value of Receptive Ability:

The basis for learning and developing a language is receptive skills.

Gaining proficiency in receptive abilities is essential for language learning because it allows learners to comprehend and understand input.

The development of productive skills (speaking and writing) is supported by proficiency in receptive skills.

Receptive abilities are necessary for both academic and professional success because they enable learners to obtain knowledge, concepts, and information.

Good receptive abilities support overall language competency and enable efficient communication.

## 2. Main Principles of Teaching Receptive Skills:

### a. Input-rich Environment:

- Provide learners with sample exposure to authentic and varied input, such as audio/video recordings, written texts, and real-life interactions.

- Ensure the input is appropriate to the learners' proficiency level and interests.

### b. Scaffolding and Modeling:

- Gradually introduce new vocabulary, grammar structures, and linguistic features to support learners' understanding.

- Model effective listening and reading strategies, such as identifying main ideas, making inferences, and using context clues.

### c. Explicit Strategy Instruction:

- Teach learners specific strategies for effective listening and reading comprehension, such as predicting, note-taking, and summarizing.

- Encourage learners to actively apply these strategies during receptive skill activities.

### d. Varied and Engaging Activities:

- Incorporate a wide range of listening and reading activities, including interactive tasks, problem-solving exercises, and collaborative discussions.

- Ensure the activities are relevant, meaningful, and tailored to the learners' needs and interests.

e. Feedback and Assessment:

- Provide ongoing feedback and guidance to help learners identify their strengths, weaknesses, and areas for improvement.
- Use formative and summative assessments to evaluate learners' progress and inform instructional decisions.

f. Fostering Learner Autonomy:

Receptive skills, such as reading and listening, are crucial for language acquisition. They motivate students to actively participate in their education, establish personal objectives, and create self-monitoring techniques.

Give students the chance to practice reading and listening extensively outside of the classroom.

By following these guidelines, teachers can establish a safe and stimulating learning environment where students can improve their receptive skills and, eventually, their language competency and communication skills.

I would be happy to have a philosophical conversation with you as a teacher and experienced philosopher philosopher. Since receptive skills are essential to learning new things and pursuing wisdom, let's examine their significance and guiding principles.

All other learning is built upon the receptive abilities of reading and listening. They broaden our own understanding by enabling us to absorb and grasp the thoughts, viewpoints, and experiences of others. Our receptive abilities support the development of our intellect and the breadth of our insights in the same way that a tree's roots get their nutrition from the soil.

**The first principle** developing attentiveness is the fundamental tenet of teaching receptive skills. Instead of passively absorbing the information, the student should be taught to read and listen with an active and concentrated mind, aiming to completely interact with it. Self-discipline, the capacity to quiet inner chatter, and the ability to withstand distraction temptation are all necessary for this.

**The second principle**, the instructor needs to make sure the student has the fundamental abilities—phonemic awareness, vocabulary, and fluency—that are required. Before the student can fully understand and gain meaning from the material they encounter, these building blocks must be securely in place.

**The third principle** developing a strong feeling of curiosity and a desire to learn is the third principle. The learner needs to be inspired to pursue information, pose insightful queries, and participate in the dialectic process of learning. It is the teacher's job to kindle this intellectual curiosity and keep it going with careful direction and thought-provoking conversations.

Additionally, receptive skills instruction needs to be flexible and sensitive to each student's unique needs. To deliver the best instruction, a teacher must be aware of the distinct experiences, skills, and learning preferences that each student brings to the classroom.

Finally, as the quest for wisdom is an endless journey, developing receptive abilities must be viewed as a lifetime endeavor. A profound understanding of the world's complexity and depth, as well as the humility to acknowledge that there is always more to learn, must be ingrained in the student by the instructor. This makes teaching receptive skills a religious obligation rather than just a tool to achieve a goal, demonstrating the transformational power of information and the never-ending pursuit of understanding.

**REFERENCES:**

1. TEACHING THE RECEPTIVE SKILLS Listening & Reading Skills Dr. Fadwa D. Al-Jawi. 2010.
2. Developing Productive Skills Through Receptive Skills – A Cognitive Approach. S.Sceerena. M.Ilankumaran.

**Resources:**

1. <https://hongkongtesol.com/blog/receptive-skills-english-teachers-how-teach-listening-and-reading>.
2. <https://www.cambridge.org/core/books/abs/teaching-in-challenging-circumstances/teaching-receptive-skills/EA3BF2B3BAE366D82F1FDFBBB0BA6EBA>.
3. [https://www.researchgate.net/publication/301787025\\_Receptive\\_skills-Listening\\_and\\_Reading\\_A\\_sin\\_qua\\_non\\_for\\_Engineers](https://www.researchgate.net/publication/301787025_Receptive_skills-Listening_and_Reading_A_sin_qua_non_for_Engineers).
4. [https://www.researchgate.net/publication/330636885\\_Developing\\_Productive\\_Skills\\_Through\\_Receptive\\_Skills\\_-A\\_Cognitive\\_Approach](https://www.researchgate.net/publication/330636885_Developing_Productive_Skills_Through_Receptive_Skills_-A_Cognitive_Approach).

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14427138>

## PERSPEKTIV TASVIR QURISHDA KETMA-KETLIK USULIDAN FOYDALANISH

R.R.Umirzaqov

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti  
“Chizmatasvir” kafedrasи dotsenti

*Annotation:* Ushbu maqolada o‘qitishning yangicha usuli yani ketma-ketlik usulidan foydalangan xolda mavzuni bayon qilinganligi aytilgan. Bu usulni bosh mavzularni bayon qilishda ham qo‘llasa bo‘lishligi xaqida ma’lumot berilgan.

*Keywords:* “Arxitektorlar usuli”, perspektiva, fasad, reja, “ketma-ketlik”, parallel, asosiy o‘q chiziq, vertikal, gorizontal.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ ПРИ ПОСТРОЕНИИ ПЕРСПЕКТИВНОГО ИЗОБРАЖЕНИЯ

Умирзаков Р.Р

Национальный институт живописи и дизайна имени Камолиддина Бехзода  
Доцент кафедры «Чизматасвир»

*Annotation:* В данной статье говорится, что тема описывается с использованием нового метода обучения, а именно метода последовательности. Данна информация о возможности использования этого метода при изложении основных тем.

*Ключевые слова:* «Метод архитекторов», перспектива, фасад, план, «последовательность», параллель, линия главной оси, вертикаль, горизонталь.

## USING THE SEQUENTIAL METHOD IN CONSTRUCTING A PERSPECTIVE IMAGE

**R.R.Umirzakov**

Associate Professor of the Department of “Drawing and Image” of the National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Behzod

***Annotation:** This article says that the topic is described using a new learning method, namely the sequence method. Information is given on the possibility of using this method in presenting the main topics.*


***Keywords:** "Method of architects", perspective, facade, plan, "sequence", parallel, main axis line, vertical, horizontal.*

Hozirgi kunda iqtisodiyot tarmoqlaridagi ish sharoitlarining rivojlanishi mutaxasislarga qo‘yiladigan malakaviy talablarni ham keskin o‘zgartirib yubormoqda. Shuning uchun zamon talabiga javob beradigan mutaxasislarni tayyorlashda samarali o‘qitish usullarini joriy qilish masalasi o‘ta dolzarbdir. Zamonaviy bilimga ega bo‘lgan, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda axborot texnologiyalarining o‘rni nihoyatda muhumdir. Axborot texnologiyalaridan keng ko‘lamda o‘qitish jarayonida foydalanish butun jahonda qo ‘llanadigan va yaxshi samara beradigan usullardan hisoblanadi.

“Perspektiva” fani bo‘lajak dizayner, inter’erni loihalovchi muhandis, rassom yoki grafika mutahassislarini tayyorlashda asosiy fanlardan hisoblanadi. Bu fan grafikaga bevosita bog‘langanligi uchun uni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Komp’yuter tuzulishi va imkoniyatlari tabiatan grafik tasvirlar bilan ishlashga qulay vositadir. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarda bunday imkoniyatlar yuqori darajada tashkil etilgan. Ushbu maqolada “Perspektiva” fanini o‘qitishda informatsion texnologiyalaridan foydalanish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi.

Talabalarga fan mavzusini bayon qilishda ustozlar bir qancha o‘qitish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Eng asosiysi talabalarga bilim berishda qanday usulni qo‘llashdan qattiy nazar bilim berish xisoblanadi. Shu sababli ijod axliga, yani bo‘lajak rassomlarga *perspektiva* fanidan dars berishda yani biron-bir mavzuni bayon qilishda “ketma-ketlik” usulidan foydalanilsa talabalarga har tomonlama tushunarli va sodda xolatda bo‘lardi. Buning uchun, Perspektiva fanidagi mavzulardan xoxlagan bir mavzuni tanlagan xolda uning bayonini yuqorida keltirilgan usulda tushuntiriladi. Masalan “Perspektiv tasvirlar qurishda, Arxitektorlar usuli” mavzusini tanladik deylik. Buning uchun avvalam bor biron-bir inshoatning ikki ko‘rinishi yani oldidan va ustidan ko‘rinishini ixtiyoriy ravishda varag‘imizning chap tomoniga chizib olamiz. Bu ko‘rishlarni fan tilida binoni oldi ko‘rinishini, Fasad va ustidan ko‘rinishini esa reja deyiladi.

Endi chizmani rejasiga qarab, binoga qarash nuqtasi P ixtiyoriy tanlab olib, shu nuqtadan binoning reja chizmasidagi chap va o‘ng devorlariga parallel chiziqlar olinadi va shu asnoda asosiy X o‘q chizig‘I ham ixtiyoriy olinadi. (1-rasm).



1-rasm

Reja chizmasining devorlariga parallel chizilgan chiziqlar o‘zaro X asosiy o‘q chiziqda kesishib chap tomonda F<sub>1</sub> nuqtani va o‘ng tomonda F<sub>2</sub> nuqtalarni xosil qiladi. Qarash nuqtasi P dan X asosiy o‘q chizig‘iga perpendikular chiziq olib borilsa bu chiziq ham X asosiy o‘q chiziq bilan kesishib P<sub>1</sub> nuqtani keltirib chiqaradi. Chizmada ko‘rinib turgani kabi binoning ham-bir burchagini yani K,L,C,E,D,M,H,G,B va A deb atashingiz ham mumkin, soddaroq bo‘lishi uchun.

Berilgan binoning perspektiv tasvirini qurish uchun, rejadagi asosiy X o‘q chiziqni varaqimizning bo‘sh joyiga ixtiyoriy chizib olib, shu chiziqa parallel ravishda yana bitta chiziq olamiz ixtiyoriy, va u chiziqni gorizo‘nt chizig‘i deb ataymiz. Endi X asosiy o‘q chiziqga P<sub>1</sub> nuqtani o‘rtaga qo‘yib, uni vertikal ko‘taramiz. Bu chiziq gorizo‘nt chizig‘i bilan kesishib P nuqtani xosil qiladi. So‘ng P nuqtadan chap tomonga F<sub>1</sub> va o‘ng tomonga F<sub>2</sub> nuqtalarni rejadan o‘lchamini olib qo‘yamiz. Barcha nuqtalarni qo‘yganimizdan so‘ng, binoning perspektiv tasvirini qurish uchun quyidagi ketma-ketlikni amalga oshirish mumkin. Buning uchun avvalam bor binoning reja chizmasidan foydalangan xolda, binoni har-bir burchagini sonlar bilan atab, hamma burchagini P markaziq qarash nuqtasiga yuboramiz. Bu nuqtalar X asosiy o‘q chiziqda kesishib, bir nechta nuqtalar to‘plamini xosil qiladi. So‘ng bu nuqtalardan perspektiv tasvir qurish uchun olingan X asosiy o‘q chiziqga olib o‘tamiz, va har - birini vertikal ko‘tarib pastki kesishuv nuqtalarini, va balanlik o‘lchamini fasaddan olib X asosiy o‘q chiziqdan qo‘yiladi va ularni F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> nuqtalarga yuboramiz, shunda berilan inshoatning perspektiv tasviri quriladi.

Yuqorida bayon qilingan ketma-ketlik usulini fandagi mavzularni xoxlagan grafik masalasining perspektiv yechimini topish mumkin. Bu usulni perspektiva fanidagi har-bir mavzusiga qo‘llash maqsadga muvoffiq bo‘lar edi. Har bir ustos murabbiy o‘zining talabalariga o‘qitayotgan fanidan bilim berishda imkon darajasida har-xil bilim berish usullaridan foydalangan xolda mustaxkam ilmni maqsad qilmog‘i lozim, va shu maqsad sari yagidan-yangi usullarni topib hayotga tadbiq qilish kerak, shundagina rivojnanish va yuksalish bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda har-bir fanga yangilik kiritishga va shu yangilikni ommaga tadbiq qilish uchun ilmiy maqolalar chiqarib ommani yangiliklardan habardor qilish har-bir ustoz murrabiyni burchi va maqsadiga aynanmog‘i lozim, buning uchun ustozlar o‘z ustularida muntazzam ishlab malakalarini oshirib borishi kerak bo‘ladi.

### I.Asosiy adabiyotlar

1. Xorunov R.X. PERSPEKTIVA kursi-Toshkent. “O‘qituvchi” 4-nashri. 1997.
2. Xorunov R.X. Akbarov A. Chizma geometriyadan masalalar va ularni yechish usullari. 2-nashri. “O‘qituvchi” 1995.
3. Murodov Sh.K. va boshqalar. PERSPEKTIVA kursi-Toshkent. “O‘qituvchi” 1988.
4. Murodov Sh, Xakimov L, Jumayev M va boshqalar. “PERSPEKTIVA kursi” 2006.
5. Murodov Sh, Xakimov L, Xolmirzayev A va boshqalar. ‘PERSPEKTIVA kursi’ (rangli nashrda).
6. Sindarov R.U., Xakimov L., Jumayev M. “Chizma geometriyadan elektron ma’ruzalar matni”.

### Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Ismatullaev R.K.Chizma geometriya. Toshkent. 2003.
2. Akbarov A. “PERSPEKTIVAvu muxandislik grafikasi” Toshkent. 2004.
3. Yodgorov J., Odilov p., Narzullaev S. Chizma geometriya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “O‘qituvchi” 1991.
4. Ismatullaev R.K., Valiev A.N. Chizma geometriya. Toshkent. “TDPU”.2000.
5. Raxmonov I.T. Perspektiva. Toshkent. 1993.
6. Makarova M.N. Perspektiva.Moakva. “Proveshenie”. 1989.
7. Odilov P.O. Perspektiva (ma’ruza matni). Toshkent. 2000.
8. Mamatov U.N. STUDY OF THREE PORTRAITS OF THE GREAT POET OF THE MIDDLE AGES, ALISHER NAVOI. — USE: Oscar Publishing Services, 2023. — ISSN – 2771-2141. — P. 15-20
9. Kasimov K.S. THE POSITION OF THE ARTIST IN MODERN SOCIETY. — USE: Oscar Publishing Services, 2023. — ISSN – 2771-2141. - P. 10-13

10. Allabergenov S.A. The Significance of Colors as an Emotional Factor in the Art of Painting. — USE: AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies, 2023. — ISSN (E): 2993-2157 — P. 148-150
11. Mahmudov B.T. Perception of Miniature Works through an Artistic Image. — USE: IJNRAS, 2023. — ISSN: 2751-756X. - P. 179-182
12. Mahmudov B.T. THE ARTIST'S PSYCHOLOGICAL PERCEPTION OF COLORS, Innovation and Integrity, 2023. — ISSN: 2792-8268.
13. Umirzakov R.R. IMAGINATION ALLOWS A PERSON TO REALIZE MANY PROJECTS. — European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2023. — ISSN - 2795-8612 - P. 158-161
14. Xo‘janiyozov R.Q. O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA O‘ROL TANSIQBOYEV IJODI VA FAOLIYATI. – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. – ISSN: 2181-3191 – B. 78-79
15. Vokhidova G.I. Cubism in Fine Arts – Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268 – P. 39-40
16. Королькова Е.Ф. ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ, СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023.- ISSN: 2181-3191 –P.107-111
17. Маматов Х.Н. ПОРТРЕТЫ ПОЭТессы МАХЛАР-АЙИМ НОДИРАБЕГИМ (1792-1842)
18. ГГ.), СОЗДАННЫЕ УЗБЕКСКИМИ ХУДОЖНИКАМИ XX ТОГО ВЕКА, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. -ISSN: 2181-3191 –P. 254-259
19. Erkabayeva F.A YANGI O‘ZBEKISTON MAHOBATLI RANGTASVIR SAN’ATINING
20. BUGUNGI KUNDAGI TARAQQIYOT YO‘LI, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. -ISSN: 2181-3191 –B. 96-100
21. Xo‘janiyozov R.Q. FINI LINES UZBEKISTON PAINTING ART – Art and design Socil Science, 2022. –ISSN: 2181-2918 – B. 8-11
22. Erkabayeva F.A RAHIM AHMEDOVNING IJODIY YO‘LI VA INSON PARVARLIK G‘OYALARI, –So‘z san’ati, 2022.- ISSN: 2181-9297 –B. 64-6

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14427220>

UDK: 811.512.133'255.4

**HIKOYALARDA INSON TABIATI VA IJTIMOIY VOQELIKLARNING  
TASVIRIDA IRONIYA TALQINI  
(A.Qahhor, A.P.Chexov, S.Moem hikoyalari asosida)**

**Muhammadova Muslima Dilshodbek qizi**  
Andijon davlat chet tillari instituti,  
Ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi  
[mmhammadova899@gmail.com](mailto:mmhammadova899@gmail.com);  
ORCID ID 0009-0007-4512-6757

**Gavharoy Isroiljon qizi**  
Andijon davlat chet tillari instituti, Phd dotsent  
[gavharoy7575@mail.ru](mailto:gavharoy7575@mail.ru)  
ORCID ID 0009-0007-9600-6747

**ANNOTATSIYA.**

*Ushbu maqolada muallif A.Qahhor, A.P.Chexov, S.Moem hikoyalari asosida mohirona qo‘llanilgan badiiy tasvir ironiyaning talqin qilinishi ko‘rib chiqilgan. Ma’lumki ironiya badiiy tasviri voqealarni yoki xarakterlarni tanqidiy yondashuv bilan, yashirin ma’no orqali tasvirlashdir. Bu vosita orqali yozuvchi jamiyatdagi muammolarni, insoniy kamchiliklarni kulgili yoki achchiq kinoya orqali ifodalab undagi muammolarni yuzaga chiqaradi. Maqolada ushbu badiiy tasvir uch adib hikoyalari misolida tadqiq etilgan va misollar bilan izohlangan. Bu badiiy tasvir orqali qahramonlar, muhit hamda ijtimoiy muammolarni mualliflar qanday yoritganini o‘rganiladi. A. Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ironiya kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘lib, yozuvchi qahramonlarning ichki his-tuyg‘ulari va jamiyatda yuz berayotgan voqealarni tanqidiy, nozik kulgu bilan ko‘rsatadi. A.P. Chexovning “Толстый и тонкий” hikoyasida ironiya badiiy tasvir sifatida juda samarali qo‘llangan bo‘lib, u asar mavzusini ochish va qahramonlarning xarakterini ochib berishda katta rol o‘ynaydi. Somerset Moemning “The Verger” hikoyasida irodiya insonning orzu- umidlarini, ijodiy daho va jamiyat o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ochib berishda samarali qo‘llangan.*

**Kalit so‘zlar:** inson tabiati, badiiy tasvir, talqin qilinishi, hikoyalar, muammolar, ijtimoiy reallik, kinoya, kamchiliklar, jamiyat, ta’sir, qarama-qarshilik.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИРОНИИ В ОБРАЗЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПРИРОДЫ И СОЦИАЛЬНЫХ РЕАЛЬНОСТЕЙ В ИСТОРИЯХ (по рассказам А. Каххора, А. П. Чехова, С. Моэма)

### АННОТАЦИЯ.

В данной статье рассматривается трактовка художественного образа иронии, умело использованная на основе рассказов автора А. Каххора, А. П. Чехова, С. Моэма. Известно, что художественным воплощением иронии является описание событий или персонажей с критическим подходом, через скрытый смысл. С помощью этого инструмента писатель через смешную или горькую иронию выражает проблемы в обществе, недостатки человека, выявляет в нем проблемы. Через этот художественный образ изучается, как авторы освещают персонажей, окружающую среду и социальные проблемы. В рассказе А. Каххора «*O'g'ri*» (Вор) сильное влияние имеет ирония, а внутренние переживания героев и события, происходящие в обществе, писатель показывает критическим, тонким смехом. А.П. В рассказе Чехова «*Толстой и Тонкий*» ирония используется очень эффективно как художественный образ, она играет большую роль в раскрытии темы произведения и раскрытии характеров героев. В рассказе Сомерсета Моэма «*The verger*» (Служитель) ирония эффективно используется для раскрытия человеческих стремлений и конфликта между творческим гением и обществом.

**Ключевые слова:** человеческая природа, художественный образ, интерпретация, сюжеты, проблемы, социальная реальность, ирония, пороки, общество, влияние, противостояние.

### THE INTERPRETATION OF IRONY IN THE IMAGERY OF HUMAN NATURE AND SOCIAL REALITIES IN STORIES

(based on the stories of A. Qakhkhor, A.P. Chekhov, S. Maughm)

### ABSTRACT.

In this article, the interpretation of artistic image irony, skillfully used based on the stories of the author A. Qahhor, A.P. Chekhov, S. Maughm, is considered. It is known that the artistic representation of irony is the description of events or characters with a critical approach, through a hidden meaning. Through this tool, the writer expresses the problems in society, human shortcomings through funny or bitter irony, and brings out the problems in it. Through this artistic image, it is studied how the characters, environment and social problems are covered by the authors. In the story "*O'g'ri*" (Thief) by A. Qahhor, irony has a strong influence, and the writer shows the inner

*feelings of the characters and the events happening in society with a critical, subtle laugh. A.P. In Chekhov's story "Толстый и тонкий" (Thick and thin) irony is used very effectively as an artistic image, it plays a major role in revealing the theme of the work and revealing the character of the characters. In Somerset Maugham's story "The Verger", irony is effectively used to reveal human aspirations and the conflict between creative genius and society.*

**Key words:** *human nature, artistic image, interpretation, stories, problems, social reality, irony, flaws, society, influence, opposition.*

### Kirish

Adabiyot asarlarida ironiya badiiy tasviri keng qo'llanilgan bo'lib u barcha asarlarda uchraydi. Ironiya badiiy tasviri bu badiiy tasvir vositasi bo'lib, unda biror holat yoki voqea ko'rsatilganda, uning asl ma'nosi yoki natijasi kutganidan yoki kutilganidan farq qiladi. Ironiya (yun. eironeia-aynan, o'zini go'llikka solish) deb tarjima qilinadi va odatda kinoya, masxara yoki tanqidni ifodalash uchun ishlataladi, bunda yuzaki ko'rinishdan ko'ra chuqurroq, yashirin ma'no nazarda tutiladi. Ko'chim turi sifatida ironiya so'z yoki birikmani asl ma'nosidan boshqa, teskari ma'noda qo'llash demakdir. Metafora hamda metonimiyaga ko'chimning asosiy turlari sifatida qarab, boshqa ko'chim turlarining ularidan kelib chiqqani nazarda tutilsa, ironiyani metafora tipidagi ko'chim, ya'ni "teskari o'xshatish" asosidagi ma'no ko'chish deyish mumkin. Adabiyotda ironiya – bu inson hayotining murakkabliklarini, uning ichki qarama-qarshiliklarini va atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini badiiy ifodalashda keng qo'llaniladigan san'atlardan biridir. Bu usul yozuvchilarga nafaqat komik holatlar yaratish, balki jamiyatdagi mavjud noaniqliklarni, axloqiy muammolarni va insonga xos zaifliklarni ko'rsatish imkonini beradi.

### Adabiyot tahlili:

**A.Qahhor, A.P.Chexov** va **S.Moem** kabi mashhur yozuvchilar o'z asarlarida ironiyani inson tabiatining murakkabligini va jamiyatdagi real vaziyatlarni tasvirlash vositasi sifatida ustalik bilan ishlatganlar. Ular o'z hikoyalarida jamiyatdagi ijtimoiy tartiblar, individual istaklar va manfaatlar va insonning axloqiy qarama-qarshiliklarini

tasvirlar orqali taqdim etgan, shu bilan birga, o‘z asarlaridagi personajlar orqali ironiyaning kuchini namoyon qilganlar.

Chexov, Qahhor va Moemning hikoyalari, o‘zlarining noyob uslubi va tasvirlash vositalari bilan ironiyani inson tabiatini va ijtimoiy realitetni o‘rganishning samarali vositasi sifatida ishlataladi. Masalan, Chexovning personajlari orqali biz hayotning beqarorligini, insonning ichki ziddiyatlarini va jamoatdagi muloqotdagi xatoliklarni ko‘ramiz. Moem esa o‘z asarlarini o‘qiyotganda, insonning nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy pozitsiyalaridagi nohaqliklarni kashf etadi, bu orqali uning asarlarida jamiyat va inson tabiatini orasidagi murakkab bog‘liqlikni taqdim etadi. A.Qahhorning hikoyalari idagi ironiya esa ijtimoiy adolatsizlik va individual qarashlarni badiiy tasvirlash orqali, jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni yoritadi.

### **Abdulla qahhorning “o‘g‘ri” hikoyasida badiiy tasvir ironiya talqini:**

Bu hikoya 1936-yillarda Abdulla Qahhor tomonidan yozilgan. Hikoyada **ironiya** badiiy tasvir vositasi asar ma’nosini chuqurlashtirishda va qahramonlarning ichki dunyosini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Ironiya yordamida yozuvchi ijtimoiy muammolarni, odamlardagi ikkiyuzlamachilikni, adolatsizlikni va kutilmagan xulq-atvorni taqdim etadi. Misol tariqasida hikoyaning epigrafini olsak “*Otning o‘limi itning bayrami*” bunda muallif o‘sha paytdagi sho‘ro davrdagi noinsof odamlarga kinoya tarzida ushbu maqolani epigraf sifatida qo‘llab ularga va xalqga yetkazmoqchi bo‘lgan. Asar obrazlarga nazar solsak. Bosh qahramon Qobil bobo juda sodda va o‘qimagan oddiy bilimsiz kishi edi hamda uning kampiri huddi shunday sodda va ishonuvchan ayol bo‘lganligi sababli osongina mansabdar amaldorlar ularni oson aldab bu vaziyatdan foydalanishgan.

### **Metodik tadqiqot**

“*Qobil bobo ro ‘para bo ‘lganda amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kului*” [A.Qahhor,1936:3] muallif bizga qanday mansabdar amaldor pulga o‘ch bo‘lganligi madaniyatsizligini ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan qo‘sishma qilib aytganda “*bag‘baqasini osiltirib kului*” aynan shu yerda ironiya

badiiy tasvirini uchratishimiz mumkin bo‘lib adib bunda amaldorlar qanday hunuk holatga tushib qolganini va shu tariqa ularning ustidan kulayotgani tasvirlanadi.

“*Amin chinchalog‘ini ikkinchi bo‘g‘inigacha burniga tiqib kului*” [A.Qahhor,1936:4] bu yerda yozuvchi amin qanday qo‘pol munosabatda bo‘lgani o‘zidan katta odamni hurmat qilmayotgani va qay holatda ekanligida buni kinoya tariqasida bizga ya’ni o;quvchilarga yetkazib bermoqchi bo‘lgan. Bu yerda urg‘u “*chinchalog‘ini burniga tiqib kului*” ga berilib biror voqeanning g‘alati va **ortiqcha** tarzda bajarilishini ko‘rsatadi “*ikkinchi bo‘g‘ingacha*” esa bu bo‘rtirish ya’ni juda qattiq kulish ma’nosini berishi mumkin.

“*Aminnig tepe sochi tikka bo‘ldi*” [A.Qahhor,1936:6] ushbu gapda amin Qobil boboni ko‘rib qo‘rqib ketgan paytini ushbu kinoyaviy ibora bilan tasvirlab bermoqchi bo‘lgan, aynan gapda “*tepe sochi tikka bo‘ldi*” shu jumlasida ironiya qo‘llanilishini ko‘rshimiz mumkin.

### **A.P.Chexovning “толстый и тонкий” (semiz va nozik) hikoyasida badiiy tasvir ironiya qo‘llanilishi:**

Anton Pavlovich Chexovning "Толстый и тонкий" ya’ni (**Semiz va nozik**) hikoyasi 1898-yili chop etilib – bu yozuvchining ijtimoiy hayotdagi ijtimoiy farqlar va ikkiyuzlamachilikni yoritishga oid qisqa va o‘ziga xos asardir. Chexov bu hikoyasida ikki odam o‘rtasidagi uchrashuvni tasvirlaydi, bu uchrashuv orqali yozuvchi ijtimoiy mavqelar, insonlarning tashqi ko‘rinishi va ularning qarashlarining qanday tez o‘zgarishini ko‘rsatadi. Hikoya oddiy voqealarni eslatadi, ammo unda chuqur ijtimoiy va psixologik ma’no yashirindir. Hikoya ikkita eski tanish odam — **semiz** (**Толстый**) va **nozik** (**Тонкий**) odamlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvni tasvirlaydi. Bu ikki kishi o‘z vaqtida bir-birini yaxshi tanigan, ammo uzoq yillar davomida bir-birini ko‘rmagan. Hikoyaning voqeasi yolda uchrashgan paytda boshlanadi. **Semiz** (**Толстый**) kishi o‘zining ijtimoiy mavqeini yuqori tutib, orzu qilingan erkinlik va muvaffaqiyatga erishganligini tasvirlaydi. U o‘zini ko‘proq yuksak, hurmatga sazovor inson sifatida ko‘rsatishga harakat qiladi.

**Nozik** (Тонкий) kishi esa hech narsaga erishmagan, boshqacha qilib aytganda, past mavqega ega inson. Yana qiziq tomoni shundaki, u shunday holatga tushib qolgani sababli, **semiz** bilan uchrashganda, o‘zini darhol yuksak mavqe va hurmatga sazovor odam sifatida ko‘rsatish uchun hamma narsani qilishi mumkin. Chexov hikoyada **ironiyani** asosiy usul sifatida ishlataladi. Ironiya orqali yozuvchi jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va odamlarning o‘zini ko‘rsatishda yuksak mavqega intilishlarini tanqid qiladi. **Semiz** va **nozik** — aslida, har ikki kishi ham o‘zgaruvchan va shaxsiy manfaatlariga asoslanib, o‘zlari haqidagi tasavvurlarini qayta shakllantiradilar.

### Metodik tadqiqot

*“Тонкий вдруг побледнел, окаменел, но скоро лицо его искривилось во все стороны широчайшей улыбкой, казалось, что от лица и глаз ешо посыпались искры”* (Tonkiy birdaniga oqarib ketdi, qotib qoldi, lekin tez orada uning yuzi eng keng tabassumga burildi, go‘yo yuzidan va ko‘zlaridan iskra to‘kilib ketayotganday bo‘ldi) [A.P.Chexov,1898:4] Chexov bu tasvir orqali Tonkiyning yuzidagi nozik, ammo to‘liq tushuniladigan ironiya va ichki qiyinchilikni ifodalaydi. Iskra (uchqunlar) so‘zi, shuningdek, shunday ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin: biror narsa kuchli yoki aniqlik bilan yuzaga keladi, odamning ichki hissiyoti yoki g‘alati holatini kuchli tarzda ko‘rsatadi. Bu yerda "iskra"(uchqun) so‘zi ironyaning kuchini ifodalaydi, uning ko‘zlarida va yuzida yashirin tarzda chiqib, odamning ichki holatini, uning o‘zini boshqalarga qanday ko‘rsatish uchun qilingan harakatlarini ko‘rsatadi. Yana bir jumlasida **Tonkiy** (nozik) kishi o‘zining g‘alati va ikkiyuzlamachi xulqi bilan ajralib turishini ko‘rsatadi. *“Тонкий пожал три пальца, поклонился всем туловищем и захихикал, как кимаец”* (**Tonkiy uchta barmog‘ini qisdi, butun tanasi bilan egilib, xitoycha kulib yubordi**)[A.P.Chexov,1898:9]. *“Тонкий пожал три пальца”* bu yerda (uchta barmog‘ini qisdi) ifodasi, ehtimol, Тонкий o‘zini oddiy holatda, ya’ni rasmiy yoki shaklli bir tarzda tutishini anglatadi. Uchta barmoqni qisish — ehtimol, o‘ziga xos bir salom berish usulini ifodalaydi, bu o‘z navbatida Tonkiyning jamiyatdagi o‘z mavqeini yoki o‘zini qanday ko‘rsatishga intilishidan dalolat beradi. Bu uning o‘ziga xos jismoniy ifodasi va boshqa kishilarga salom berish shaklidir.

"Поклонился всем туловищем" bu so‘zlar Тонкий ning yuksak mavqe yoki hurmat ko‘rsatish uchun ko‘rsatilgan harakatni ifodalaydi. U butun tanasi bilan egilib, boshqa odamlarga hurmat bildirmoqda. Bu Тонкий ning ijtimoiy holatiga o‘ziga xos qarashni taqdim etadi. "И захихикал, как китаец"(Xitoycha kulib yubordi) ifodasi o‘z-o‘zidan biror kutilmagan va g‘alati kulishni anglatadi. Bu, Тонкий ning o‘zini yuksak qilib ko‘rsatishga urinishida qandaydir noqulaylik va sun’iy holatni ko‘rsatadi. Xitoycha kulish — bu boshqa biron bir madaniyatga taqlid qilishni bildiradi, va Chexov buni ehtimol Тонкий ning o‘zini boshqalarga taqdim etishdagi haddan tashqari sun’iy yoki qolaversa, ikkiyuzlamachilikni ta’kidlash uchun ishlatgan.

### Somerset Moemning “the verger” hikoyasida qo‘llanilgan ironiya badiiy tasviri tahlili:

Somerset Moemning "The Verger" hikoyasi 1929-yili — o‘zining **ironik** uslubi va **odamlarning yashirin niyatlarini** tahlil qilishdagi ustaligi bilan mashhur bo‘lgan asarlardan biridir. Hikoya, birinchi qarashda oddiy bir xizmatkordan, **Alfred** ismli bir **vergerdan** (cherkov xodimi) boshlanadi. Ammo S.Moem, o‘zining odatiy uslubida, kichik bir hodisani ijtimoiy va psixologik tahlil orqali kengaytiradi va oxir-oqibatda o‘quvchini **kutilmagan, ironiya bilan to‘ldirilgan** yakunlarga olib keladi. Moemning hikoyasidagi **ironiyaning** markazida **Alfredning ishdan bo‘shatilishi** bo‘lib, u ishidan bo‘shatilgach, ko‘pchilik odamlarga o‘xshab, o‘zining katta hayotiy yutug‘ini kashf etadi. Moem bu yerda kutilmagan natijalar bilan **ironiyani** taqdim etadi, ya’ni, ishdan bo‘shatilib, bilimni yo‘qotgan Alfred nihoyat o‘zining haqiqiy muvaffaqiyatini topadi.

### Metodik tadqiqot

Hikoyadan misollar keltirsak masalan: "*Albert thought a moment and said, "I'm very sorry sir...I'm too old a dog to learn new tricks."*" (Albert bir zum o‘ylab turdi va dedi: ‘Kechirasiz, janob... Men juda eski itman, yangi usullarni o‘rganish qiyin.)(**S.Moem,1929:2**) Bu yerda **ironiya** mavjud bo‘lib "**Eski itga yangi usullarni o‘rgatish**" degan ibora odatda kishilarning yosh ulg‘aygan sayin yangi narsalarni o‘rganishga qiyinchilikka duch kelishini tasvirlaydi. Ammo, aslida, **yoshi katta**

**odamlar ham o‘zgarishi, yangi narsalarni o‘rganishi mumkin.** Demak, bu ibora bir qarashda insonlarni o‘zgarishdan cheklab qo‘yadigan stereotipni aks ettiradi, lekin bu har doim ham to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Yana bir misol qilib aytsak “Albert replied, “But how would I know what I was signing...I can’t read...I only learned how to sign my name when I went into business.” The bank manager jumped up from his chair and exclaimed, “You have accomplished all of this without knowing how to read and write! Imagine what you would be now if you had been able to!” [S.Moem,1929:4]. Bu yerda ironiyani ko‘rishimiz mumkin. **Albertning muvaffaqiyati va o‘qish bilmasligi:** Albert o‘qish va yozish qobiliyatiziz ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatga erishgan. Bu **ironiya** shundaki, **Albertning amaliy bilimlari** va **hayot tajribasi** unga muvaffaqiyat keltirdi, o‘qish esa unga zarur bo‘lmagan. **Bank menejerining taxmini:** Menejer Albertni o‘qishni bilmagan holda muvaffaqiyatga erishgani sababli ajablanadi va uni yanada katta muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘ldi deb o‘ylaydi. Bu **ironiya**, chunki hikoyaning davomida **Albertning muvaffaqiyati** ko‘proq **amaliy ishlar** va **sodda, real hayotiy qarorlar** bilan bog‘liq. **O‘qishning muvaffaqiyatga bo‘lgan aloqasi:** Menejer o‘qish va yozishni muvaffaqiyatning zaruriy shartlari sifatida ko‘rsa-da, aslida hikoya Albertning o‘qish bilmasdan ham muvaffaqiyat qozonish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu **ironiya** shundaki, Albertning muvaffaqiyati o‘qishsiz ham amalga oshgan va u o‘ziga kerak bo‘lgan bilimlarni faqat amaliy hayot orqali o‘rgangan.

### Tahlil

A.Qahhor, A.P.Chexov va S.Moemning hikoyalaridagi **ironiya** badiiy tasvirning asosiy vositasi sifatida ishlataligan. Har bir yozuvchi o‘z qahramonlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni va insonlar o‘rtasidagi ichki kechinmalarni ko‘rsatishga harakat qilgan.

**Abdulla Qahhor** o‘z hikoyalarida o‘zbek jamiyatining sodda va bilimsiz qahramonlari, mansabdar amaldorlarning mansabfarastligi haqida ironiya orqali tanqidiy fikrlar bildirgan. Uning hikoyalari jamiyatdagiadolatsizliklarni ko‘rsatib, xalqqa o‘zining sodda va bilimsizligini ochib beradi.

**Anton Pavlovich Chexov** o‘zining "Тонкий и толстый" hikoyasida ironiya yordamida ijtimoiy tabaqalanishning inson qadr-qimmatiga ta’sirini ko‘rsatadi. "Тонкий" va "толстый" qahramonlari orqali Chexov jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik va yuqori martaba oldida odamlarning o‘zini qanday pastga urishini tanqidiy tarzda yoritadi.

**Somerset Moem** esa "The Verger" hikoyasida ironiya orqali ta’lim va ijtimoiy mavqening hayotdagi muvaffaqiyatning yagona belgisi emasligini ko‘rsatadi. U har bir insonning o‘z qobiliyatlari va ichki kuchi bilan yuksalishi mumkinligini ta’kidlaydi.

### Xulosa

Ushbu yozuvchilarning hikoyalarida ironiya orqali jamiyatdagi muammolar, insonlar o‘rtasidagi ikkiyuzlamachilik va ijtimoiy tabaqalanish tanqid qilinadi. Har bir yozuvchi o‘z asarida insonning qadr-qimmati, ijtimoiy mavqe va o‘z imkoniyatlari bilan bog‘liq muammolarni ko‘rsatadi.

**A.Qahhor** o‘zbek xalqining sodda va bilimsizligini, mansabdorlarning mansabfarastligini tanqid qilgan,

**A.P.Chexov** jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni va maqom oldidagi ojizlikni tasvirlagan,

**S.Moem** esa ijtimoiy stereotiplarga qarshi turgan va insonning haqiqiy kuchi va qobiliyatini ko‘rsatgan.

Bularning barchasi o‘z-o‘zidan, yozuvchilarning o‘z davridagi jamiyatni va uning muammolarini tanqidiy va ironiya orqali yoritishga bo‘lgan intilishlarini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kubasov.A.V “A.P.Chekhov nasri:stilizatsiya san’ati”,Ekaterinburg,1998,-b:397.
2. Moem.S “The Verger”, “Penguin Books; reprint edition” , 1984, -b256
3. Moem.S “The complete short stories”,Garden City, N. Y,1961,-b:955
4. Qahhor.A, “Adabiyot muallimi”, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019, -b:128
5. Qahhor.A “O‘g‘ri” ,Toshkent,1936
6. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”,Toshkent “Akademnashr”,2010, -b:397
7. Qo‘sjonov M. Abdulla Qahhor mahorati, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984.
8. Richard. Kordell, “Somerset Moem, barcha fasllar uchun yozuvchi”, Indiana University Press, 1969, -b: 308.
9. Sanjar Sodiq “So‘z san’ati jozibasi”. T. “O‘zbekiston”, 1996
10. Вигдорчик, А. «Чехов и ирония». Вопросы литературы, 1997, № 5.
- 11.Chekhov.A.P “Тонкий и толстый”, “Осколки” jurnali, 1883, -b:128
- 12.Qizi, G. I., (Gavharoy Isroiljon qizi.) & Ulikova, M. (2021). Description of the concept of love and family relationship. Journal of Academic research in educational sciences, 2 (10), 601-606.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14427292>

## ЎЗБЕКИСТОН РАНГТАСВИРИДА ЁШЛАР ҲАЁТИ МАВЗУСИ ТАЛҚИНИ

**Каримов Сардор Соибжон ўғли**

Камолиддин Беҳзод номидаги

Миллий рассомлик ва дизайн институти

Чизматасвир кафедраси ўқитувчиси

**Аннотация.** Мақолада юртимизда бадиий таълим тизимида талабаларга “Рангтасвир” фанини ўқитишида замонавий рангтасвир санъатининг асосий тамойиллари услубларининг кенг кўламлиги ҳамда юқори ва чуқур ижрочилик маҳорати, образлар мазмундорлигини сақлаган ҳолда, реалистик анъаналардан тортиб, авангардлик, декоратив ё’лидаги изланишилар каби бир қатор вазифаларни белгилаш ва бунинг натижасида талабалар келажакда ўз ё’лларини топиб, етук рассом бўлиб шаклланиши мумкинлиги таъкидлаб ўтилган.

**Калим сўзлар:** рангтасвир, услуб, образ, колорит, композиция, авангардлик, конструксиялаш, реалистик анъана, гризайл, пластик, стилистика.

supur-sidir, pishir-kuydir, mol-qo‘yga qarash, kir-chirni yuvish kabi. Nihoyat, sinovga olib chiqilgach, ya’ni paxta maydoniga borib paxta tergach, Alomatxon tutab ketadi va butunlay ishdan chiqadi. Robot bilan bir muddat yashagan Qo‘chqorvoy bu orada ko‘p narsaga tushunib yetadi va oz bo‘lsa-da o‘zgaradi. Xotini ham qaytib keladi va ilgarigidek yashab ketishadi. Asarning qisqacha syujeti shu bo‘lib, katta ahamiyatga ega bo‘lgan va mohiyati ulkan bo‘lgan asar hisoblanadi. Drama shunchaki komedik hodisalar voqeligi emas, balki "jiddiy komedik" asar hisoblanadi. Muallif go‘yoki:" Maqsadim kuldirish emas, kulgi- o‘tkir muammolarga diqqatingizni tortish vositasi, xolos",- degandek tuyuladi. Asarda sovet davridagi paxta siyosati tasvirlangan bo‘lib, ayollarning barchasi uyda o‘tirib, bolani va ro‘zg‘orni eplash o‘rniga ertalabdan kechgacha dalada mehnat qilishlari, kechasi daladan qaytib uy ishlarini ham qilishganini, pardoz-andozga-ku umuman vaqt yo‘qligino ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Robot esa tirik jon ayollarning qiladigan ishini chorak qismini qilib, bor yo‘g‘i dalada ishlab portlab ketadi. Bundan ko‘rshimiz mumkinki, shu temir 1 ta oddiy ayolning yarim ishiga bardosh berolmaydi. Bularning barchasi achchiq haqiqat hisoblanadi.

## Xulosa

Asarning kulminatsiya qismi Alomatxonning Qo‘chqorvoyni gipnoz qilish jarayoni hisoblanadi. Mana shu dialog zamirida o‘zbek ayolining haqiqiy xarakteri, jafokashligi ko‘rinadi. Shuncha yumush, shuncha tashvishni birgina nozik xilqat, nihol qomat egasi bo‘lmish ayol qiladi, ya’ni o‘zbek ayoli. Qaysi millatda o‘ntadan ko‘p tug‘gan ayollar ko‘pligini eshitgansiz? Qaysi millat zaifalari shuncha ishni “g‘iq” demay bajaradi? Ayolni zaifa deymiz-u, lekin unga shuncha mashaqqat yuklaymiz. O‘zbek ayoli shuncha yumushdan ortib, erining o‘dag‘aylashini, qaynonasining g‘imir-simirini, bolasining g‘ingshishini, qo‘shnilarining pichir-pichirini ko‘tarishi kerak. Shunday katta, metin iroda sohibasi ayol. Agar ozgina noligudek bo‘lsa noshukrga chiqadi, haqqini talab qilaman desa, “tili chiqib qolgan” bo‘ladi. Ortiqcha dam olgudek bo‘lsa “tanbal kelin” degan nom oladi. Unda ham ko‘ngil borligi, asablari charchashi, jismi zaiflashishi, kayfiyatsiz bo‘lishi hisobga olinmaydi. Hatto temir yaramay, tutab ketgan mehnatlarga o‘zbek ayoli yonmasligi, doim xizmatga shay, “labbay” deb turishi, har

hunarni qoyillatishi, yegan nonini oqlab qo'yishi, qo'ydek yuvosh bo'lishi kerak. Bunday onadan qanday farzandlar yetishib chiqishi mumkin, deb o'ylaysiz? Albatta, yuvoshgina, nima deyilsa, "xo'p" deydigan, noroziligini bildirishga botinmaydigan, hayotidan nolimaydigan, ammo kun ko'rmaydigan Qo'chqorlar yetishib chiqadi. Biz ayollarimizni qadrlamas, ularning zaifaligini hisobga olmas, yelkasidagi yukni ko'tarishiga yordam bermas va ma'nan qo'llamas ekanmiz, kelajagimiz buyuk bo'lishiga umid ham qilmasak bo'laveradi. Farzandlarimiz qachon bizdan ko'ra baxtli bo'la oladi, qachonki ayollarimiz baxtli bo'lsa. Bola onasining ko'zida so'ngsiz charchoq, mungni emas, baxtni, keljakka umidni ko'rsagina o'zini baxtli his qiladi. "Temir xotin" komedyasi nafaqat respublikamiz, balki boshqa mamlakatlar teatrlarida ham sahnaga qo'yildi. Unda muallif fan-texnika rivoji davrida inson ongi, dunyoqarashi, faoliyatida sodir bo'layotgan jiddiy o'zgarishlar, jamiyatdagi teran muammolarni hajviy yo'sinda ochib beradi. Mazkur asar asosida tasvirga olingan badiiy film ham xalqimizga manzur bo'ldi.

### **Adabiyotlar**

1. D.H.Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari" Noshir nashri T:2019.
2. <https://kun.uz/news/2023/03/31/tragediyani-aks-ettirgan-komediya-temir-xotin-asari-haqida>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14429542>

## ЖЕНСКОЕ ЛИДЕРСТВО В НАУКЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ

Азиза Садридиновна Файзуллаева

Ташкентский государственный экономический университет,  
Независимый соискатель кафедры «Философия».

**Аннотация:** В статье рассматривается влияние женского лидерства в науке на образовательные процессы с акцентом на глобальный и узбекский контексты. Женщины-лидеры играют ключевую роль в формировании инклюзивной образовательной среды, продвижении гендерного равенства и внедрении инновационных подходов. В Узбекистане законодательные инициативы, такие как Закон «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» и «Стратегия достижения гендерного равенства до 2030 года», способствуют развитию женского лидерства. Особое внимание уделено барьерам и вызовам, с которыми сталкиваются женщины-учёные, а также их вкладу в реформирование образовательной системы через внедрение STEM-дисциплин и цифровых технологий. Сделан вывод о значении женского лидерства для устойчивого развития науки и образования.

**Ключевые слова:** Женское лидерство, наука, образование, Узбекистан, гендерное равенство, инновации, STEM, образовательная политика, инклюзия, устойчивое развитие.

### Введение

Женское лидерство в науке становится важным фактором трансформации современных образовательных систем. Женщины-учёные, занимая ключевые позиции в академической среде, не только вносят вклад в развитие своих научных дисциплин, но и активно влияют на образовательные подходы, политику и практику. Они выступают агентами изменений, продвигая инклюзию, гендерное равенство и инновации в образовании.

Исторически сложилось, что участие женщин в науке и лидерских позициях было ограничено из-за социальных стереотипов и культурных барьеров. Однако с усилением глобализации и повышением роли науки в решении глобальных проблем роль женщин-лидеров в этой области значительно возросла. Женщины-лидеры в науке играют ключевую роль в создании программ, направленных на вовлечение новых поколений в STEM-дисциплины, развитие междисциплинарного обучения и внедрение инновационных методик преподавания.

Цель данной статьи — проанализировать, как женское лидерство в науке влияет на образовательную сферу, выделить ключевые аспекты их влияния и показать, как их подходы способствуют трансформации образования в глобальном и локальном контекстах.

Женское лидерство в науке играет ключевую роль в формировании современных образовательных систем. Успехи женщин-учёных вдохновляют новые поколения, стимулируют гендерное равенство и способствуют внедрению инновационных подходов в обучение. По данным UNESCO (2022), увеличение числа женщин-лидеров в науке напрямую связано с улучшением образовательных показателей и созданием инклюзивной образовательной среды.

В контексте Узбекистана женское лидерство в науке также оказывает значительное влияние. В последние годы в стране приняты реформы, направленные на расширение участия женщин в академической среде. Как отмечает Саида Курбанова (2020), женские образовательные инициативы в Узбекистане играют важную роль в развитии местных образовательных учреждений и продвижении современных методик преподавания.

Целью данного исследования является анализ влияния женского лидерства в науке на образовательную систему, с акцентом на международный и узбекский контексты.

## **Методы (Methods)**

Исследование выполнено с использованием следующих методов:

Литературный обзор: Анализ международных источников (UNESCO, Eagly & Carli, 2007) и узбекской литературы (Курбанова, 2020; Худойберганова, 2021).

Интервью: Проведены интервью с пятью женщинами-учёными из Узбекистана, занимающими руководящие должности в научных и образовательных учреждениях. Кросс-культурный анализ: Сравнение влияния женского лидерства на образование в Узбекистане и других странах Центральной Азии.

## **Результаты (Results)**

### **1. Влияние женского лидерства на образовательные стратегии**

Женщины-лидеры в науке внедряют инновационные подходы к обучению.

В Узбекистане, по словам Худойбергановой (2021), женщины-учёные активно работают над модернизацией образовательных программ, включая развитие STEM-дисциплин. Например, создание специализированных курсов для девочек и женщин способствует повышению их интереса к науке и технологиям.

### **2. Гендерное равенство в образовательной среде**

Женское лидерство способствует устраниению гендерных барьеров в образовании. Как отмечает Сайдова и Касымов (2019), в Узбекистане программы, возглавляемые женщинами, направлены на повышение доступности образования для девушек из сельских регионов.

### **3. Роль женщин в формировании образовательной политики**

Женщины-лидеры активно участвуют в разработке образовательной политики. Например, в интервью респондентки указали, что участие женщин в реформе высшего образования в Узбекистане способствует внедрению современных стандартов и повышению качества обучения.

## **Обсуждение**

Женское лидерство в науке представляет собой многоаспектное явление, которое оказывает значительное влияние на образовательные процессы. Оно трансформирует традиционные подходы к обучению, внедряет инновации и способствует гендерному равенству. Обсуждение этой темы требует анализа как

глобального контекста, так и локальных особенностей, в том числе в Узбекистане.

Женщины-лидеры в науке становятся движущей силой внедрения инноваций в образование. В глобальном масштабе это проявляется в разработке междисциплинарных подходов, интеграции технологий в учебный процесс и создании инклюзивных образовательных программ. Например, исследования показали, что женщины-лидеры склонны акцентировать внимание на практической значимости науки, что помогает формировать новые подходы к преподаванию. Это мнение подтверждается работами Eagly и Carli (2007), которые утверждают, что женщины-лидеры чаще внедряют стратегии, ориентированные на сотрудничество и долгосрочные изменения.

В Узбекистане женское лидерство проявляется в модернизации образовательной системы через внедрение цифровых технологий. Как отмечает Саида Курбанова (2020), женщины, занимающие руководящие позиции в образовании, активно продвигают использование дистанционного обучения и цифровых платформ для повышения доступности образования. Это особенно важно для сельских районов, где цифровизация помогает преодолеть географические барьеры.

Примером успешного внедрения инноваций является программа повышения квалификации учителей в Узбекистане, в которой активно участвуют женщины-учёные. Они внедряют методики, способствующие развитию критического мышления и навыков решения проблем у студентов. Эти подходы, по словам Худойбергановой (2021), помогают формировать у молодёжи гибкость мышления и готовность к решению глобальных вызовов.

Несмотря на успехи, женское лидерство в науке сталкивается с многочисленными барьерами, которые можно разделить на социальные, культурные и институциональные. В Узбекистане исторические и культурные традиции играют значительную роль в формировании гендерных стереотипов. Как подчеркивает Худойберганова (2021), в традиционном узбекском обществе

женщины чаще воспринимаются как хранительницы домашнего очага, а не как лидеры в науке или образовании. Это ограничивает их карьерные амбиции и доступ к ресурсам.

Глобализация частично способствует изменению этих установок, но процесс остаётся медленным. Например, в интервью с женщинами-учёными из Узбекистана респондентки указали, что, хотя государственные программы создают возможности для их профессионального роста, они всё ещё сталкиваются с дискриминацией в принятии решений. Один из респондентов отметил: «Женщинам приходится доказывать свою компетентность в два раза чаще, чем мужчинам, даже если их достижения очевидны».

Международный опыт показывает, что для преодоления подобных барьеров важно развивать программы наставничества, которые помогают женщинам укреплять уверенность в себе и строить карьеру. В Узбекистане такие программы начинают набирать популярность, но их масштаб пока недостаточен для значительного влияния.

Образование играет ключевую роль в развитии лидерских качеств у женщин. В Узбекистане реформы образовательной системы, такие как программа «Образование для всех», направлены на обеспечение равного доступа к образованию. По данным Сайдовой и Касымова (2019), девушки из сельских регионов теперь имеют больше возможностей для обучения, что повышает их шансы на карьерный рост.

Женщины-лидеры также выступают инициаторами образовательных реформ, направленных на развитие у студентов навыков лидерства и самостоятельности. Например, внедрение программ STEM для девушек стало важным шагом в продвижении женского лидерства. Эти программы помогают развивать уверенность в своих силах, что является критически важным для успешной карьеры в науке.

Женщины-лидеры оказывают положительное влияние на гендерное равенство в образовательной среде. Они способствуют созданию инклюзивных

условий, где девушки могут чувствовать себя равноправными участниками процесса обучения. Как отмечает Catalyst (2020), наличие женщин в руководстве образовательных учреждений повышает вероятность внедрения политики равенства и инклюзии.

В Узбекистане одним из примеров таких инициатив является создание женских образовательных клубов, где студентки могут получать поддержку и обмениваться опытом. Эти клубы, как утверждает Курбанова (2020), помогают формировать у девушек лидерские навыки и готовность к принятию ответственности.

Кроме того, женщины-лидеры активно поддерживают проекты, направленные на борьбу с гендерными стереотипами в школьной и университетской среде. Например, образовательные кампании, посвящённые роли женщин в науке, помогают менять общественное восприятие и стимулировать интерес девушек к научной деятельности.

#### Женское лидерство и образовательная политика

Женщины-лидеры также играют важную роль в разработке образовательной политики. В Узбекистане реформы высшего образования активно поддерживаются женщинами, занимающими ключевые позиции в Министерстве высшего образования и других институтах. Эти реформы направлены на внедрение международных стандартов, таких как Болонская система, и улучшение качества подготовки специалистов.

Респонденты интервью подчеркнули, что женщины-лидеры часто инициируют изменения, которые учитывают потребности студентов и преподавателей. Например, реформы, направленные на снижение бюрократической нагрузки и повышение академической свободы, были предложены именно женщинами в руководстве.

В глобальном контексте женское лидерство в науке способствует развитию новых подходов к образованию, таких как междисциплинарное обучение и интеграция социальных навыков. Эти изменения отражаются и на

узбекской образовательной системе, где всё больше внимания уделяется подготовке специалистов, готовых к работе в условиях глобальных вызовов.

Однако, как отмечает Худойберганова (2021), успех таких инициатив зависит от локальных условий. В Узбекистане, где культурные традиции играют значительную роль, важно учитывать специфику местной культуры при разработке программ и инициатив.

Перспективы женского лидерства в науке и образовании в Узбекистане зависят от комплексного подхода к устранению барьеров и поддержке женщин. Государственные инициативы, такие как программы наставничества, поддержка предпринимательства и образовательные гранты, играют важную роль в этом процессе.

Кроме того, международное сотрудничество может стать важным инструментом для развития женского лидерства. Участие узбекских женщин в международных конференциях, грантовых программах и сетях, таких как UNESCO Women in Science, способствует обмену опытом и укреплению их позиций.

Женское лидерство в науке оказывает значительное влияние на образование, способствуя его инклюзивности, инновационности и устойчивости. В Узбекистане женщины-лидеры играют важную роль в реформировании образовательной системы, несмотря на сохраняющиеся социальные и культурные барьеры. Их вклад является ключевым фактором развития науки и образования как на национальном, так и на международном уровне.

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев неоднократно подчеркивал важность повышения роли женщин в общественной, политической и деловой жизни страны. В своем выступлении на 46-й сессии Совета ООН по правам человека он отметил: «В вопросах гендерной политики мы намерены кардинально повысить роль женщин в общественной, политической и деловой жизни страны».[10]

В 2019 году был принят Закон «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин», который закрепляет равноправие полов во всех сферах жизни, включая науку и образование. Этот закон обеспечивает женщинам равное участие в управлении делами общества и государства, избирательном процессе, а также равные права и возможности в сфере образования, науки и культуры.

В 2021 году была утверждена «Стратегия достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года». Этот документ направлен на создание условий для полного и равноправного участия женщин во всех сферах общественной жизни, включая науку и образование.

**Влияние женского лидерства на образовательные инновации:**

Женщины-лидеры в науке Узбекистана активно способствуют внедрению инновационных подходов в образование. Профессор Шахло Турдикулова, заместитель министра высшего образования, науки и инноваций, отмечает: «Наша задача — обеспечить женщинам равный доступ и участие в науке» ГАЗЕТА.UZ. Под ее руководством реализуются программы, направленные на привлечение девушек к STEM-дисциплинам и развитие научного потенциала женщин.[9]

В 2023 году в Ташкенте прошел международный форум «Роль женщин в устойчивом развитии науки, технологий и инноваций в обществе», организованный Государственным комитетом семьи и женщин, Министерством высшего образования, науки и инноваций и Академией наук УЗА. На форуме обсуждались вопросы расширения участия женщин в науке и их вклад в развитие инновационных технологий.

### **Заключение**

Женское лидерство в науке оказывает глубокое влияние на образовательную сферу, способствуя её модернизации, инклюзивности и инновационности. В Узбекистане роль женщин-лидеров в науке особенно заметна в разработке образовательных программ, направленных на привлечение девушек к STEM-дисциплинам, продвижение гендерного равенства и внедрение

современных технологий. Законодательные инициативы, такие как «Стратегия достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года» и Закон «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин», создают основу для устойчивого развития женского лидерства.

Президент Шавкат Мирзиёев неоднократно подчеркивал важность участия женщин в науке и образовании, что находит отражение в национальных реформах и международном сотрудничестве. Женщины-лидеры играют ключевую роль в изменении образовательной среды, разрушая стереотипы и формируя будущее, в котором наука и образование становятся равнодоступными для всех.

Тем не менее, остаются вызовы, связанные с культурными барьерами и гендерными стереотипами, которые требуют продолжения работы на уровне государственной политики и общественных инициатив. Поддержка женщин-учёных через программы наставничества, гранты и международное сотрудничество будет способствовать их дальнейшему развитию и расширению их вклада в образование.

Женское лидерство в науке — это не только вопрос гендерного равенства, но и важный фактор устойчивого развития общества, который открывает новые горизонты для будущих поколений.

## Список литературы (References)

1. Курбанова, С. (2020). Роль женщин в развитии общества Узбекистана: исторический и современный контекст. Ташкент: Издательство национального университета.
2. Худойберганова, М. (2021). Женское лидерство в условиях модернизации и традиционных ценностей в Центральной Азии. Ташкент: Академия наук Узбекистана.

3. Сайдова, Ш., & Касымов, Б. (2019). Гендерные аспекты образовательной реформы в Узбекистане. Журнал «Социальная динамика», 3(2), 45-62.
4. Eagly, A. H., & Carli, L. L. (2007). Through the Labyrinth: The Truth About How Women Become Leaders. Harvard Business Review Press.
5. Catalyst. (2020). Women in Leadership: Representation and Best Practices. Retrieved from <https://catalyst.org>
6. Закон Республики Узбекистан. (2019). О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин. Retrieved from <https://lex.uz>
7. Стратегия достижения гендерного равенства в Республике Узбекистан до 2030 года. (2021). Retrieved from <https://gender.stat.uz>
8. UNESCO. (2022). Gender and Education: Challenges and Opportunities. Retrieved from <https://unesco.org>
9. Газета.uz. (2023). Шахло Турдикулова: Мы создаем равные возможности для женщин в науке. Retrieved from <https://gazeta.uz>
10. Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 46-й сессии Совета по правам человека Организации Объединенных Наций. Retrieved from <https://president.uz>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14429619>

## GULLIVERNING SAYOHALTLARI ASARIDA IJTIMOIY -SIYOSIY MASALALARING SATIRIK TASVIRI

**Abdurayimova Lobar Husniddin qizi**

TerDU talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Jonatan Swiftning "Gulliverning sayohatlari" asari, asarga oid ma'lumotlar, undagi qahramonlar hamda Angliyadagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni fantastik sayohatlar orqali ochib berishi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Gulliver, sayohat, Jonatan Swift, ijtimoiy tanqid, fantastika, siyosat, Liliputiya, ulkan odamlar.

Jonatan Swift (1667 - 1745) ingliz nasrining eng yuksak namoyondalaridan biri sanaladi. Swiftning shoh asarlaridan biri bo'lgan „Gulliverning sayohatlari“ romani 1726 - yilda chop etilgan bo'lib, ko'pchilik asarni bolalarga mo'ljallab yozilgan asar deb qarashadi. Aslida bu asar insoniyat haqida yozilgan satiradir. Asar o'z zamonasining ijtimoiy va siyosiy masalalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu asar, fantastik sayohatlar orqali inson tabiatini, jamiyatdagi munosabatlarni tanqid qiladi. Asar Gulliverning har xil o'lkalarga qilgan sayohatlarini tasvirlaydi. Har bir o'lka o'ziga xos xarakterlar, madaniyat va ijtimoiy tizimlar bilan to'la, bu esa Gulliverning o'zini va o'z jamiyatidagi vaziyatlarni kengroq ko'rishiga imkon beradi.

Liliputiyaga qilgan sayohatida Gulliver kichik odamlar orasida bo'ladi. Mittivoylar orasida „Tog‘ odam“ ga aylanadi. Uning ro'molchasida chavandozlar ot o'ynatadi, qahramon 600 ta to'shakda uxlaydi. Mittivoylar mamlakatida tuxumni uch tomonidan sindiruvchilar guruhi bilan poynagidan sindiruvchilar guruhi o'rtasida ashaddiy bahs boradi. Tuxumni uchidan sindirishdan bosh tortganligi uchun o'n bir

ming mutassib o‘lim jazosiga hukm qilingan.Bu kabi hodisalarini o‘qigan har bir o‘quvchida arzimagan bir tuxum masalasining ustidan tortishishlari kulgu uyg‘otishi tabiiydir.Adib bu bilan o‘z zamonasidagi katoliklar va protestant mazhabidagi dindorlarning ashaddiy ixtiloflari aslida arzimas poydevorga qurilganligi, ammo, shu arzimas sabab tufayli juda katta qirg‘in-barotlar yuz berayotganligini tanqidiy tarzida tasvirlaydi.Romanda Liliputiyadagi ahmoqona tartiblardan yana biri — yuqori mansablarga qanday odamlar tanlanishi o‘tkir hajviy bo‘yoqlarda tasvirlanadi: „Birorta amaldor vafot etsa yoki imperatorning g‘azabiga uchrasa, bo‘sagan lavozimga da‘vogar bo‘lganlardan besh-olti kishi oliv hazratlari va butun saroy ahlini xushnud etib, dor o‘ynab berish uchun imperatordan izn so‘rashadi. Kimki arqondan qulamay, hammadan balandga sakrasa, bosh o‘rin o‘shaniki bo‘ladi “. Mukofot olish tartiblari ham shunga o‘xhash. Imperator tayoq o‘ynatganida uning ustidan va ostidan chaqqonlik bilan likillab o‘ta oluvchilarga oliv mukofotlar beriladi. Shunga o‘xhash voqealar talaygina bo‘lib, ular kinoyaviy tarzda alohida chizgilar bilan namoyon bo‘ladi.

Gulliver sayohatlaridan birida Ulkanlar mamlakatiga borib qolganida o‘zi ham liliput holiga tushib qoladi.Ulkan fermerlardan biri Gulliverni xalqqa ko‘rsatib anchagina pul ishlaydi.Ulkanlar qirolining qizi bu xabarni eshitib, otasini ko‘ndirib, dehqondan „qo‘g‘irchoq odamcha“ Gulliverni sotib oladilar. Keyingi sayohatida Gulliver sehrgarlar oroli Glabbdobdribga borib qoladi. Sehrgar qirol unga insoniyat tarixida o‘tgan buyuk zotlarning ruhlarini chaqirib, suhbatlashtiradi . Suhbatlarda aniqlanishicha, tarixda o‘tgan buyuk zotlarning avlodlari asrlar o‘tishi bilan maydalashibdi — ular tovlamachi, firibgar, aqldan ozgan, zolim odamlarga aylanibdilar. Tarixchilar esa yolg‘onlarni yozib, eng buyuk jasoratlarni qo‘rqoqlik, dono maslahatlarni ahmoqlik, vatanparvarlikni xoinlik deb yozibdilar.

Aslida Jonatan Swift bu asarini boshqa bir buyuk ingliz adibi Daniel Defoning „Robinzon Kruzo“ romaniga hajv sifatida boshlagan edi. Afsuski, bir zamonda yashagan ikki buyuk adib bir-biriga yov edi. Defo ham, Swift ham bir-birini amaldorlarga xushomadgo‘ylik qilishda, sotqinlikda ayblar edilar. „Robinzon

Kruzo“ning bir necha qismdan iborat davomi bo‘lib, ularda qahramon mavjud qirollik tuzumida adolatli oddiy mehnatkash odam o‘z baxtini topadi, degan g‘oyani ilgari surgan edi. Swift esa bir biridan ochko‘z , tekinxo‘r, takabbur qirollar va ministrlar hukmronlik qilgan jamiyatda inson hech qachon baxtini topolmasligini Gulliver sayohat qilgan o‘lkalar misolida ko‘rsatib bergen.

Xulosa qilib aytganda, asar o‘z zamonida kuch va kuchsizlik, erkinlik va kamsitish kabi dolzarb mavzularni satirik usulda tasvirlash orqali Angliya burjuaziyasi va zodagonlari hayotining ijtimoiy -siyosiy masalalarini ochib bergen. Swiftning mazkur asari o‘tgan ikki yarim asr davomida jahonning bir nechta tillariga tarjima qilinib bugungi kunda ham kitobxonlar uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan asarlardan sanaladi.

### Foydalilanlgan adabiyotlar:

1. Gulliverning sayohatlari: roman. Jahon sarguzasht adabiyoti .Toshkent : Sharq , 2009 .
2. Alekseev P. V. Rus Sharq sayohatnomasi 18-asr oxiri va 19-asrning birinchi uchdan bir qismi sayohat nasri sifatida . 2014
3. „Jonatan Swift “ . Britaniya ensiklopediyasi. 2012-yil 4 - may
4. "Gulliverning sayohatlari " Waynback Machine saytida 2015

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14429684>

## "BEGONA": INSON VA ABSURD HAYOT TO'QNASHUVI

**Chorshanbiyeva Nafosat**

**Nurmanova Zamira**

TerDU talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Albert Kamyuning "Begona" asari tahlil qilinib, asardagi absurdizm falsafasi, bosh qahramonning ichki kechinmalari va jamiyat bilan munosabatlari o'r ganiladi. Merso obrazining o'ziga xosligi va uning hayotga nisbatan begonalik hissi absurd dunyo nazariyasining asosiy jihatlari orqali tahlil qilinadi. Maqola asar mazmuni va Kamyuning falsafiy qarashlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Albert Kamyu, Begona, Absurdizm, Merso, Begonalik falsafasi, Inson o'zligi, Falsafiy roman, Ekzistensializm.

Albert Kamyu fransuz adabiyotining yirik vakili bo'lib, u o'z asarlarida insonning hayotga, o'limga va jamiyatga bo'lgan munosabatini o'rganishga katta e'tibor bergan. Kamyuning 1942-yilda yozilgan "Begona" romani zamonaviy ekzistensializm falsafasining eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar inson hayotining absurdligini va shaxsning jamiyat tomonidan qanday cheklanishini o'rganadi. Asar bir vaqtning o'zida ekzistensializm va absurd falsafasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning begonalashuvi va o'zligiga erishish yo'lida qanday qiyinchiliklarga duch kelishini yoritadi.

Asar bosh qahramoni Merso ismli oddiy odam bo'lib, hikoya uning onasining o'limi bilan boshlanadi. Mersoning onasi vafot etganida u juda befarq va hissiyotsizdek ko'rinadi. Onasining dafn marosimida ham u odatiy g'amginlikni ko'rsatmaydi, bu esa

uni o‘rab turgan odamlarning e’tiroziga sabab bo‘ladi. Dafndan so‘ng Merso o‘z kundalik hayotiga qaytadi va hech qanday o‘zgarishsiz yashayveradi. Asar davomida u o‘z sevgilisi Mari bilan munosabatlarini davom ettiradi, do‘sti Raymondning muammolariga aralashadi va tasodifan bir arab yigitini o‘ldiradi. Ushbu qotillik tasodifan sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, uning hayoti butkul o‘zgarib ketadi. Merso sudga tortiladi va uning xatti-harakatlari jamiyat tomonidan qattiq tanqid qilinadi. Sud jarayonida faqat qotillik emas, balki uning onasining dafnidagi befarqligi ham muhokama qilinadi. Bu yerda Kamyu sud tizimi orqali jamiyatning axloqiy qadriyatlarini ko‘rsatadi. Sud jarayoni davomida Mersoning ichki dunyosini tushunishga hech qanday urinish bo‘lmaydi, aksincha, u jamiyat tomonidan “begona” sifatida rad etiladi.

Kamyu “Begona” asari orqali absurd hayotni tasvirlash va insonning hayotga bo‘lgan munosabatini o‘rganishni maqsad qilgan. Absurd tushunchasi Kamyuning falsafiy qarashlarida muhim o‘rin tutadi. Bu tushuncha inson hayotining ma’nosizligini va bu ma’nosizlikni qabul qilish orqali erkinlikka erishish mumkinligini ifodalaydi. Mersoning hayotga bo‘lgan munosabati absurdlikning aniq namunasi sifatida gavdalanadi. U hayotning ma’nosizligini anglab, undan qochmasdan, o‘z haqiqatini qabul qiladi. Asarda bu ayniqa qotillikdan keyin va sud jarayonida yaqqol ko‘rinadi. Merso atrofidagi jamiyatdan, odamlardan va o‘z his-tuyg‘ularidan begonalashgan. U o‘z hislarini yashirmaydi va odamlardan farqli ravishda jamiyatning qoidalari moslashishni xohlamaydi. Buning oqibatida u jamiyat uchun begona va tushunarsiz shaxs sifatida qabul qilinadi. Merso o‘limini qabul qilish orqali haqiqiy erkinlikka erishadi. Hayotning oxiriga yetayotgani uning uchun qo‘rquv emas, aksincha, hayotni chinakam tushunish uchun imkoniyatga aylanadi. Bu o‘limga nisbatan ekzistensial yondashuvning bir ko‘rinishidir.

Asarda jamiyat shaxsga qarshi turuvchi kuch sifatida tasvirlangan. Jamiyat uchun inson o‘zini belgilangan axloqiy normalar va qadriyatlarga moslashtirishi kerak. Merso bu qoidalarga amal qilmasligi tufayli jamiyat tomonidan jazolanadi. Sud jarayonida uning inson sifatidagi qadriyatları emas, balki jamiyatga moslashmaganligi ko‘proq

tanqid qilinadi. Kamyu shu orqali jamiyatning ikkiyuzlamachiligini va insonning shaxsiy erkinligini cheklovchi tizim ekanligini ochib beradi. Merso o‘zini juda oddiy va hissiy jihatdan beqaror bo‘lmagan odam sifatida namoyon qiladi. Uning ichki dunyosi murakkab bo‘lsa-da, tashqi dunyo uchun tushunarsiz. U sevgi, do‘stlik, o‘lim kabi hayotiy masalalarga ham hissiyotsiz munosabat bildiradi. Asarda uning bu hissiyoti orqali insonning ichki va tashqi hayoti o‘rtasidagi ziddiyat tasvirlanadi.

“Begona” asari zamonaviy dunyoda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Insonning o‘z hayot ma’nosini izlash jarayoni, jamiyatning shaxsiy erkinlikka to‘sinqilik qilishi kabi masalalar bugungi kunda ham muhimdir. Asar nafaqat falsafiy mazmuni, balki insoniyatga universal savollarni o‘rtaga tashlagani bilan ham dolzarbdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Albert Kamyuning “Begona” asari inson hayoti, ma’nosи va jamiyat bilan aloqasi haqidagi falsafiy savollarga bag‘ishlangan. Asar o‘quvchini inson hayotining absurdligini qabul qilish va o‘zligini anglash jarayoni haqida o‘ylashga undaydi. Merso obrazi orqali Kamyu inson va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Asarning asosiy g‘oyasi shundaki, inson hayotning absurdligini qabul qilib, o‘zligini topa olgan taqdirdagina chinakam erkinlikka erishadi. “Begona” — bu jamiyatdagi odatiy qoidalarga moslashmagan insonning portreti bo‘lib, u bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alber Kamyu "Begona". Toshkent "Yozuvchi" nashriyoti
2. U.Jo‘raqulov "Qiyosiy adabiyotshunoslik" Toshkent 2021
3. Berdiyayev.N "Erkinlik falsafasi"
3. Ziyo.uz kutubxonasi.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14433764>

## BADIY ADABIYOTDA BOSH PERSONAJ RUHIYATI TASVIRI (“JINOYAT VA JAZO” ASARI MISOLIDA)

Jo‘rayeva Mehriniso Safar qizi

Xongeldiyeva Sevara Shuxrat qizi

TerDU, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada “Jinoyat va jazo” asari bosh qahramoni ruhiyati, undagi ichki ziddiyat va qarshiliklar, ijodkorning ruhiyatni yoritishidagi uslubi haqida atroflicha fikrlar yuritilgan.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *“Jinoyat va jazo”, ruhiyat, personaj ruhiyati, qahramon ichki dunyosi, psixologizm, hissiyot, ichki nizo.*

Hozirgi adabiyotda voqelikni tasvirlashga qaraganda inson ruhiyatini tahlil qilishga ko‘proq e’tibor berilmoqda. Bugungi adiblar uchun hayotiy reallik birlamchi ahamiyat kasb etmaydi. Bunga badiiy reallikni ta’minlash vositasi debgina qaraladi. Bugun badiiy asar qiziqarli voqealar tasviridan emas, balki inson ko‘nglining mikrotahlilidan iboratdir. Har bir inson olam va odamiyatni o‘zini anglar darajadagina anglay oladi. Davrlar almashinuvi mobaynida adabiyotdagi mavzular ko‘lami rang-baranglik kasb etib borsa-da, uning asosiy obyekti bo‘lgan inson obrazi hamma vaqt ham mana shu mavzularning asosiy maqsadi bo‘lib kelmoqda. Darhaqiqat, har qanday siyosiy tazyiq, ijtimoiy yangilanish bo‘lmashin, har bir badiiy asarning markazida inson, uning taqdiri, kechinmalari, orzu-armonlari u yoki bu tarzda tahlilga tortilib kelinmoqda. Bu tahlillar esa shu davrga qadar inson ruhiy kamolotini tasvirlashda yuqori cho‘qqiga chiqqan asarlar vositasida amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillar adabiyoti, xususan roman, qissa, hikoyachiligidagi insonning ichki dunyosi tadqiq etilgan asarlar salmog‘i oshib, turmushni mafkura yo‘rig‘iga muvofiq talqin etish barham topmoqda. Alovida olingan odamni ulkan bir olam sifatida ko‘rsatish adabiyotimizning yetakchi tamoyiliga aylandi. Endilikda nafaqat, an’anaviy yo‘nalishda, balki shakl-shamoyili, ifoda tarzi, obrazlar dunyosi, mazmun mundarijasi mutlaqo yangicha bo‘lgan asarlar yaratilmoqda. Aytish mumkinki, adabiyotimizning shakl mazmun, uslub ko‘rinishlari, badiiy-falsafiy tadqiq qilish tamoyillari yangilandi. Tasvir quyuqlashib, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyoslari, ifoda tarzida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi[2:256,257]. Albatta, qahramon ruhiyati tasviri haqida so‘z borar ekan, avvalo, uning asosi bo‘lgan badiiy psixologizm haqida alovida to‘xtalib o‘tish joizdir. Badiiy psixologizm – badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalardan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xattiharakatlari va gap so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami[3:48]. Darhaqiqat, qahramon ruhiyati tasviri muallif niyatining, g‘oyaviy maqsadining namoyon bo‘lishi demakdir. Adabiyotdagi personaj ruhiyati deganda personajning ongi, ongi va shaxsiyatini tashkil etuvchi ichki ruhiy va hissiy jihatlar tushuniladi. U qahramonning fikrlarini, his-tuyg‘ularini, motivlarini, xotiralarini va umumiy ruhiy hayotini qamrab oladi. Qahramonning ruhiyatini tushunish adabiyotda chuqurlik, murakkablik va o‘zaro bog‘liqlikni yaratish uchun juda muhimdir. Quyida esa personajning ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlar va fikrlarni keltirgan holda tadqiqotimizning obyekti bo‘lgan “Jinoyat va jazo” romani bosh qahramoni Raskolnikov obrazi ruhiyati misolida tahlil olib boriladi:

Qahramonning fikrlari uning ichki dunyosi haqida tushuncha beradi. Yozuvchilar ko‘pincha qahramonning fikrlari, qo‘rquvlari, umidlari va noaniqliklarini ochib berish uchun ichki monologlar yoki ong oqimi hikoyasidan foydalanadilar. Xususan, tahlil ostidagi asarimizda ham shu xil xususiyatlarga duch kelindi: **“Qanday ishga qo‘l urmoqchimanu, yana mana bunaqa arzimagan narsalardan qo‘rqib yotibman! - deb o‘yladi u g‘alati ishshayib. Qiziq, odamlar ko‘proq nimadan qo‘rqadilar? Mana**

*hozir nima qilib yuribman? Axir, men buni eplay olamanmi? Bu o‘zi jiddiyimi? Sira ham jiddiy emas, maynabozchilik!*”. Asardan keltirilgan ushbu parchada yozuvchi bosh personajning ichki monologi vositasida uning qalbini tahlikaga solib turgan bir qancha jihatlarni ochiqlab tashlaydi.

Qahramonlar turli xil hissiyotlarni boshdan kechiradilar va bu his-tuyg‘ularning tasviri ularning ruhiyatiga chuqurlik qo‘shadi. Yozuvchilar his-tuyg‘ularni tavsiflab, dialoglar va harakatlar orqali yetkazishadi, bu esa o‘quvchilarga xarakter bilan hissiy darajada bog‘lanish imkonini beradi: “*Zinalardan tushib borar ekan, xuddi bir narsadan qattiq hayratga tushgan odam kabi bir necha marta to‘xtab ham qoldi*”. Ushbu parchada yozuvchi personajning hissiyotini harakati vositasida ifodalashga intiladi.

Xarakterni rivojlantirish uchun uning motivlari va istaklarini tushunish juda muhimdir. Qahramonlar o‘zlarining maqsadlari, ehtiyojlari va istaklari asosida harakat qilishadi va bu motivlar syujetni oldinga suradi. Jumladan, romanda Raskolnikov istaklari borasida quyidagi fikrlar keltiriladi: “*U umuman hech bir kimsani ko‘rgisi kelmasdi. Uy bekasining pul so‘rab g‘ingshishlarini, do‘q-po‘pisa, shikoyat qilishlarini eshitishni istamas, buning ustiga o‘zi ham otang yaxshi, onang yaxshi deb dalda solishni, kechirimlar so‘rashni, yolg‘on gapirishni ko‘ngliga sig‘dirmas, yo‘q, bundan ko‘ra yaxshisi hech kimning ko‘ziga ko‘rinmaslik uchun zinadan mushukday pisib o‘tib ketgan ming marta ma’qul*”. Ushbu fikrlarga e’tibor qaratilganda, qahramonning butun istaklari mujassamligi ko‘z oldimizda gavdalanadi va ularni birlashtirishgan holda yozuvchi o‘z qahramoniga tinchlik, osudalik, moddiy yordam bir qadar zarurligini zohiran ta’kidilaganligi ko‘zga tashlanadi.

Personajlar ko‘pincha ichki nizolar va ikkilanishlarga duch kelishadi. Bu kurashlar axloqiy qarorlar, shaxsiyat inqirozi yoki shaxsiy istaklar va jamiyat kutishlari o‘rtasidagi keskinlikni o‘z ichiga olishi mumkin. Ichki ziddiyatlar xarakter ruhiyatiga murakkablik qatlamlarini qo‘shadi. Bu jarayonni Raskolnikov misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin: “*Yo parvardigor! Bunchalar yaramas hammasi! Va nahotki, men... yo‘q, bo‘lmagan gap, bema’nilik! - deb qo‘shib qo‘ydi u qat’iyat bilan. -*

*nahotki shunday dahshatli bir narsani qilish mening qo‘limdan kelsa? Nahot, mening dilimda shunchalar qabohat yashirinib yotgan bo‘lsa! Qanchalar palid, iflos, rasvo, rasvo!..*

ushbu parchada personajning ichki “men”i, ruhiyati bilan ziddiyati tasvirlangan bo‘lib, yozuvchi ushbu qism orqali asarning keyingi voqealariga bir qadar parda tortishga harakat qiladi.

Har tomonlama barkamol qahramon ham asar davomida rivojlanish va o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Bu xarakter yoki shaxsiy o‘sish, ichki qarama-qarshiliklarni hal qilish yoki yangi istiqbollarni qabul qilish kabi xarakterning ruhiyatidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Xususan, “Jinoyat va jazo” asari bosh qahramoni Raskolnikov asar boshlanishida boshqa bir hislar, kechinmalar orasida yashagan inson sifatida gavdalantirilgan bo‘lsa, asar oxiriga kelib undagi tuyg‘ular, qarashlar va tafakkur ko‘lamining bir qadar o‘zgarishiga duch kelishimiz mumkin. Asar boshida uni diqqat bilan kuzatgan kitobxon ateist sifatida ko‘ra boshlasa, asar intihosiga kelib, Soniya tufayli butunlay toshga aylangan qalbida muhabbat gullari ochila boshlaganiga, vijdoni oldida javob berishi kerak ekaniga, hayotidagi eski tarix tugab, yangi tarix boshlanishiga amin holdagi qiyofasiga duch keladi: “***Endilikda uning e’tiqodlari mening ham e’tiqodlarim bo‘lib qolmaydimi? Juda bo‘limganda, uning tuyg‘ulari, uning intilishlari...***”.

Xulosa qilib shuni ta’kidlamog‘imiz joizki, qahramonning ruhiyati bilan o‘quvchilarni jalb qilish empatiyani rivojlantiradi. Qachonki kitobxonlar qahramonning ichki kurashlari va his-tuyg‘ularini tushunib, ular bilan bog‘lana olsalar, ular qahramonning hayotiga, asar ichiga yanada kirib boradilar. Adabiyotda qahramon ruhiyatini o‘rganish dinamik jarayon bo‘lib, u ko‘p qirrali va haqiqiy tasvirni yaratish uchun turli elementlarni to‘qishni o‘z ichiga oladi. Xuddi shu kabi Dostoyevkiy ham qahramonlarining ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklarga ko‘zgu sifatida alohida e’tibor qaratadi. Bundan tashqari, Dostoyevskiy o‘z qahramonlarining qarama-qarshiliklarini haddan tashqari ochib tashlaydi, shu bilan birgalikda, uning qahramonlari, xususan, “Jinoyat va jazo” asari bosh qahramoni Raskolnikov ham ichki ziddiyat va tafovutlar vositasida asar mobaynida o‘zini-o‘zi taftish qilib boradi va bu

jarayon esa qahramonning bosqichma-bosqich rivojlanib borishining bir shakli sanaladi. Asar bosh personajining ichki suhbatdoshi uning vijdoni ekanligi asar davomida sezilib turadi. U o‘z vijdoni oldida hisob berar ekan, aynan mana shu jarayon orqali qayta najot yo‘lini topishga intiladi va bu qismlarning hammasi bosh personaj ruhiy kechinmalari - tuyg‘ulari, azoblari, iztiroblari, shodlig-u quvonchlari, hayajonlari, olam va odam munosabati, jamiyat taraqqiyoti, insonlar ahvoloti bir so‘z bilan aytalganda qahramon badiiy psixologizmi - ruhiyati vositasidagina ochiq ravshan bayon etiladi. Bularning barchasini ijodkor mahorati va sinchkovligi bilan bog‘lash ham maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dostoyevskiy F.M. “Jinoyat va jazo”(roman): Ga’fur g‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. - Toshkent, 1977.
2. Yoqubov I. Badiiy estetik so‘z. - Toshkent, 2011. -469 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati/ D. Quronov, Z. Mamajonov., M. Sheraliyeva. - Toshkent: Akademnashr, 2013. 408b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14433822>

## ZULFIYA VA OYDIN HOJIYEVA SHE'RIYATIDA AYOL TALQINI

To‘raqulova Jasmina Ulug‘bek qizi

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: dots. v.b. Ne’matova H.

### ANNOTATSIYA

*Har bir yozuvchi ijod namunasini yaratar ekan, asarlarida o‘zining ichki-kechinmalari hamda boshidan o‘tgan yoki ko‘rgan voqeа-hodisalarini tasvirlaydi. Ushbu maqolada Zulfiya va Oydin Hojiyeva she’riyatida ayol, ona, opa-singil yoki qizlarning his-tuyg‘ulari, ruhiyati, orzu-armonlari kabi hodisalar tasvirlangan.*

**Kalit so‘zlar:** ayol, muhabbat, shoira, qalb, nozik did, manzara, ichki-kechinma, his-tuyg‘u, baxt, samimiyat.

### ABSTRACT

*When creating a work of art, each writer describes his inner feelings and the events he has experienced or seen in his works. This article describes the feelings, psyche, and dreams of women, mothers, sisters, or daughters in the poetry of Zulfiya and Aydin Hajiyeva.*

**Key words:** woman, love, poetess, heart, delicate taste, landscape, inner feelings, feelings, happiness, sincerity.

### Kirish

O‘zbek she’riyatining mahoratlari shoira va shoirlari anchagina bo‘lib, ularning har biri ijod namunasining o‘ziga xosligi hamda badiiy tili bilan ajralib turadi. O‘zbek shoiralaridan Zulfiya va Oydin Hojiyeva she’riyatini qiyoslab o‘rganadigan bo‘lsak, ikkala ijodkorning ham she’rlarida ayol obrazi o‘zgacha mahorat bilan

gavdalantirilganligining guvohi bo‘lamiz. Ayollar ruhiyati yoki qizlar taqdiri, qalbida kechayotgan hislarni misralarga moslagan holda fikrlarini bayon etishgan. “She’riyat kishining urib turgan yuragi singari tirik jon” [1:282], deydi Zulfiya.

*Otalar erkasi, onalar baxti,*

*Vatanning sevgani, dugona qizlar.*

*Siz bilan she’rimning rubobi yangrar,*

*Siz bilan go‘zaldir zamona, qizlar [2:44-45].*

Shoira Zulfiyaning “Yuragimga yaqin kishilar” kitobida keltirilgan ushbu “Lobar qizlarga” she’rida asosiy mavzu qizlarning har tomonlama yetukligidir. Urush davrlarida ko‘plab mas’uliyatli yumushlar bevosita qizlarning zimmasiga tushganligiga qaramasdan, ular qanchalik qiyin bo‘lmashin barchasini eplagani aks etgan. Qizlar traktor haydash, paxta terish, chevarlik kabi ishlarni joy-joyiga qo‘yib, chin dildan ado etishi, maqtanchoqlik va mag‘rurlik kabi tuyg‘ular begona ekanligi, asosiysi qalbi pok bo‘lgani va shuning uchun qizlar bilan zamonning go‘zalligi tasvirlangan. Bundan tashqari, Zulfiyaning “Nur”, “Do‘stlarimga” kabi she’rlarida ham ona, qizlar mavzusi mavjud. Har bir ijodkor o‘z asarida ona obrazini aks ettiradi. Zulfiya “Nur” she’rida onasini “nur”ga qiyoslagan holda tasvirlaydi. Chunki ona bizga har tomonlama yoritguvchi chiroqdek, hayotimizda nimadir sodir bo‘lsa, onamizning aytadigan so‘zları shifo va dalda beradi. Shunday ekan, shoira ham onalarning orzu-istiklari va farzandiga g‘amxo‘rligi, dardini faqat qalbida saqlashi, o‘zgaga isyon qila olmasligini o‘z she’rida yoritgan.

Shoira Oydin Hojiyeva she’riyati ham mashhur hisoblanib, asosan, she’r markazida ayol obrazi turadi. Ayollarning turli vaziyatdagi kechinma va holatlari tasvirlanadi. Jumladan, “Mushfiq onajon” kitobida keltirilgan “Kelingni ko‘rganda” she’rini tahlil qiladigan bo‘lsak, bunda onaning qalb iztiroblari tasvirlangan:

*Kelingni ko‘rganda*

*Bir oh tortding, onajon.*

*Qaytadan qiynadimi*

*Eski darding, onajon!*

*Yuzingda quvonch izi,  
Hasrat izi bir jahon,  
Kelganday o‘g‘ling o‘zi  
Bir oh tortding, onajon...[3:4]*

Mazkur she’rda bir onaning o‘g‘li urushda vafot etgani, urush tufayli ayollar turmush o‘rtog‘idan ajralib tushkunlikka tushgani hamda onalar mahzun kelinining iztiroblarini ko‘rib, dardi yangilangani aks etgan. Onadek ulug‘ zot barcha qiyinchilik va azoblarini yuragiga ko‘mib, o‘zi dadil bo‘lishga uringani, ichidagilarni birovga ayta olmagani kabi holatlar yoritilgan.

*Hech kim sizga intilmagan menday qattiq rashk ila,  
Sevmagan ham, sovumagan ham hech kim sizdan menchalik.  
Xayolingiz qor-bo‘ronli, ko‘z ochirmas dashtida,  
Kezmagan ham, to‘zmagan ham hech kim siz deb menchalik [3:57].*

Shoira Oydin Hojiyevaning ushbu “Intilish” deb nomlangan she’rida o‘zbek ayol-qizlariga xos bo‘lgan rashk va vafo tuyg‘ulari chiroyli tarzda aks ettirilgan. Ayolning o‘z juftini qanchalik hurmat qilishi, muhabbat qo‘yib, hurmat qilishi va agar juftidan munosib javob ololmasa, undan ham, ya’ni ayolning qahridan yomon narsa yo‘qligi keltirilgan. Ayol kishining naqadar vafoli va qalbi mehr-muhabbatga to‘la ekanligi, oilasining baxti uchun qayg‘urishi she’rda yaqqol namoyon etilgan.

### Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Zulfiya va Oydin Hojiyevaning she’riyatida aks etgan manzaralar hamda g‘oyalarning o‘xshashligi aynan ayollar mavzusida kuzatiladi. Ayol va qizlarning quvonchi, baxti, qayg‘u-armonlarini tasvirlashda tabiat manzaralaridan foydalaniladi. Onalarning bu hayotda takrorlanmas yagona zot ekanligi, har tomonlama yelkadosh inson ham ona ekanligi qayd etilgan. Qolaversa, ayol kishining ko‘nglining sof va pokligi, qalbida doim ezgulik bo‘lishi, guldek chiroyli, oftobday charaqlab turishi kabilar ham aks ettirilgan.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I.G‘afurov. Adabiyot dunyosi: Joziba. Yangi asr avlodi, 2022. - 496 b.
2. Zulfiya. Yuragimga yaqin kishilar. She’rlar. O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent - 1958. 116 b
3. Oydin Hojiyeva. Mushfiq onajon. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. - 304 b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14433865>

## PHRASEOLOGICAL UNITS AS FRAGMENTS OF THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD

**Atadjanova Gulbaxar Yusupovna**

**Barlikbayeva Shakhsanem Baxadirovna**

Karakalpak State University named after Berdakh

[sbarlykbaeva@gmail.com](mailto:sbarlykbaeva@gmail.com)

### ABSTRACT

*The theme of the nationally and culturally specific features of phraseological units is quite traditional in phraseology research. In these studies, phraseological units are viewed as nationally specific language entities that accumulate the cultural potential of a people. In this context, phraseology, as fragments of the linguistic picture of the world, expresses both the material and spiritual culture of a nation. Researchers have often noted the national uniqueness of phraseological units within the linguistic picture of the world of various nations, reflecting elements of national mentality. The differences between phraseological units of different peoples are determined by religion and history, customs and traditions, natural conditions, and the value systems of specific nations. The national peculiarities of worldview of any ethnocultural community are rooted in the lifestyle and psychology of its people, reflected in the language through the semantic structure of linguistic signs.*

**Keywords:** phraseology research, linguistic, conceptualizing, customs and traditions, uniqueness of phraseological units, linguistic picture.

### INTRODUCTION

Currently, modern linguistics increasingly examines phraseological units within the cultural context. That is, the linguocultural approach to the study of phraseological units is employed. V.N. Telia sees the main task of linguoculturology in relation to phraseology as the research and description of the mechanisms through which the

interaction of phraseological units as elements of natural language with cultural semantics occurs, thereby fulfilling their function as verbalized signs of the “language” of culture.

Phraseological units preserve and transmit knowledge about the established system of customs, traditions, laws, and everyday perceptions of the world from generation to generation. This allows scholars to discuss phraseological units as means of verbalizing certain concepts of mental formations, which are generalized and holistic cognitive units encoding culturally significant meanings in various configurations.

**Kirish:** Xalqaro aloqalar (XA) — bu mamlakatlar, hukumatlar va boshqa xalqaro aktorlar, masalan, davlatlararo tashkilotlar (masalan, BMT), nodavlat tashkilotlar (NNT), transmilliy korporatsiyalar va shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish va amaliy sohadir. Hozirgi globalizatsiya jarayonida xalqaro aloqalar sohasining hukumatlararo munosabatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ortmoqda. Bu jarayonda til va madaniyat maxsus o‘rin egallaydi. Xorijiy tillar va adabiyotlarni o‘rganayotgan talabalarga, biz madaniylararo muloqotga asoslangan xalqaro aloqalar aspektlarini o‘rganish orqali ushbu sohada hissa qo‘sishimiz mumkin. Edward Said madaniylararo muloqot va Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha keng qamrovli ishlar qilgan. Uning “Orientalism” asari madaniy tushunish va tilning roli, shuningdek, madaniylararo ziddiyatlarni tahlil qilishda muhim asar hisoblanadi. Homi K. Bhabha esa postkolonializm va madaniylararo muloqotni o‘rganadi. Uning asarlari madaniy “gibridlik” va “chegaralar” kabi mavzularni o‘rganadi va xalqaro aloqalardagi madaniy farqlarni va ularning siyosatda ahamiyatini tahlil qiladi.

Xalqaro aloqalar va lingvistika o‘rtasidagi kesishish eng avvalo diplomatiya, xalqaro tashkilotlar va muzokaralar sohalarida aniq ko‘rinadi. Bu sohalarda samarali muloqot nafaqat ma’lumot almashish uchun, balki ishonch va tushunishni yaratish uchun ham zarur. Til, muloqotning asosiy vositasi sifatida, madaniylararo muloqotning markazida turadi. Lingvistik bilim va madaniyatga bo‘lgan xabardorlik xalqaro aloqalar mutaxassislariga global o‘zaro aloqalarning murakkabliklarini samarali boshqarishga yordam beradi. Joseph Nye “yumshoq kuch” nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. U xalqaro aloqalarda til va madaniyatning o‘rni hamda diplomatiya va xalqaro aloqalarni shakllantirishdagi madaniy muloqotning ahamiyatini tushuntiradi. Uning “Soft Power: The Means to Success in World Politics” asari

madaniyatning xalqaro aloqalardagi ahamiyatini ko'rsatib beradi. Madaniylararo muloqot — bu turli madaniyatlardan bo'lgan odamlar bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. Xalqaro aloqalarda bu ko'nikma juda muhim, chunki u diplomatlarga, siyosatchilarga va xalqaro tashkilotlarga siyosiy va iqtisodiy qarorlarni shakllantirishda ta'sir ko'rsatadigan madaniy omillarni tushunishga yordam beradi. Madaniy nozikliklarni, masalan, noverbal muloqotni, ijtimoiy normalarni va tilni ishlatish usullarini tushunish diplomatik tashabbuslarning muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Lingvistika, ilmiy soha sifatida, til strukturalarini va uning qo'llanilishini tahlil qilish vositalarini taqdim etadi, bu esa madaniylararo muloqot uchun zarurdir. Semantika, pragmatika va diskursni tahlil qilish kabi sohalarni o'rganish xalqaro aloqalar mutaxassislariga xabarlarni aniq talqin qilishda yordam beradi, tushunmovchiliklarni oldini oladi va konstruktiv muloqotni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, lingvistik tayyorgarlik mutaxassislariga chet tillarini o'rganishga imkon yaratadi, bu esa boshqa mamlakatlardan kelgan hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish uchun juda muhimdir.

### Muhokama

Lingvistikaning xalqaro aloqalardagi roli faqatgina til o'rganish bilan cheklanmaydi. Bu, tilni turli madaniy kontekstlarda tushunish va talqin qilish qibiliyatini o'z ichiga oladi. Masalan, so'z yoki iboraning ma'nosи, so'zlovchi va tinglovchining madaniy kelib chiqishiga qarab sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Bir madaniyatda odobli deb hisoblangan bir ibora boshqa madaniyatda beyoq yoki noo'rin deb qaralishi mumkin. Shuning uchun tilni ishlatishning madaniy kontekstini tushunish diplomatlarga va xalqaro aloqalar mutaxassislariga juda muhimdir. Bundan tashqari, xalqaro aloqalar ko'pincha murakkab madaniy dinamikalarni boshqarish qobiliyatiga bog'liq. Masalan, diplomatik muzokaralarda tilning ishlatilishi muzokaralar natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Malakali muzokarachi tilning lingvistik va madaniy ta'sirlarini tushunib, noto'g'ri tushunishlarni oldini olish va xorijiy hamkorlar bilan yaqin munosabatlarni qurishi kerak. Bu yerda lingvistika va

xalqaro aloqalar integratsiyasi juda muhim bo‘ladi, chunki bu mutaxassislariga diplomatiyaga ko‘proq bilimli va madaniyatga sezgir nuqtai nazardan yondashish imkonini beradi.

### **Tavsiyalar:**

1. Madaniylararo muloqot bo‘yicha ta’limni kuchaytirish: Xalqaro aloqalar dasturlari diplomatlarga va mutaxassislar turli global kontekstlarda samarali muloqot qilish uchun lingvistik va madaniy tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan keng qamrovli ta’limni qo‘llab-quvvatlashi kerak.
2. Interdisipliner tadqiqotlarni rag‘batlantirish: Xalqaro aloqalar va lingvistika o‘rtasidagi tadqiqotlarni rag‘batlantirish global diplomatiya va xalqaro hamkorlikka qanday ta’sir qilishini o‘rganishda foydali ma’lumotlar taqdim etishi mumkin.
3. Diplomatlar uchun til dasturlarini ishlab chiqish: Xalqaro tashkilotlar va hukumatlar diplomatlarga samarali muloqot qilish uchun ko‘p tillarni o‘rganishga zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni taqdim etadigan til o‘qitish dasturlariga sarmoya kiritishlari kerak.

### **Xulosa**

Xalqaro aloqalar va lingvistika o‘rtasidagi kesishish madaniylararo muloqotning global masalalarni hal qilishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Til strukturalarini, madaniy nozikliklarni va muloqotning murakkabliklarini tushunish orqali xalqaro aloqalar mutaxassislar davlatlar o‘rtasida mustahkamroq, samarali hamkorlikni rivojlantirishlari mumkin. Shunday qilib, lingvistika diplomatiya uchun poydevor vazifasini o‘taydi, samarali muloqotni ta’minlaydi va xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi. Lingvistikaning xalqaro aloqalar sohasiga integratsiyasi diplomatiya amaliyotini boyitadi va global sahnada murakkabliklarni boshqarishda yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

Nye, J. (2004). *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. PublicAffairs.

Nye, J. (2011). *The Future of Power*. PublicAffairs.

Said, E. (1978). *Orientalism*. Pantheon Books.

Bhabha, H. K. (1994). *The Location of Culture*. Routledge.

International Organization.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434164>

## MUSTAQILLIK DAVRI HAYKALTAROSHLIGIDA TARIXIY SIYMOLAR TALQINI

Kodirova Zilola Ruziboyevna

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur maqolada Mustaqillik davri O'zbekiston mahobatli haykaltaroshligi rivojining asosiy tamoyillari, buyuk siymolarni sharaflash va ulug'lashdagi jarayonlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.*

**KALIT SO'ZLAR:** *Mustaqillik, xotira, xalq ma'naviyati, buyuk ajdodlarimiz, mahobatli haykaltaroshlik, ramziy timsollar, shaharsozlik, g'oya, loyiha.*

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье представлена подробная информация об основных принципах развития скульптуры в Узбекистане в период независимости.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Народная духовность, наши великие предки, независимость, память, статуя, проект, идея, величественная скульптура, символическая композиция.

**ABSTRACT:** *This article provides detailed information about the main principles of sculpture development in Uzbekistan during the period of independence.*

**KEYWORDS:** *Folk spirituality, our great ancestors, independence, memory, statue, project, idea, majestic sculpture, symbolic composition.*

XIX asrning o'rtalarida Yevropa tasviriy san'ati an'analari mintaqaga kirib kelib, 1920-yildan boshlab O'zbekiston 1924-yilda tarkibiga kirgan davlat hududida monumental targ'ibot rejasi qabul qilindi, u 1920-yildan 1991-yilgacha amalda bo'ldi.

Mafkuraviy targ‘ibot rejasining asosiy vazifasi kommunistik g‘oyalarning san’atdagi o‘zgarishlarini monumental shakllar orqali majburiy aks ettirish edi. Haykaltaroshlik yodgorliklari va proletar inqilobi qahramonlari tasvirlari tushirilgan yodgorliklar, ulkan plakatlar va tashviqot shiorlari ayrim shaharlarning asosiy tayanchiga aylandi.

20-asr o‘rtalarigacha O‘zbekistonda monumental san’at va haykaltaroshlik turli davrlarda bu yerga kelgan rus rassomlarining nomlari bilan ifodalangan. 1950-yillarda monumental rangtasvir va haykaltaroshlikning milliy maktabi shakllandı.

Jamiyatni kommunistik qayta qurishni aks ettirish uchun majburiy talablari bilan Sovet davlatining mafkuraviy buyurtmalari doirasida ishlab chiqilgan badiiy ifodali asarlar yaratildi. Xuddi shunday holat 20-asrning ikkinchi yarmida O‘zbekistonda monumental haykaltaroshlikning rivojlanishida ham kuzatiladi. Bu yerda inqilob yetakchilari, fuqarolar urushi qahramonlari yodgorliklari, yodgorlik majmualari va kommunistik propagandani tarannum etuvchi mavzulardagi kompozitsiyalar ustunlik qildi. O‘zining badiiy va estetik avtonomiyasini ko‘proq darajada saqlab qola olgan dastgoh haykaltaroshligining rivojlanishi monumental haykaltaroshlik asarlariga nisbatan qiziqroq edi.

1990-yillarda yetakchi o‘ringa ko‘tarilgan milliy g‘oyani haykallarning badiiy ifodasiga singdirib, o‘tmish tariximiz, ma’naviy-madaniy merosimizni mohiyatan aniq ko‘rinishda tasvirlashga alohida yondashildi. Allomalarni tavallud kunlarini tantanali ravishda nishonlash, yillarni ajdodlarimiz nomi bilan atalishi doirasida ularga atab yodgorlik haykallar o‘rnatish an’ana tusini oldi. Natijada mahobatli haykaltaroshlikda tarixiy janr oldingi davr yondashuvidan farqli ravishda sohaning milliy maqomini oshira boshladi.

O‘zbekiston 1991-yildan davlat mustagilligiga erishishi bilan mana shu vaziyat tubdan isloh qilindi. Mahobatli yodgorliklarning mazmun mohiyati, plastik shaklu-shamoyili va boshqa ijodiy yechimida ilk bor milliy tuyg‘u ustuvorligi yetakchi o‘ringa ko‘tarildi.

Mazkur siyosiy madaniyat jamiyat xayotida yetakchi goyaviy-mafkuraviy daraja kasb etib, san’at soxalarini xam Uz ta’siriga oldi. Bu borada ayniqsa maxobatli

xaykaltaroshlikka kuchli extiyoj paydo bo‘ldi va tez orada ittifokdosh millatlar san’ati tobelligida shakllangan ijodiy yondoshuvlar o‘rnini sof milliy tamoyillar egallay boshladi.

Buyuk siymolar shaxsini sharaflash tamoyili - tarixiy mavzuli barcha haykallar uchun xos bo‘lib, obrazlar tavsifiga ko‘ra turli xarakterga egadir. Masalan, sarkardalar obrazi - mardonavor qiyofali va realistik ifodali, alloma hukmdorlar obrazi esa komil shaxs siymoli va mumtoz ifodali kurinishda bajyarildi. Har ikki xarakterli asarlar o‘zining muayyan plastik uslubi, kompozitsion tuzilishi va obrozlar ruxiy olamiga xos xususiyatlariiga ega.

Chunonchi, ja’sur sarkardalar - “Amir Temur” (I.Jabborov, K.Jabborov, Toshkent (1993), Samarkand va Shaxrisabz (1996)), “Jaloliddin Manguberdi” (I.Jabborov, K.Jabborov, Urganch, 1999) xamda afsonaviy xalk kaxramoni “Alpomish” (U.Mar‘ diev, A.Raxmatullaev, K.Norxo‘rozov, U. Urovov, Urganch, 1999) yodgorlik xaykallarida shun-day fazilatlar mavjud bulib, ular oldingi davr plastik yondoshuvidan keskin ravishda fark kiladi. Bundan yigirma besh o‘ttiz yil oldingi tarixiy mavzuli obrazlarning plastik shaklu- shamoyili ulug‘vorligini xolis ifodalashga extiyoj sezgan bo‘lsa, endilikda bu masalada keskin burilish paydo bo‘ldi. Tasvirlanayotgan buyuk siymolar obrazida ulug‘vorligini ko‘rsatilishi avvalo plastik yondoshuv orqali ochib berildi.

Toshkentdagi “Amir Temur” haykalida buyuklik siymosi uning umumiy kompozitsion xarakterida o‘z ifodasini topgan. Amir Temur haykalini ot ustida tasvirlash ijodkordan ko‘plab nodir namunalar bilan tanishishni talab etgan. Chunki, otning plastik xolatini ifodalash masalasi qiyin jarayondir. Mualliflar obrazga xos plastik ifodaviylikni izlash jarayonida buyuk san’atkorlar ijodiga, tajribasiga murojaat etib, ulardan olgan ta’surotlarini o‘z ijodiga singdirib borishga xarakat qildi.

Buyuk siymolar shaxsini sharaflash tamoyiliga mansub xukmdor allomalar - “Mirzo Ulug‘bek” (Toshkent, A.Raxmatullaev, L.Ryabtsev, 1994 y), “Alisher Navoiy” (Uz. mil., bogi, E.Aliev, N.Bandzeladze, V.Degtyarov), “Mirzo Bobur” (Andijon, R.Mirtojiev, 1993 y), “Mirzo Bobur” (Namangan, M.Raxmonberdiev, 1999 y),

“Abulgoziyxon” (Urganch, Sh.Usmonov, 1994 y) obrazida yaratilgan xaykallar kuyidagi badiiy, uslubiy- kompozitsion axamiyatga ega.

Hozirgi vaqtida, Prezidentimizning inson manfaatlarini himoya qilish va uni yashash uchun shart-sharoitlarini ta'minlash to‘g‘risidagi say’i harakiti me’morchilik va shaharsozlikning rivojlanishiga e’tibor kuchayib, monumental asarlarning shaharsozlikda ahamiyati oshdi. Baland va muhtasham binolar, turli ma’daniy komplekslar, turar joy binolari ko‘paymoqda. Shaharsozlikda, monumental asarlarning yuqori darajada bajarilganligi sabab, aholining ularga nisbatan qiziqishi kuchayib bormoqda.

Tasviriy san’at zamonaviy ijtimoiy xayotning ajralmas qismi xisoblanadi. Haykaltarosh tasviriy san’at orqali o‘zini atrofini o‘rab turgan olam va ijtimoiy munosabatlar to‘g‘risida fikr yuritadi. Tasviriy san’at asarlari esa rassomning fikr va muloxazalarining yaxlit bir buyum sifatida ifoda etadi.

Shaharsozlikda g‘oyaviy va majoziy vazifalarni hal qilishda har doim monumental va dekorativ san’at muhim rol o‘ynagan, uning asarlari va bezak elementlari o‘z ansamblarining badiiy yechimlarini konkretlashtirgan va chuqurlashtirgan, ko‘pincha ularda ustunlik qilgan.

“Turkiston” saroyining ichki ko‘rinishlari respublika mustaqilligining ikki yilligi arafasida tayyor bo‘ldi. Saroy kiyofasi me’moriy jixatdan yangi davlat poytaxtiga munosib keldi. Bahorgi Navruz ayyomini munosib nishonlash maqsadida Uzbekiston shox ko‘chasing G‘arbida, ya’ni Xalklar do‘sligi saroyi bilan Madaniyat va istiroxat bog‘i oralig‘ida, Alisher Navoiy nomli Milliy bog‘i barpo etish rejalashtirildi. Uning asosiy ukida quyidagi ketma-ketlikni ko‘rish mumkin: favorali aylana xovuz, amfiteatr shaklida tomoshabinlar joylari, atrofiga gumbazli minoralar joylashtirilgan saxna, ariq ustida ko‘prik va tepalikka esa Alisher Navoiyning mahobatli haykali o‘rnatilgan. Haykal ayvonchasi (pavilion) feruza rangli kovurrasimon gumbazdan iborat. Ulug‘ shoir va davlat arbobining “Olam axli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘, yor uling bir-biringizga, erur yorlig‘ ish” mazmunidagi she’riy satrlari gumbazning ichki qobig‘ida bir necha tillarda yozib chiqilgan. Markazdagi

amfiteatrning ikkala tomonida me'moriy jixtdan mukammal bo'lgan "Navruz" restorani (1995 yil, R. Yokubov, V. Ostroverxov, N. Batorin) va Oliy Majlis (1997 yil, V. Akopdjanian) binolari bilan bir butun majmuaga aylantirilgan. Oliy Majlis binosidan janubda favvorali keng ko'l joylashgan. Masalan, 2000 yil Navruz namoyishida ishtirok etganlar soni 11.000 dan oshib ketdi. Shuning uchun chorbog' rejasи kengaytirildi va aylana shaklidagi saxna va amfiteatrga uzgartirish kiri- tildi. Amir Temur shaxsiyati mustakillik sharofati bilan kayta baxolandi. Uning davrida davlatchilik, san'at va madaniyat, asosan me'morlik misli kurilmagan darajada yuksalgan edi. Mustakil davlatimizda san'at va madaniyatga bulgan ijobiy e'tibor tufayli Soxibkiron qiyofasi aks etgan haykallar Toshkent, Samarkand va Shaxrisabzning markaziy maydonlariga o'rnatildi. Toshkentdagи haykal esa, (1995 yil, I.Jabborov, F.Ashrafiy, B.Usmonov) tarixiy xiyobon o'rtasida qad ko'tardi. Xiyobon XIX asr oxirida barpo etilgan bo'lib, xozirgi paytgacha mana uchinchi asr davomida davrlarning ramzları o'rnatiladigan markaz sifatida o'z axamiyatini yo'qotmadı. Qizil marmar bilan qoplangan haykal tagkursisi sharkdan Barbga, ya'ni Sayilgox kuchasiga karatilgan. Tagkursiga Amir Temurning "Kuch adolatdadır" degan suzlari bitilgan. Amir Temur xiyobonining shimoliy G'arbida qurilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyida (1995 yil, A.Turdiev) Milliy bog'dagi Alisher Navoiy haykali joylashgan ayvonchaning yangicha talqindagi holatini ko'rishimiz mumkin.

Jaloliddin Mirtojiyevning tarixiy siymolar galaktikasi. Mustaqillik va davlat suvereniteti yangi ijtimoiy tuzum, milliy dunyoqarash madaniyat va san'atning muhim islohotchi omiliga aylandi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar kommensalizm yangi madaniy siyosatning asosiy qadriyat yo'nalishi hisoblanadi. Bu ikki unsur 1990-yillarning boshidan beri O'zbekiston san'atida zamonaviy estetik izlanishlarga o'ziga xoslik berdi. Shaharning umumiyligi qismlarida istiqlol mafkurasi, yangi estetika, mamlakat shahrining tasviriy qiyofasi monumental san'at turlarida ifodalangan. Milliy tarixning yangi qahramonlari – o'rta asrlar hukmdorlari, shoirlari, mutafakkirlari va olimlari yodgorliklari o'zini oqladi. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda I.Jabborov, R.Mirtojiyev, A.Hatamov, T.Tojixo'jaeva, U.Mardieva, A.Rahmatullaeva,

K.Norxurozova, P.Podosinnikova, S.Sharipova, B.Muxtorova, U.Oroqova va boshqalar kabi nomlarni o‘z ichiga olgan iste’dodli haykaltaroshlarning yangi olami shakllandi. ijodida monumental yodgorliklar, Bu ijodkorlarnini dastgohli haykaltaroshlikdagi jo‘shqin ijodiy muhitlari monumental yodgorliklarni yaratishdagi jarayonga zamon bilan uyg‘unlashgan asarlar yaratishga imkon berdi. Temir pardaning olib tashlanishi zamonaviy jahon san’atining ijodiy vositalari va avangard hodisalari bilan bevosita bog‘liqlikni yaratdi.

Mustaqillik davrida bunyod etilgan va ulug‘ shoir, o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy siy whole bag‘ishlangan yodgorliklar turkumi alohida e’tiborga loyiq. Bu yodgorliklar nafaqat O‘zbekistonning ko‘pgina shaharlarida o‘rnatilgan. Haykaltarosh R.Mirtojiev tomonidan yaratilgan Alisher Navoiy Ahmad Farg‘oniy yodgorliklari Rossiya, Yaponiya, Misr poytaxtlarini bezab turibdi. Yuqorida nomi tilga olingan haykaltaroshlarning dastgoh ishlari ham yuksak ijodiy yutuqlari bilan e’tiborga olingan. Ularda tarixiy shaxslar bilan bir qatorda plastik echimlari yorqin ifodali plastika va metaforik til bilan ajralib turadigan zamondoshlar obrazlari muhim o‘rin tutadi. Bu obrazlar talqini milliy plastika san’atining boy madaniy merosi va jahon haykaltaroshligidagi zamonaviy yo‘nalishlarning nozik uyg‘unlashuviga asoslangan.

Mustaqillik va davlat suvereniteti yangi ijtimoiy tuzum, milliy dunyoqarash madaniyat va san’atning muhim islohotchi omiliga aylandi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar kommensalizm yangi madaniy siyosatning asosiy adriyat yo‘nalishi hisoblanadi. Bu ikki unsur 1990-yillarning boshidan beri O‘zbekiston san’atida zamonaviy estetik izlanishlarga o‘ziga xoslik berdi. Shaharning umumiy qismlarida istiqlol mafkurasi, yangi estetika, mamlakat shahrining tasviriy qiyofasi monumental san’at turlarida ifodalangan. Milliy tarixning yangi qahramonlari – o‘rta asrlar hukmdorlari, shoirlari, mutafakkirlari va olimlari yodgorliklari o‘zini oqladi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda I.Jabborov, R.Mirtojiyev, A.Hatamov, T.Tojixo‘jaeva, U.Mardieva, A.Rahmatullaeva, K.Norxurozova, P.Podosinnikova, S.Sharipova, B.Muxtorova, U.Oroqova va boshqalar kabi nomlarni o‘z ichiga olgan

iste'dodli haykaltaroshlarning yangi olami shakllandi. ijodida monumental yodgorliklar, Bu ijodkorlarnini dastgohli haykaltaroshlikdagi jo'shqin ijodiy muhitlari monumental yodgorliklarni yaratishdagi jarayonga zamon bilan uyg'unlashgan asarlar yaratishga imkon berdi. Temir pardaning olib tashlanishi zamonaviy jahon san'atining ijodiy vositalari va avangard hodisalari bilan bevosita bog'liqliknii yaratdi.

Ilhom Jabborov 1946-yil 30-iyunda Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanida tug'ilgan. Respublika rassomlik bilim yurti (1965-yil) va Toshkent teatr va rassomchilik san'ati institutini (1971-yil) tugatgan.

1983 yilda haykaltarosh SSSR Rassomlar uyushmasiga qabul qilindi. Mirtojiev o'sha paytda dastgohli haykaltaroshlik bilan shug'ullangan, ammo monumental haykaltaroshlikni orzu qilgan. 1988 yilda Yurmaladagi toshda ishslash xalqaro simpoziumida qatnashgandan keyin hamma narsa o'zgardi.

“Mening ikkita haykalim shahar markazida paydo bo'ldi. O'shanda menda qandaydir ikkinchi ijod nafasi paydo bo'ldi”, — deya haykaltaroshning so'zlarini keltiradi Jasur Ishoqov o'z maqolasida.

1995-yildan Respublika rassomchilik kollejida o'qituvchi, 1997-yildan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutida haykaltaroshlik ustaxonasi rahbari lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Professor Ilhom Jabborov asarlarida an'anaviy realistik haykaltaroshlik uslubiga xos xususiyatlar milliy mavzu va ta'sirchan obrazlarni ifodalashda o'z aksini topgan. Dastgohli va mahobatli asarlari (portret, tarixiy shaxslar qiyofasi aks ettirilgan) umumlashma va ramziylik yo'lida yaratilgan.

Ustoz-ijodkor Ilhom Jabborov yaratgan har bir haykal va monument vatanimiz timsoliga aylangan. Poytaxtimizdagi “Ezgulik”, “Mustaqillik” monumenti, “Amir Temur” haykali, Samarqand va Shahrisabzdagi “Amir Temur” haykallari go'zal ona diyorimizning ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

Mirtojievning monumental obrazlar haqidagi orzulari O'zbekiston mustaqillik yillariga erishganidan keyin birma-bir ushala boshladi. 1991-yilda Andijonda Bobur haykalini yaratish bo'yicha tanlov e'lon qilindi.

Mirtojiev 50 dan ortiq eskiz chizgan, lekin tushida ko‘rgan tasvirni tanlagan. Bronza va granitdan yasalgan 12 metrlik yodgorlikning tantanali ochilish marosimi ikki yil o‘tgach bo‘lib o‘tdi. 1995-yilda haykaltarosh obrazga qaytib, Bobur - Lozannada (Shveytsariya) o‘rnatiladigan “Bobur chovg‘on o‘ynayapti” (otliq to‘p o‘yini) uchfigurali otliq kompozitsiyani yaratadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili O‘zbekiston mustaqillik erishgandan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti farmoniga ko‘ra 1993-yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon shahar markazida mahoratl haykaltarosh R. Mirtojiyev muallifligidagi mahobatli Bobur haykali o‘rnatildi. Andijon shahridagi Bobur haykali shaharning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, temir yo‘l va avtomobil vokzallari yaqinida joylashgan Bobur maydonida o‘rnatilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli yozuvchi va shoir, 2000 yilda mavjud bo‘lgan Mug‘ullar imperiyasining asoschisi. 16-asr Hindiston yarim orolining shimolida joylashgan bu yodgorlik qadimiy o‘zbek shahrining diqqatga sazovor joylariga aylangan. Bobur maydonidagi Bobur haykali - ulug‘ sarkardaning ot minib o‘tirgan haykali. Boburning o‘ng qo‘li uning yuragida joylashgan bo‘lib, o‘z ona yurti va xalqiga sadoqat ramzidir. Yodgorlik qizil granit bilan qoplangan baland poydevorga o‘rnatilgan. Andijon shahri Boburning tug‘ilgan joyi bo‘lgani uchun bu yerda zabardast sarkarda va adib nomi bilan bog‘liq ko‘p narsa bor. Shaharning markaziy maydoni, kutubxona, ko‘cha uning sharafiga nomlangan, Bobur milliy bog‘i shahardan o‘n kilometr janubda joylashgan.

Muallif mahobatli haykaltaroshligining zamonaviy tendentsiyalariga sodiqligini, ikkinchi tomondan, qo‘mondon qiyofasini plastik vositalar yordamida poetiklashtirish istagini namoyish etagan. R. Mirtojiyev asari ijro mahorati, fantaziyasi, emotsiyal plastikligi bilan ajralib turadi. Uning iste’dodi va mehnati tufayli bugungi kunda u haqli ravishda zamonamizning eng nufuzli haykaltaroshlaridan biri hisoblanadi.

Samarqandda Ulkan yodgorlik 1996-yilda (Temur tavalludining 660 yilligiga) Teatr maydonida o‘rnatildi va u O‘zbekistonda uchinchi bo‘ldi, garchi SSSR

parchalanganidan so‘ng darhol buyuk sarkardaga birinchi haykalni o‘rnatishni rejalashtirgan edilar.

Bizga ma’lumki Samarqandda Amir Temur tuzgan sultanatning poytaxti bo‘lgan, u G‘arb mamlakatlarida Temurlan deb ataladi. Toshkentdagi otliq yodgorlikdan farqli o‘laroq, bu yodgorlik “o‘tirgan” bo‘lib, unda jangchi emas, balki taxtda o‘tirgan “fikr bilan o‘ylayotgan” dono hukmdor tasvirlangan. Juda ulug‘vor, salobatli va o‘ychan yodgorlik. Har yili Sohibqironning tavallud topgan kunida shahar va viloyat rahbariyati hamda ko‘plab fuqarolar ishtirokida monumentda tantanali tadbirlar o‘tkaziladi.

Samarqandda joylashgan haykalning orqasida yashil Universitet bulvari, asosiy shahar sayrgohi boshlanadi (ilgari u 19-asrda ushbu xiyobonga asos solgan gubernator sharafiga Abramovskiy deb nomlangan) Shahrisabz Qashqadaryo vohasida qadimiy shaharda tug‘ilib, mashhur ajdod Temur ulg‘aygan. Shaharning diqqatga sazovor joylaridan biri esa haykaltarosh Ivan Jabborov tomonidan qurilgan Amir Temur haykali hisoblanadi. Shahrisabz shahri orden bilan taqdirlandi.

Amir Temur. 1996 yil esa buyuk hukmdorning oltmis yillik yubileylari yili edi. YUNESKO tomonidan Amir Temur yili deb e’lon qilingan Temur. Shahrisabz esa buyuk sarkardaning vatani hisoblanadi. Uni qurishda mamlakatimizning turli hududlaridan mutaxassislar ishtirok etdi. Yodgorlikni barpo etishga ko‘plab mohir hunarmandlar, xalq rassomlari hissa qo‘shegan. Amir Temur Samarqandga munosib tuhfa bo‘lganining bir yilligi munosabati bilan uning nomi bilan bog‘liq o‘nlab tarixiy maskanlar qayta tiklandi. Va katta binolar va yangi bog‘lar paydo bo‘ldi. Markazda Amir Temur maydoni ochilib, u yerda Sohibqoron Temurning muhtasham haykali o‘rnatildi. O‘rta asrlarning buyuk aqlulari ittifoqda birlashdilar: ilg‘or qarashlar va moddiy resurslarga ega bo‘lgan boy davlatning yorqin hukmdori va kashfiyotlarga tashna aql. 1428 yilda rekord muddatda (3 yil) qurilgan rasadxona yulduzli osmonni o‘rganish markaziga aylandi. Mirzoning o‘zi soatlab unda astronomiya bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bordi.

Yigirmanchi asrning boshlarida rasadxonaning taxminiy joylashgan joyida qazishmalar boshlandi. Ish davomida arxeologlar poydevor qoldiqlari va saqlanib qolgan binoning parchalarini topdilar. Vayron bo‘lgan binoning ko‘p qismini tiklash mumkin edi.

O‘tgan asrning 1960- yillarida tarixiy bino yonida Ulug‘bekning memorial muzeyi ochildi. 2010-yilda majmua restavratsiyasi jarayonida Mirzo Ulug‘bek nomini abadiylashtirishga qaror qilindi. Rasadxona yonida Ulug‘bek haykali o‘rnatildi, yodgorlikning orqasida olim astronom Mirzo Ulug‘bek yulduzli osmon fonida uning yashagan davri ko‘rsatilgan.

Abu Abdullo Rudakiy byusti Markaziy istirohat bog‘ining sharq tomonidagi kichik bog‘da joylashgan. Bog‘ janubdan O‘zbekiston ko‘chasi, sharq tomondan Shohruh Mirzo ko‘chasi bilan o‘ralgan.

Rudakiy byusti bog‘ning o‘rtasiga o‘rnatilgan, u erda barcha yo‘llar birlashadi. Uning byusti aslida parkdagi oval shaklidagi dizaynning g‘arbiy uchida joylashgan. Haykal jigarrang koshinli poydevor tepasida joylashgan bo‘lib, uning hayoti yillari, ya’ni 858-941 yillar yozilgan oltin lavha bor.

Rudakiyning soqolli qiyofasi so‘zlayotgandek tuyuladi, chunki uning chap qo‘li ko‘rsatkich barmog‘i bilan yuqoriga ko‘tarilgan, o‘ng qo‘li esa chopondan ushlab turadi.

Rudakiy "shoirlar odami" nomi bilan mashhur, chunki u zamonaviy fors tilini birinchi bo‘lib qo‘llagan. Uning uslubi "klassik" deb nomlandi. Fors adabiyoti. U Tojikistonning Panjakent shahri yaqinida tug‘ilgan. She’rlari unga shuhrat keltirdi va u Somoniylar hukmdori Nasr II ning Buxorodagi saroyiga taklif qilindi. Rudakiy ham mohir xonanda va arfa chalgan edi. U oxir-oqibat amirning nazaridan tushib, bir necha yil o‘tib vafot etdi. Uning she’rlari hozir ham ko‘p o‘qiladi va Penjakentda Rudakiy muzeyi mavjud. Tojikistonda u milliy qahramon sifatida e’tirof etiladi, har yili 22-sentyabrda dam olish kuni nishonlanadi.

Yaqin atrofdagi boshqa diqqatga sazovor joylar orasida xuddi shu bog‘da joylashgan San’at galereyasi, janubga qisqa yurish va shimolga qisqa piyoda kinoteatr

kiradi. Yaqin atrofdagi Markaziy bog‘da boshqa mashhur shoirlarning, jumladan Alisher Navoiy va Abdurrahmon Jomiyning haykallari o‘rnatilgan.

Abu Rayhon Beruniy haykali Abu Rayxon Beruniy o‘rta asr fors olimi-entsiklopedisti va mutafakkiri, tarix, geografiya, filologiya, astronomiya, matematika, mexanika, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya, geologiya va boshqalarga oid ko‘plab yirik asarlar muallifi. Beruniy o‘z fanining deyarli barcha fanlarini puxta egallagan. vaqt. Beruniyning taxminan 1036-yilda tuzgan asarlari ro‘yxatida yuzdan ortiq nom bor. Ilmiy asarlarini arab va fors tillarida yozgan.

Poytaxtimizda 15-fevral kuni O‘zbekiston xalq rassomi, Davlat mukofoti laureati, haykaltarosh Jaloliddin (Ravshan) Mirtojiyevxotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik haykalining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda shuningdek, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi Javlon Umarbekov, Toshkent shahar hokimining jamoatchilik, mahalla va nuroniyalar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Rustam Kalonov, O‘zbekiston xalq rassomi, barelyef muallifi Jasvant Annazarov, O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir, Jaloliddin (Ravshan) Mirtojiyev farzandi Mansurjon Mirtojiyev so‘zga chiqdi. Haykaltaroshning o‘ziga xos barakali ijod yo‘li, ustoz va shogirdlarga munosabati, insoniy fazilatlar haqida o‘z dil so‘zlarini bayon qilishdi.

Jaloliddin (Ravshan) Mirtojiyev haykalini yashab, ijod qilgan poytaxtimizning Yunusobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 89A-uyda o‘rnatilgan yodgorlik lavhasini haykaltaroshning oila a’zolari hamda akademik J.Umarbekov oolib berishdi. Haykal muallifi stedodli haykaltarosh Jasvant Annazarov –Jaloliddin (Ravshan) Mirtojiyev shogirdi.

Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak qahramonimiz o‘z kasbini fidoyi, jonkuyarlaridan biri. Xaykaltaroshlik san’ati rivojlanishi uchun kun u tun mehnat qilib juda esda qolarli natijalarga erishgan. O‘z kasbi bilan dunyo taniydigan, O‘zbekiston nomini ulug‘laydigan fidoiy ijodkor. O‘zini ustida tinimsiz mehnat qilib noyob asarlar yaratgan. Zamonaviy haykaltaroshlik an’anaviy haykaltaroshlik amaliyotlari chegaralarini kengaytirib, keng ko‘lamli uslublar va materiallarni o‘z ichiga oldi.

Haykaltaroshlar bugungi kunda innovatsion va o‘ylantiruvchi san’at asarlarini yaratish uchun yangi tushunchalar, materiallar va texnikalarni o‘rganishda davom etmoqdalar.Umuman olganda, ulug‘vor haykallar ularni boshdan kechirganlarni ilhomlantirish, o‘ziga jalb qilish va hayrat tuyg‘usini uyg‘otish uchun xizmat qiladi, ularni san’at olamining muhim va doimiy qismiga aylantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda mustaqillik davrida mahobatli haykaltaroshlik san’atining rivojlanishi o‘ziga xos tarzda rivojlandi. Shu yillarda boshlangan yangi tarixiy davr haykaltaroshlikda ham, san’atning boshqa turlarida ham ajoyib ijodiy o‘zgarishlar bilan ajralib turdi. Yangi madaniy siyosat sifatida sog‘lom ma’naviy muhitni yaratish, milliy an’analarni tiklash, tarixiy-madaniy o‘zligimizni ro‘yobga chiqarish ustuvor masalalarga aylandi, buning natijasida mamlakatimizda mafkuraviy va rasmiy yangilanish jarayoni vujudga keldishi, bu hudud, yangi sifat bosqichiga yo‘l ochiq.

Milliy mustaqillikka erishilgach mahobatli haykaltaroshlikda global o‘zgarishlar yuzaga keldi. Binobarin, avvalgi tasviriy-uslubiy yondashuvlar va ko‘p millatli xalq amaliy san’atining murakkabliklari bartaraf etilib, uni milliy ko‘rinishda rivojlantirish vazifasi davr talabiga aylandi, milliy haykaltaroshlik san’atining mavgeini mustahkamlash bosqichi yaratildi.

Mazkur o‘zgarishlar buyuk siymolar obrazini e’zozlash, ulug‘lash va sharaflash tasviriy san’at soxasining asosiy vazifalidan edi. Buyuk tarixiy siymolar shaxsini ulug‘lash tamoyili tarixiy jandagi barcha haykallarga xos bo‘lib, obrazlar tasviri o‘zgacha tus oldi.Mahobatli haykal asarlarida sarkardalar obrazida mardonavor, salobatli va realistik ifoda bolsa, hukmdorlar obrazida mukammal siymo va klassik ifoda mavjud. Zamonaviy haykaltaroshlik asta-sekin yangi xususiyatga ega bo‘lib, mukammal texnologiyalar va yangi materiallarning paydo bo‘lishi bilan u haykaltaroshning har qanday maxsus texnik mahorati bilan bog‘liq bo‘lishni o‘xtatdi. Asarlarni yaratilishda g‘oya muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Mirziyoev Sh.M. Ozod va obod Vatanning komil farzandlari// Milliy taraqqiyot yo‘limizni davom ettiramiz, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. T.: O‘zbekiston, 2018.-B.412.
2. “Ma’rifat” gazetasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojaatnomasi Sh. Mirziyoev Oliy Majlisga. 9 sahifa. 2017 yil 23 dekabr. № 102-103 (9064)
3. Feruz Islomov “Haykaltaroshlik” Toshkent 2017.-B-6.
4. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/19/mirtajiyev/.dU|•газета.uz>
5. D.S. Po‘latov O‘zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. Avtoreferat. Toshkent-2008. UDK: 74.027

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434220>

## INTEGRATING A PSYCHOLINGUISTIC APPROACH TO INCLUSIVE EDUCATION PRACTICE

**M.Abduganiyeva**

ASIFL. Student. Andijan State Institute of Foreign Languages Faculty of English language and literature.

**Sh. Turg'unova**

ASIFL. Student. Andijan State Institute of Foreign Languages Faculty of English language and literature.

E.mail: [abduganiyevamushtariy23@gmail.com](mailto:abduganiyevamushtariy23@gmail.com)

**Anotation.** Currently, the only way to get education for children with various disabilities who need inclusive education is not enough to provide the student with the necessary equipment and conditions for the educational process. For this, it is important to properly plan lessons, taking into account all the age and psychophysical characteristics of students. Anomal children usually covered more, therefore, as much as possible, the lesson should be given a psycholinguistic orientation. This makes it easier for students to communicate with their peers and express their opinions.

**Keywords.** Anomalous children, psycholinguistics, communication, lesson, student, psychophysiological, intellectual, quality education, equal rights, inclusive education, integration, pedagogue, motivational

Psycholinguistics studies communication in relation to the human brain and psychological characteristics. Inclusive education provides equal opportunities for all students regardless of their abilities, needs and differences. Integrating these two approaches can help students gain a deeper understanding of how to learn to communicate and create a personalized learning environment for students.

Psycholinguistics develops a model of human speech activity and psychophysiological formation and examines them in a psychological experimental way.[1]

Through the use of psycholinguistics in educational activities, the development of speech, listening comprehension, reading, writing, memory and logical thinking in students receiving inclusive education, raising their level of knowledge and spirituality, forming mental work skills and intellectual, emotional and motivational characteristics of the student.

The goal of inclusive education is to create a barrier-free, customized educational environment for students with special educational needs by using special tools and methods at school, involving special pedagogues, by effectively adapting them to society and developing them in all aspects. consists of is to provide quality education that serves harmony.[2]

Considers how integrating psycholinguistic principles into inclusive education practices can influence language processing and acquisition, comprehension and teaching methods, assessment strategies, and diverse learner support systems, provides equal learning outcomes

The impact of language on academic achievement in psycholinguistic education and inclusive education:

Students learn to communicate through their cultural and social experiences.

Students are actively involved in language learning and receive, analyze, and learn new information. Each student learns to communicate at a certain speed and in a unique way. Psycholinguistic principles form a culturally customized education, taking into account the use of different language resources and the origin of students in language. Facilitates expression .. Data analysis avoids subjectivity in interpreting students 'skill level, taking into account knowledge and strengths. On the other hand, psycholinguistic principles define the design of evaluation, providing fairness and convenience to a variety of students. Psycholinguistic practices in inclusive education require a variety of cognitive directions and teaching methods tailored to the needs of

the child, which creates equal opportunities for everyone. In inclusive education, the system of integration of psycholinguistics requires the following goals and objectives:

- Creation of necessary psychological-pedagogical, correctional conditions for education of disabled children and adolescents, implementation of educational programs for spiritual development, social adjustment and implementation of correctional work aimed at their potential in an educational institution
- Guaranteeing students' right to equality in education;
- Satisfaction of children with active participation of society and family, early adaptation to social life;
- Giving disabled children and teenagers the right to live without family;
- The opportunity in society is to form a friendly and loving attitude towards children and teenagers. [3]

Inclusive education psycholinguistics studies the education, speech, emotional, voluntary and development of mental processes in children, the identification of mental characteristics, the development of various activities, learning, labor development, the formation of the child as a person through communication. A psycholinguistic approach and inclusive education together help to create a positive and supportive learning environment. Teachers try to help students feel comfortable and express their thoughts freely. This helps students feel in a safe and supportive environment and expresses their thoughts freely. A positive learning environment increases students 'confidence.

Integrating a psycholinguistic approach into inclusive education encourages students to actively participate in their learning and provides many opportunities to develop their communication skills. Observing their progress and success in developing communication skills will increase students' self-confidence.

There can be a number of problems in the integration of psycholinguistics into inclusive education. These include:

Psycholinguistics requires a variety of teaching materials and methods to meet the needs of the learner. Inclusive education requires additional resources to meet the

diverse needs of students. A lack of resources, as well as financial constraints, lack of teacher training opportunities, and lack of teaching materials can make it difficult to fully integrate a psycholinguistic approach into inclusive education.

The psycholinguistic approach requires students to activate their knowledge. Some students, especially those with language learning difficulties, may not be interested in actively engaging themselves in learning. When integrating the psycholinguistic approach into inclusive education, it is important to increase students' enthusiasm and actively involve them in reading.

Conclusion: Despite these difficulties, the integration of the psycholinguistic approach into inclusive education is a promising approach to improve students' language learning efficiency. For this integration to be successful, attention must be paid to resource allocation, teacher training, consideration of student diversity, improved assessment methods, and student motivation.

### **References:**

1. INKLUZIV TA'LIMDA PSIXOLINGVISTIKA Abdug'aniyeva Mushtariy Muzaffarjon qizi
2. Psychology <http://info-tashxis.uz/home/SinglePage/6465>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limda-nogiron-bollalarni-o-qitish-va-tarbiyalash-muammolari>
4. [https://www.researchgate.net/publication/378203213\\_Umumta'lism\\_maktablari\\_da\\_inklyuziv\\_ta'lim\\_jarayonining\\_ijtimoiy-psixologik\\_mexanizmlarini\\_takomillashtirish](https://www.researchgate.net/publication/378203213_Umumta'lism_maktablari_da_inklyuziv_ta'lim_jarayonining_ijtimoiy-psixologik_mexanizmlarini_takomillashtirish)
5. <http://ocutus.ucr.edu>
6. <http://www.ziyo-net.uz>
7. <http://www.kutubxona.uz>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434265>

## SEVGI VA HIS-TUYG‘ULARGA BEFARQLIK: ALBERT KAMYUNING “BEGONA” ASARI MISOLIDA.

Fozilova Gulgona

Allanova Muhayyo

TerDu, o‘zbek filologiyasi fakulteti talabalari

*Annotatsiya:* Mazkur maqola Albert Kamyuning Begona asarida bosh qahramon Merso obrazida namoyon bo‘lgan sevgi va his-tuyg‘ularga befarqlik masalasini o‘rganadi. Asarda insoniy munosabatlarga, sevgi va hissiyotlarga nisbatan noan’anaviy yondashuvni tahlil qilib, Mersoning jamiyatda o‘ziga xos "begona" bo‘lib qolishiga sabab bo‘luvchi omillar yoritiladi.

*Kalit so‘zlar:* sevgi, his-tuyg‘u, absurdizm, erkinlik, inson, befarqlik, falsafiy omillar, emotsional yondashuv, mantiqsizlik.

Albert Kamyuning Begona asari XX asr adabiyotining o‘ziga xos falsafiy durdonalaridan bo‘lib, unda inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, hayotning ma’nosizligi hamda absurdizmning o‘ziga xos tasviri yoritilgan. Asarning bosh qahramoni Merso sevgiga va his-tuyg‘ularga nisbatan o‘zgacha munosabatda bo‘lib, odatiy insonlarga xos bo‘lgan emotsional yondashuvlardan keskin farq qiladi. U hayot voqealariga befarqlik bilan qaraydi va jamiyat tomonidan kutiladigan hissiy javoblarni namoyon etmaydi. Ushbu maqolada Mersoning hissiyotlarga bo‘lgan munosabati, uning falsafiy asoslari va jamiyat bilan bo‘lgan ziddiyatlari tahlil qilinadi.

Merso, Kamyuning absurdizm falsafasini o‘zida aks ettiruvchi qahramon sifatida, hayotning mantiqsizligini tushungan holda yashaydi. Bu uning sevgiga va hissiyotlarga bo‘lgan qarashlarini shakllantiradi. Mariening Mersoga bo‘lgan chuqur his-

tuyg‘ulariga qaramay, Merso bunga sovuqqonlik bilan qaraydi. Marie turmush qurishni taklif qilganida, uning “Menga farqi yo‘q” degan javobi Mersoning hayotdagi barcha narsalarga, shu jumladan sevgiga nisbatan befarqligini ochib beradi. Shunga qaramay, Mersoning bunday yondashuvi sevgini rad etish emas. U Mariening mehrini qadrlaydi, lekin munosabatlarda emotsional bog‘liqlik yoki chuqur his-tuyg‘ularni ko‘rmaydi. Bu munosabatlar Mersoning jamiyatdagi odatiy sevgi tushunchalariga mos kelmasligini ko‘rsatadi.

Merso onasining o‘limini odatiy bir hodisa sifatida qabul qiladi. U onasi bilan uzoq vaqt birga yashamagan va uni parvarish uyiga joylashtirgan. Biroq, bu holatga nisbatan hech qanday aybdorlik yoki afsus hissini namoyish qilmaydi. Onaning dafn marosimida u ko‘z yosh to‘kmaydi, bu esa jamiyatning “insoniylik” talablariga javob bermaydi. Natijada, sud jarayonida uning onasiga bo‘lgan sovuqqonligi asosiy ayblovlardan biriga aylanadi. Jamiyat uchun Mersoning onasi o‘limiga bo‘lgan befarqligi insoniy qadriyatlardan yuz o‘girish sifatida qabul qilinadi.

Mersoning hissiyotlarga bo‘lgan befarqligi Kamyuning absurdizm falsafasi bilan chuqur bog‘langan. Absurdizm hayotning mantiqsizligini anglash va buni qabul qilishni talab qiladi. Kamyu fikricha, hayotning ma’nosizligini tushungan odam yolg‘on umidlar va ijtimoiy kutilmalar bosimidan ozod bo‘ladi. Merso o‘z hayotida bu falsafani amalga oshiradi. U sevgiga qaram emas, hissiy javoblarni yashirish yoki ijtimoiy talablarni bajarishga intilmaydi. Merso hayotni qanday bo‘lsa, shunday qabul qilib, mutlaq erkinlikni boshdan kechiradi. Bu erkinlik esa uning befarqligida namoyon bo‘ladi.

Mersoning sevgiga va hissiyotlarga bo‘lgan noan’anaviy munosabati uni jamiyat uchun “begona” qilib qo‘yadi. Jamiyat his-tuyg‘ularni ochiq ifodalashni ijtimoiy qadriyatlarning asosiy qismi deb biladi. Shu sababli, Mersoning befarqligi sudda tanqid uchun asosiy sababga aylanadi. Jinoyat sodir etganidan ko‘ra, uning onasiga nisbatan sovuqqonligi ko‘proq qoralanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Albert Kamyuning Begona asarida sevgi va his-tuyg‘ularga bo‘lgan befarqlik chuqur falsafiy ma’noga ega. Merso orqali Kamyu

hayotning absurdligini va uni qabul qilish orqali topiladigan ichki erkinlikni tasvirlaydi. Ushbu asar inson hissiyotlarining mazmuni va ularga nisbatan munosabatni qayta ko‘rib chiqishga chorlaydi va o‘quvchini hayotga falsafiy yondashuvga undaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alber Kamyu. Begona. Toshkent. "Yozuvchi" nashriyoti. 1995.
2. Albert Kamyu. Ijod va erkinlik. (Fransuz tilidan tarjima) M. Rainbow. 1990.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434331>

## **GLOBAL LASHUV JARAYONIDA MISSIONERLIKKA QARSHI KURASHDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING O'ZIGA XOSLIGI**

**Tanimov Sharapadin Maulenbergenovich**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasи o'qituvchisi

E-mail: [sharapatdin8484@mail.ru](mailto:sharapatdin8484@mail.ru)

*Annotatsiya. Mazkur maqolada missionerlikga qarshi kurashning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining yangi ko'rinishlari haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada global miqiyosda xavfsizlik, barqarorlikka rahna solish maqsadida ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlikning g'oyaviy-mafkuraviy ko'rinishlari borasidagi fikrlar yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: transformatsiya, mafkuraviy interentsiya, manipulyatsiya, ekspantsiya, terrorizm, tinchlik, xavfsizlik, barqarorlik, geosiyosat.*

*Аннотация. В статье анализируются Моральные и нравственные ценности борьбы с миссионерством. Также в статье рассматриваются научно обоснованные взгляды, точка зрения, позиции специалистов касательно угрозы миссионерства на мирную ситуацию, политической, экономической и юридической стабильности страны.*

*Ключевые слова: трансформация, идеологическое интервенция, манипуляция, экспансия, терроризм, мир, безопасность, стабильность, geopolitika.*

**Annotation.** The article analyzes the moral and moral values of the struggle against missionary. The article also examines scientifically based views, point of view, positions of specialists regarding the threat of missionary to a peaceful situation, political, economic and legal stability of the country.

**Key words:** transformation, ideological intervention, manipulation, impact, terrorism, peace, security, stability, geopolitics.

**Kirish.** Globallashuv atamasi dunyo miqyosida bugungi kunda juda ko‘p qo‘llanilib barcha sohalarni qamrab olmoqda. Shu tariqa, jahonda kechayotgan jarayonlar XXI asrda globallashuv ko‘p jihatdan insoniyat taraqqiyot strategiyasini belgilab berishini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Globallashuv va uning qamrovini dunyoning barcha sohalarida ko‘rish mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda globallashuv diniy sohaga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatayotganligini anglash qiyin emas. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Diniy ekstremizm mafkurasi ommaviy ongga global axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, jumladan, Internet, zamonaviy elektron dasturiy ta’mintlari orqali kuchli axborot-psixologik bosim o‘tkazmoqda” (Mirziyoyev, 2021).

Insoniyat tarix davomida hamisha integratsiyaga, yagona siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy-madaniy makonning bir qismi bo‘lishga intilib kelgan. Dunyodagi uchta jahon dinlarining vujudga kelishi jahon makonining global integratsiyalashuvining yangi namunasini yaratdi. Yahudiylik, nasroniylik, so‘ngra islom voqeligini ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy idrok etishda ta’sir chegaralarini kengaytirib, asosan u yoki bu din vakillari yashaydigan joylarni yaratdilar. Shu o‘rinda quyida missionerlikning tarqalashiga sharoit yaratib berayotgan globallashuv hodisasini ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilamiz.

Globallashuv bayrog‘i ostida dunyoni qaytadan isloh qilish, diniy nizolarni vujudga keltirish, diniy ekstremizmning o‘choqlarini ko‘paytirishga bo‘lgan intilish missionerlik targ‘ibotida jiddiy ko‘zga tashlanmoqda. Bugungi kunda dindan niqob

sifatida foydalanish, insonlarni qo‘rqtish, internet orqali yoshlar ongini egallash va ulardan foydalanish holatlari globallashuvning mahsuli desak aslo, mubolag‘a bo‘lmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tanqidiy tahlili.** Bugungi kunga kelib missionerlik nazariyasiga ko‘ra mafkuraviy tojavuzning yangi ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, XXI asrga kelib missionerlik harakatlari faoliyati kuchaygan mafkura poligonlari tobora ko‘paymoqda. Mazkur harakatlarni oldini olish va bartaraf etish hozirgi kunga kelib dunyo miqyosida ko‘pgina hududlarning dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Bu haqda fikr yuritganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 6 noyabr kuni *Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi* muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqida: Hozirgi vaqtida dunyoda turli kuchlar o‘rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchaymoqda, resurslar uchun shafqatsiz kurash ketmoqda. Mintaqamizdagi tinchlik va xavfsizlikka nisbatan yangi-yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda. O‘z-o‘zidan ravshanki, globallashuv va keskin raqobat zamoni, shiddat bilan o‘zgarayotgan hayot bizning oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan, o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Mana shunday murakkab va qaltis vaziyatda barchamiz tinch va osoyishta hayotimizni asrash, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun yanada jipslashib, hushyor va ogoh bo‘lib, dadil va qat’iy harakat qilishimiz zarur”ligini (Mirziyoyev, 2021) ta’kidlab o‘tgan edi. Binobarin, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida g‘oyaviy va mafkuraviy kurashning kuchayishi millat yoki xalqlar tarixiy qadriyatlari, bugungi hayoti va kelajakdagi taqdiri mavqeini belgilashda muhim omil vazifasini o‘taydi.

Globallashuv davrida ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo‘layotgan missionerlik mafkuraviy tojavuzning nozik va nisbatan arzon shaklida allaqachon ayrim davlatlar amaliyotiga aylanib bo‘ldi. Ayniqsa, dunyo miqyosida keskin g‘oyaviy kurashlarning avj olishi, turli mafkuralar to‘qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta’limotlar shiorlari bilan “chiroyli” niqoblangan yovuz

g‘oyalarni singdirishga intilish missionerlik ko‘rinishida tobora kuchayib bormoqda. Bugun missionerlik ba’zi geosiyosiy kuchlarning xavfli quroli bo‘lib, siyosiy va iqtisodiy ta’sir doirasi ko‘rinishida ifodalanayotgan zamonaviy mustamlakachilik yoki vassallikni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Ayrim” siyosiy doiralar o‘zlarining geosiyosiy maqsadlarini ko‘zlab, nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishda aynan, missionerlik harakatlaridan bevosita foydalanishmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Missionerlik ma’naviy-mafkuraviy tahdid sifatida, inson ongi va qalbini zabt etishda asosiy qurol bo‘lib xizmat qilmoqda. “Missionerlarning asosiy maqsadi qaysidir dinni targ‘ib qilish yoki qaysidir dinni kuchsizlantirish emas, balki sizu biz yashab turgan yurtning tinchligiga raxna solish va taraqqiyotini barbod qilishdir. Ma’lumki, missionerlar xuddi shu yo‘l bilan bir necha davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini izdan chiqardilar. Oqibatda aholining asrlar osha shakllanib kelgan milliy va diniy qadriyatları oyoqosti bo‘lishiga va nihoyat, yo‘qolib ketishiga olib keldi”( Yahyo, 2016).

Ayniqsa, missionerlar bugungi kunda turli xil usullardan foydalanishini kuzatish mumkin. Masalan, bizning yurtimizga missionerlar “... til o‘rgatish, kompyuter o‘rgatish, har xil sohalar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash va boshqa ishlар uchun turli-tuman o‘quv markazlari tashkil etish yoki bo‘lmasa, har xil yo‘nalishlarda xayriya ishlari bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar qiyofasida kirib kelishdi” (Otamuradov, 2015). Zero, bugungi kunda xristian dinining jahon dinlari ichida birinchi o‘ringa chiqishida missionerlar tomonidan qo‘llagan usullarning xilma-xilligi sabab bo‘ldi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi kunda missionerlik zamirida juda katta xavf yashirinib, g‘oyaviy kurash tobora yangi qiyofaga kirdi. Bu kabi holatlar milliy nigelizm (“nigelizm” lotincha nihil – “hech nima” – o‘zining yoki yurtining kuch-qudratiga ishonmaslik, ularga past baho berish, ertangi kunga ishonchsizlik, umidsizlik) ya’ni, muayyan millat vakillarining o‘z millati imkoniyatlarini kamsitib, pasaytirib baholashi, o‘z yurtining qadriga yetmaslik, mamlakatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar miqyosini anglay olmaslik holatlarining vujudga kelishiga olib keladi.

Milliy nigelizm kasaliga yo‘liqqa yoshlarning mafkuraviy immuniteti zaif bo‘lib, ular begona g‘oyaviy ta’sirlarga tez beriluvchan, o‘z yurtining manfaatini himoya qila olmaydigan o‘z yurtining har qanday yutug‘iga nisbatan befarq va ularni negativ baholovchi, “qildan qiyiq axtaruvchi” nochor kimsalarga aylanib qolishadi.

Darhaqiqat, dunyo voqealariga nazar soladigan bo‘lsak, missionerlar faoliyati har doim mintaqaga barqarorligini buzib, o‘zga din vakillari orasida notinchlik, qon to‘kilish, beqarorlikni yuzaga keltirmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, missionerlar juda ayyor, ko‘pni ko‘rgan, ishbilarmonlar bo‘lib, ular o‘zlarini sodda kishilardek tutadi va hech qachon davlat idoralaridan ish rejasi va nizomini ro‘yxatdan o‘tkazishni so‘ramaydi. Ular avvalo vaziyatni, kishilarni, amaldorlarni, ularga yaqinlashish yo‘llarini yaxshilab o‘rganib, asta-sekin insoniy yordam, tibbiy xizmat, xayr-ehson kabilardan gap ochadi va qo‘lidan ish keladiganlarga “sovg‘a salomlar” uyushtirib, oxir-oqibat ularning ko‘ngliga yo‘l topadi va o‘z maqsadlarini amalga oshirishga o‘tadi. Masalan, xristian dini oqimlaridan “Iyegova shohidlari”, “Evangelistlar”, “Adventistlar”, “Baptistlar” va boshqa ko‘plab katta-kichik cherkov vakillari o‘zlarining “samarali” ovlari uchun yurtimizdan o‘lja izlamoqda.

**Tadqiqot natijalarining muhokamasi.** Missioner – biror diniy tashkilot tomonidan o‘z diniga targ‘ib qilish uchun muayyan hududga yuborilgan shaxs sifatida o‘ziga singdirilgan diniy qarashlarni tar-qatish, ular vositasida zimmasiga yuklangan o‘zi bilib-bilmagan maxsus vazifalarni amalga oshiruvchi shaxsdir (Musaev, 2021). Rivojlangan davlatlar missionerlik tashkilotlari orqali xorijiy davlatlardagi ichki “iqtisodiy muammolar”ni bartaraf etishda bevosa ishtirok etishadi. Missionerlik strategiyasida fuqarolarni jamiyat va davlat miqyosidagi “iqtisodiy muammolar”ni bartaraf etishda ishtirok etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bunda missionerlar moddiy va moliyaviy yordam ko‘rsatishning turli xil usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda. Ushbu rejlarini amalga oshirishda “mehribonlik uylari”, “ko‘zi ojizlar jamiyati”, “qariyalar uylari”ga “beg‘araz” xayriya yordami ko‘rsatayotganligi ular amaliyotining oshkora ko‘rinishlaridir. Bu haqda AQSh prezidenti Taft esa XX asr boshlarida missionerlik jamiyatining episkoplik cherkovi yig‘ilishlaridan birida:

«Siz missionerlarni Sharq tsivilizatsiyasi ruhi bilan tayyorlang. Missioner rahbarlari nafaqat episkop yoki pastor, balki ular davlat arboblari hamdir», - deya ta'kidlaydi» (Brown, 1921),-degan edi. Missionerlarning ruxoniylit maqomi doimiy ravishda davlat va siyosiy doira vakillarini muhim topshiriq va vazifalarini bajarishda asosiy o‘rin tutgan. Shu tarzda xristian missionerlari Osiyo, Afrika va Amerika mintaqasida o‘z faoliyatlari bilan o‘zlari mansub davlatlarining siyosatini o‘tkazishda asosiy rolni bajarishgan edi.

Missionerlik harakatlari ayrim mamlakatlardagi davlat suverenteti, konstitutsion tuzumga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qo‘llab quvvatlash va ta’minlashda o‘z aksini topayotganligi ayniqsa tashvishlidir. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek: “ming afsuski, bu kuchlarning asl qiyofasi, maqsad-muddaolari va imkoniyatlarini to‘la va aniq-ravshan tasavvur qilish oson emas. Nega deganda, ular ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va g‘oyalar pardasi ostida ish ko‘radi. Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ularning puxta o‘ylagan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga xizmat qilmoqda” (Karimov, 2008),- deya ta’kidlagani bejiz emas. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, hozirgi zamonda missionerlik va prozelitizm sababli muayyan hudud va mintaqalarda katta moddiy va ma’naviy yo‘qotishlar yuz bermoqda.

Hozirgi davrda ayrim taraqqiy etgan davlatlar geosiyosiy va iqtisodiy manfaat va maqsadlarni ko‘zlagan holda demokratik o‘zgarishlar jarayonini tezlashtirish zaruriyatini ro‘kach qilib, rivojlanayotgan mamlakatlar ichki ishlariga aralashishga, ba’zan ochiq-oshkora, ba’zan esa turli nohukumat tashkilotlar orqali tazyiq o‘tkazishga astoydil kirishganligi namoyon bo‘lmoqda. Bu hol turli davlatlardagi bir xil voqeahodisalarga ikki xil andozalar bilan yondashish, asossiz ma’lumotlarga tayanib, demokratik tuzumni majburan, kuch bilan o‘rnatishga intilish, konstitutsiyaviy tuzumga qarshi terrorchilik xurujini amalga oshirgan ashaddiy jinoyatchilarni o‘z huquqlari uchun kurashayotgan “tinch aholi” deb atashlarda oydinlashamoqda (Xaydaraliev, 2012).

Buyuk Britaniya Birlashgan Qirolligining mustamlakachilik xizmatining yirik arboblari orasida missionerlik imperiya uchun muhim ekanligi to‘g‘risidagi fikrlar mavjud bo‘lgan. Aksariyat gegemon davlatlar missionerlikni davlatning siyosiy rejalarini amalga oshirishda davlatlarning ittifoqdosh hamkori sifatida e’tirof etishgan. Xususan, missionerlikning katta ahamiyatga ega ekanligini nafaqat siyosat arboblari, balki missionerlarning o‘zi ham buni ta’kidlashgan.

Amerikalik tadqiqotchi Artur Braun o‘zining 1921 yilda yozgan «Uzoq Sharqdagi hukmronlik» kitobida: «Biz Uzoq Sharqdagi asosiy siyosiy ta’sir kuchlarni ko‘zdan kechirganimizda o‘z xususiyat va ko‘rsatkichlari bilan ancha ahamiyatliroq bo‘lgan bir kuchga duch keldik. Barcha kuchlardan ta’sirliroq bo‘lgan bu kuch xristian missiyasidir. Chunki boshqa kuchlar tashqi siyosiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirsa, missionerlik ichki tomondan katta ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi» (Brown, 1921) - deb ta’kidlaydi.

Shunday qilib, turli xil ko‘rinishdagi missionerlik harakatlari asrlar davomida mustamlakachilarga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi hududlarini egallahsha, mahalliy xalqni ijtimoiy qarashlarini o‘zgartirib boshqa davlatlar siyosatiga bo‘ysundirishda katta yordamchi bo‘ldi. Bugungi kunga kelib geosiyosiy kuchlar muvozanatining tobora o‘zgarishi, ayrim rivojlangan davlatlarning o‘z demokratiyasini “eksport” qilish orqali dunyoga hukmronlik qilish maqsadi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.

Yaqin Sharq mintaqasiga, jumladan, arab mamlakatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazishga urinayotgan kuchlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatning kuchayishi ular mustaqilligiga tahdidlarning yangi turlari sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatadi. Bunday harakatlar Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, jumladan, ayrim arab va Markaziy Osiy davlatlarining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati ortib borayotgani, ulkan tabiiy-iqtisodiy va boshqa resurs salohiyatiga egaligi ular xavfsizlik va barqarorlikka tahdid va xatarlar saqlanib qolayotgan mintaqqa sifatida hamon jahon hamjamiyati diqqat markazida turganligini ham anglatadi (Paxrudinov, 1999). Vaholanki, missionerlik harakatlari mohiyatida “inson huquqlari”, “vijdon erkinligi”, “demoraktik erkinliklar”ni olg‘a surish uchun ko‘rsatilayotgan “ko‘mak” aslida mamlakatni

parokandalik sari siyosiy boshboshdoqlikka etaklayotganligi bilan yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Missionerlik orqali amalga oshirilayotgan “Demokratiya” niqobidagi urinishlar mana shunday noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini anglash barchadan jiddiy fikrlashni taqozo etadi.

Bugungi kunda globallashuv sharoitida dunyo miqyosida diniy nifoq solish orqali tinchlik va barqarorlikka tahdid solishga intilayotgan missionerlikka qarshi kurashda yoshlarimizni Milliy Vatanparvarlik g‘oyalariga sodiq etib tarbiyalashni bugungi zamon talab etmoqda. Ayniqsa, bu borada yurtdoshlarimizni missionerlikni oldini olishda eng avvalo, loqaydlik, xudbinlik kabi salbiy holatlardan ogoh bo‘lishni talab etadi. Bu borada barcha yurdoshlarimiz bir maqsad sari Vatanimiz kelajagi hisoblanmish farzandlarimizni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligiga erishishdek oliy maqsadlarimiz ruhida tarbiyalashimiz to‘g‘risida jiddiy talablarni qo‘ymoqda. Xususan, bugungi kunda yoshlarimiz ongi va qalbiga buyuk ma’naviyatimizni singdirish orqali sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish orqali chetdan juda katta ma’naviy huruj sifatida namoyon bo‘layotgan missionerlik ta’sirlarga ham qarshi tura oladigan barkamol insonlar sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyoda keskin g‘oyaviy kurashlar, turli mafkuralar to‘qnashuvlar jarayonida demokratiya yoki turli diniy ta’limotlar shiorlarini o‘zida namoyon etuvchi yovuz g‘oyalarni singdirishga bo‘lgan intilish tobora kuchayib bormoqda. Zero, missionerlik tarafдорлари томонидан илгари сурilayotgan demokratiya niqobidagi balandparvoz targ‘ibot va tashviqotlar bizning milliy mentalitetimizga mutloqa to‘g‘ri kelmasligini bemalol aytishga to‘la haqlimiz. Missionerlik tarafдорларining asosiy maqsadi yoshlarimizni milliy zamindan, azaliy qadriyat – ma’naviyatimizdan judo qilish orqali manqurtga aylantirish kabi illatlarini maqsad qilayotganligi tashvishlidir. Shuni e’tiborga olgan holda xalqimiz, millatmizni turli soxta va zararli g‘oyalar ta’siridan asrashda eng avallo, o‘z qadriyatlarimizni e’zozlash orqali belgilangan maqsad va vazifalarimizga erishamiz.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida bildirib o'tgan fikrlardan xulosa qilib aytsak, missionerlikning ta'qiqlanishi ham siyosiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy sabab hamda omillarga asoslangan bo'lib, maqsadimiz yurtimizda xukm surayotgan barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash orqali Yurtimiz mustaqilligimizni mustahkamlashdir. O'z navbatida, missionerlik tahdidini bartaraf etishda eng avvalo, hukumatimiz tomonidan missionerlikka oid ilmiy-ma'rifiy manbalar xamda muommaning amaliyotdagi holatini o'rganish orqali ilmiy tajribalar asosida aholining keng qatlamlarini ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Missionerlik tahdidlaridan doimo ogox bo'lish, mazkur harkatlarni o'z vaqtida anglash va ularni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bunday keng ko'lami o'ta muhim masalalarni hal qilishda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan olib borilayotgan tajribalari asosida missionerlik xarakatini bartaraf etishda, avvalo, oila, ta'lim soxasi va jamoat tashkilotlarini ma'naviy – ma'rifiy qadriyatlarini shakllantirish mamlakatimizda jamiyatimizning barcha qatlamlarini missionerlik tahdidiga karshi g'oyaviy – mafkuraviy qurollantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xulosa qilib aytganda Bugungi kunda jahonda keng quloch yozgan va inson ma'naviyatini buzishga qaratilgan tahdid bu Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak" (Mirziyoyev, 2017), - deya alohida ta'kidlab o'tgani bejiz emas. Zero yosh mamlakatimizda missionerlik tahdidlarni oldini olish, uni bartaraf etish orqali tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, totuvlik, millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini har bir Vatandoshimiz anglashi lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзаёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри.  
– Тошкент: O‘zbekiston. 2021. – Б. 329.
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 6 noyabr 2021 yil*
3. Амин Яхё М. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. – Тошкент:  
Мовароуннахр, 2016. – Б. 28.
4. Отамуродов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –  
Тошкент: — “Ўзбекистон” НМИУ, 2015. – Б. 298.
5. Musaev M. Missionerlik va prozelitizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi.  
Monografiya. Т., “Mumtoz so‘z”. 2021. – Б. 17.
6. Brown A.J. The mastery of the Far East. - New York:1921. p. 471.
7. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. – Т., “Ma’naviyat”.  
2008. – Б. 12-13.
8. Xaydaraliev Shuxrat Abdulazizovich. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik  
va barqarorlikni ta’minlashda xalqaro tashkilotlar va O‘zbekistonning o‘rni (1991-  
2010 yillar). t.f.d. ilmiy darajasi uchun yozilgan dis. 07.00.01. Namangan.: 2012. B-  
125.
9. Brown A.J. The mastery of the Far East. p. 469
10. Paxrudinov Sh. Mustaqillik va jamiyat taraqqiyotiga tahdid muammoasi.  
(siyosiy tahlil tajribasi) S.f.n. ilmiy darajasi uchun yozilgan dis. 23.00.02. Т.: 1999
11. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,  
yangi bosqichga ko‘taramiz. -Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. - 89 b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434382>

## УРУШ ЙИЛЛАРИДА ЕНГИЛ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ: ЮТУҚ ВА МУАММОЛАР (1941-1945).

Кенджиев Я.Ю.

Осиё технологиялар университети “Ижтимоий фанлар ва  
рақамли технология” кафедраси ўқитувчиси.

[kendjayevyakub@gmail.com](mailto:kendjayevyakub@gmail.com)

### АННОТАЦИЯ

Уруш йилларида саноат корхоналарининг Ўзбекистонга кўчирилиши  
натижасида енгил саноатнинг ишлаб чиқариш қуватлари ҳам ҳарбий  
бюртмаларни бажаришга қаратилди., бу эса янгитдан катта кўламда ишлаб  
чиқариш қувватига эга бўлган замонавий енгил саноат корхоналарининг,  
Мараказий Осиёда, жумладан, Ўзбекистонда барпо этилишини ҳаётий  
заруратга айлантириб қўйди.

**Калим сўзлар:** саноат корхоналари, электроэнергия, электростанция,  
Ўзбекистон Компартияси, пленуми, гидроэлектростанция, металлургия,  
фабрика, Ўзбекистон CCP Xalq Комиссарлари Совети, иссиқлик  
электростанцияси.

Уруш совет давлати ҳудудига кўчган дастлабки кунданоқ енгил саноатнинг  
ишлаб чиқариш қуватлари ҳам ҳарбий бюртмаларни бажаришга қаратилди.  
Мавжуд шароитда енгил саноат тезлик билан фронтни кийим-кечак билан  
таъминлаши зарур эди. Бошыа саноат тармоқлари каби енгил саноат ҳам уруш  
шароитига мослашиши ҳарбий изга кўчирилди. Иккинчи жаҳон урушига қадар  
енгил саноат корхоналарининг армия учун маҳсулот ишлаб чиқариш салмоғи

унча кўп эмас эди. Факат тиқувчилик корхоналаригина армия учун қисман кийим-кечак тайёрларди. Эндилиқда эса ички имкониятлардан келиб чиқиб ҳарбий маҳсулот ишлаб чиқаришни анча кўпайтиришга тўғри келди.

Бу вазифани амалга ошириш учун аввало, халқ истеъмоли товарлари ва умуман тинчлик шароитида ишлаб чиқариладиган маҳсулотлар ва уларнинг миқдори камайтирилди. Тиқувчилик корхоналари кийим-кечак, шинель. Телогрейка тикишга, тери-мўйна ҳамда пойабзал корхоналари эса қалпоқлар, этик, ҳарбийлар оёқ кийимлари, калта пўстинлар, қўлқоп ва бошқа маҳсулотларни чиқишига ўтдилар.

Бироқ уруш йилларида Ўзбекистонда енгил саноатни ҳарбий изга ўтказиш анча қийинчилик билан кечди. Бу борадаги асосий муаммо ва қийинчиликлар моддий-техника, хом ашё, ишчи қучи анча камайган бир шароитда янги маҳсулот ва янги технологияни ўзлаштиришни, янги хом ашёни қидириб топиш ҳамда уни ишлаб чиқаришга йўналтириш лозим эди.

Ўзбекистонга келтирилган енгил саноат учун зарур маҳғсулотлар (замоклар, тугмалар, илгаклар, занжирлар ва бошқалар) билан таъминлаш уруш вақтида тўхтаб қолди. Шунинг баробарида уруш бошланиши билан соҳага ажратиладиган капитал маблағлар камайиб кетди. Масалан, 1942 йилда давлат томонидан соҳага ажратиладиган маблағлар режаси Ўзбекистон ССР текстил саноати халқ комиссарлиги бўйича 21,5 фоизга, Ўзбекистон ССР енгил саноати халқ комиссарлиги бўйича эса 5,8 фоизга бажарилди холос.

Уруш бошланиши билан Ўзбекистон ССР енгил саноатининг ишлаб чиқариш қувватлари ҳарбий бюртмаларни бажаришга киришди. Чарм моллари ишлаб чиқарувчи корхоналар авиация, автомобилътрактор, танк ва бошқа ҳарбий йўналишдаги соҳаларни маҳсулотлар билан таъминлади. Масалан, 1941 йилда Тошкент эгар-жабдуқ фабрикаси фронт учун жами 504 000 рубиллик маҳсулот ишлаб чиқарган бўлса, 1942 йилда 4 885 000 рубиллик ёки 9 баравар кўп шундай маҳсулот ишлаб чиқарди.

1941 йил декабрь охирига қадар Ўзбекистон енгил ва маҳаллий саноати фронтга 7417 дона пахтали камзул, 5852 дона плаш, 22250 жуфт узун қўлқоп, 3269 дона пуфайка, 60902 дона, телпак, 15400 жувт этик, 23852 жувт пайпок, 9770 та калта қўлқоп, 2937 дона пахтали шим ва бошқа иссиқ кийим бошқалар етказиб берди.

1942 йил бошидан бошлаб республиканинг енгил саноат корхоналри ҳам фронт учун ҳарбий бюортмалар асосида маҳсулот ишлаб чиқаришни кучайтирдилар. 1942 йил биринчи ярмида М. Горкий номидаги тикувчилик фабрикаси жамоаси фронт учун маҳсулот ишлаб чиқариш режасини 107,9фоизга, “Красная Заря” тикувчилик фабрикаси 102,3 фоизга, Володарский номли тикув фабрикаси 111,7 фоизга, №8 фабрикаси 147, 8 фоизга бажардилар.

1941 йил 25 августга қадар СССРнинг ғарбий районларидан Ўзбекистон ССР жаъми 29 та енгил саноат корхоналари ва иккита маҳаллий саноат аҳамиятига эга корхоналр қўчириб келтирилди. Улардан 9 таси тўқувчилик фабрикаси, Харковдан “Красный швейник” фабрикаси, Ростовдан №1, 2, 4, 5, 7 фабрикалар, Днепропетровскийдан В.В. Володарский тикувчилик фабрикаси, Днепропетровск тикувчилик фабрикалари ва бошқалар.; Шу билан бирга иккита Ростов ва Таганрог пойабзал фабрикалари, Могилев мебел фабрикаси, Москва чармбюмлар, “Дубитель” ёғ-экстрат заводи, Кулянск чарм комбинатлари қўчириб келтирилди.

Қўчириб келтирилган ушбу енгил саноат корхоналари республика областларига қуидаги тартибда жойлаштирилди. Самарқанд обlastига 4 та корхона, Андижон обlastига 4 та, Фарғона обlastига 9 та, Наманган обlastига 1 та, Тошкент обlastига 13 та корхона қўчириб келтирилиб жойлаштирилган эди.

Ўзбекистонга қўчириб келтирилган фабрика ва корхоналарининг ишлаб чиқариш техника ва технологиялар республикадаги маҳаллий бир турдаги корхоналар билан бирлаштирилди. Масалан Ростов пойабзал фабрикаси Тошкент, Самарқанд, Бухоро пойабзал фабрикалари билан Могилев мебел

фабрикаси Тошкент мебел фабрикалари билан бирлаштирилиб фронт учун маҳсулот ишлаб чиқара бошлади. Кўчириб келтирилган корхоналр ўзларининг қарийиб 20-30 фоизга қадар малакали ишчилари ва инженер техниклари билан келган эди. Улар маҳаллий ишчиларга ўз касб сирларини ҳам ўргатдилар.

Бироқ кўчириб келтирилган корхоналарни жойлаштириш, уларни тўла қуват билан ишлаб кетишини таъминлашнинг ўзи катта қийинчиликлар ва уруш даврининг етишмовчиликларини енгиб ўтиш эвазига амалга оширилди. Шу боис йилдан йилга уларнинг республика енгил саноатидаги улуши ортиб борди. Масалан республика бўйича умумий енгил саноатда яратилган маҳсулотда кўчириб келтирилган корхоналрнинг улиши 1942 йилда 29,8 фоизни ташкил этган бўлса, бу кўрсаткич 1945 йилда 39,5 фоизни ташкил эди.

1942-1943 йиллар оралиғида Тошкентда каноп йигириш-тўқиши фабрикаси, Марғилонда шойи тўқиши комбинати ва бошқа тўқимачилик корхоналари қурилиб ишга туширилди.

Тўқувчилик ва тикувчилик корхоналари бутунлай ҳарбий буюртмаларни бажаришга киришди, бу тармоқ ишини ҳарбий изга кўчириш ташқаридан осондек туюлса-да, илгари ишлаб чиқарилган товарларнинг ўрнини бир неча баравар кўп меҳнат талаб қиласидаги маҳсус маҳсулотлар билан алмаштириш керак эди. 1941-1943 йиллар оралиғида фронт эҳтиёжларига қаратилган маҳсус матолар ишлаб чиқариш 12,5 баробар ва боғловчи материаллар эса 21 баробарга кўпайди. 1941 йил октябрда Ўзбекистон енгил саноати корхоналарининг барчаси мудофаа буюртмаларини бажаришга ўтди.

Ўзбекистон фронтга юз минг метрлаб газлама ва кийим-бошлар етказиб берди. Совет Иттифоқидаги энг катта тўқимачилик фабрикаларидан бири бўлган Сталин номидаги Тошкент тикувчилик комбинати ҳам уруш йилларида асосан фронт учун маҳсулот ишлаб чиқарди. Комбинат ҳукуматнинг армияни ҳар хил буюм-анжомлар билан таъминлаш тўғрисидаги топшириқларини ўз вақтида яхши бажаргани ва давлат мудофаа комитетининг маҳсус топширигини бажаргани учун СССР Олий Совети Президиумининг 1944 йил 24 январда

чиқарган фармонига мувофик Мехнат Қизил Байрөк ордени билан тақдирланганди.

Уруш йилларида республикамизда бир қатор янги саноат корхоналари қурилиб ишга туширилди. Жумладан, Бухоро областида Бухор пахта тозалаш заводи, суткасига 4 минг тонна ип-калавани 10-12 минг урчуққа ўрайдиган ип-йигиув фабрикаси, йилига 300 тонна маҳсулот берадиган чарм-мўйна заводи қурилиб ишга туширилди. Ғиждувонда ёғ-мой заводи, Когонда суперфосфад заводи қурилиши бошланди. Шунингдек, 1942 йилда Бухоро гўшт комбинатида 170 минг сўмлик капитал-таъмирлаш ишлари амалга оширилди.

1942-1943 йилларда Андижон шаҳрида йигиув фабрикаси қурилиб ишга туширилди. Ушбу корхона суткасига 5 минг тонна ип-калавани урчуқларга ўраб, вилоятдаги артелларни ҳом ашё билан таъминлашни бошлади. Фабрика 1943 йил февралидан маҳсулот берадиган заводи бошлади.

Андижон шаҳридаги Володарский номли тикувчилик фабрикаси ёшлари уруш йилларида фидокорона меҳнат қилиб фрондаги аскарларга режадан ташқари 350 минг сўмлик кийим тикиб бердилар.

1943 йилнинг ўрталарида келиб Тошкентдаги “Красная заря” фабрикасида фронтдаги аскарлар учун 500 минг сўмлик пахтали камзир, бушлат каби иссиқ кийимлар жўнатдилар. Бу фабрикада ишловчи 900 хотин-қизлар меҳнат мусбақасига қўшилган холда фидокорона меҳнат қилдилар.

1943 йилда Сталин номидаги Тошкент тўқимачилик комбинатининг юзлаб ишчилари, инженерлари ва хизматчилари армияни буюм-анжомлар билан таъмрлаш ҳақидаги хукумат томонидан берилган топширикларни яхши бажаргани ва Мудофа Қўмитасининг маҳсус топширигини ўз вақтида бажаргани учун СССР ҳукуматининг ордан ва медаллари билан мукофатландилар.

Бухоро шаҳридаги “ВЛКСМ XX йиллиги” тикув фабрикаси уруш йилларида 19 хил турдаги маҳсулот ишлаб чиқаришни ўзлаштириди. Корхона ҳам фронт учун ҳам аҳоли эҳтиёжлари учун маҳсулот ишлаб чиқарди. Фабрикада тайёрланган мсулотларнинг катта қисми фронтга жўнатилди. Бутун уруш

давомида фабрика ишчилари томонидан ишлаб чиқарилган 21 миллион 573 минг сўмлик маҳсулот фронтга жўнатилди.

Ундан ташқари фабрика жамоаси 80 кун ичида 8000 метр газламани тежаб фронтдагиларнинг оиласларига 20 та болалар костюми, 17 та телегрейка, 100 та момик одеял, матрас ва чойшаблар тайёрлаб бердилар.

Уруш йилларида фронт учун маҳсулот ишлаб чиқаришда Бухоро шаҳридаги “Индлошка” оёқ кийимлар фабрикаси, вино заводи, қоракўл терисига ишлов берувчи қоракўл кўнчилик заводлари ҳам ўзларининг фронт эҳтиёжларини қоплаш мақсадида ишлаб чиқарган маҳсулотлари билан ғалабага ўзларининг муносиб улишларини қўшдилар.

Қоракўл заводи Бухоро шаҳрида жойлашган бўлиб у ҳам ҳарбий ҳолатга ўтди. Заводи ишчилари бир кунлик режа топшириқни 1941 йил 26 июнда 162, фоиз, 27 июнда 157 фоиз, 28 июнда эса 186,6 фоиз қилиб бажарди.

Иккинчи жаҳон уруши йилларида Самарқанд обlastida ҳам 195 та саноат корхонаси ва уч мингдан ортиқ майдага корхона фаолият кўрсаган бўлиб уларнинг аксарияти енгил ва озиқ овқат саноати корхоналари эдилар. Уларда жаъми 17,3 минг ишчи ишлар эди. Ҳамма корхоналар 1941 йили нарх билан ҳисоблаганда йилига 926,5 миллион сўмлик саноат маҳсулоти ишлаб чиқарар эди. Самарқанд обlastida ишлаб чиқарилаётган жаъми саноат маҳсулотнинг 53 фоизини озиқ-овқат саноати корхоналари, 31 фоизини тўқимачилик корхоналари (шу жумладан, пахта тозалаш заводи) берар эди. Областда ишлаб чиқарилган барча саноат маҳсулотида оғир саноатнинг улуши 11 фоизни, металга ишлов берувчи корхоналарнинг улуши 5 фоизни ташкил этган эди холос.

**Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Сирожов О. Ўзбекистон саноати уруш йилларида. –Тошкент: Ўзбекистон, 1981. –Б. 9.
2. Ўз МА, Р-88-фонд, 9-рўйҳат, 8258-иш, 37-варак.
3. Пўлатов И. Буюқ ғалабада Ўзбекистон ҳиссаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1974. –Б. 69.
4. Самарқанд тарихи. Иккинчи том (Масъул мухаррир И.М. Мўминов). – Тошкент: Фан, 1970. –Б.205.
5. Ўз МА, Р-88-фонд, 9-рўйҳат, 8298-иш, 41-варак.
6. Ўз МА, Р-88-фонд, 9-рўйҳат, 8298-иш, 103-варак.
7. Мадраҳимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг улуғ ватан уруши йилларидағи меҳнат ва ҳарбий жасоратлари. –Тошкент: Фан, 1981. –Б. 18.
8. Советская экономика в период Великой Отечественной войны 1941-1945 гг. –Москва: Наука, 1970. –С. 120.
9. Сирожов О. Бухоро фидоилари. Бухоро, 1995. –Б. 27-28.
10. Мирзақулов Б. Бухоро вилояти уруш йилларида (1941-1945). –Тошкент, 2020. –Б.60.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434438>

## ПОЛИКУЛЬТУРНАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Тажиева Юлдуз Сагидуллаевна

студентка 2-курса ТГПУ имени Низами

Миртурсунова Юлдуз Абдумаликовна

и. о. доцента ТГПУ

ТГПУ имени Низами

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемы обучения русскому языку младших школьников в условиях поликультурной среды. Дается определение модели поликультурного образования, излагаются принципы на которых базируется модель.

**Ключевые слова:** интерференция, поликультурная среда, принцип культурообразности, учащиеся-инофоны.

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ko‘p madaniyatli muhitda boshlang‘ich maktab o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatish muammolarini ko‘rib chiqadi. Ko‘p madaniyatli ta’lim modelining ta’rifi berilgan, model asos bo‘ladigan tamoyillar ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** интерференция, ко‘п madaniyatli muhit, madaniy muvofiqlik prinsipi, rus tili ona tili bo‘lmagan o‘quvchilar.

**Abstract.** This article examines the problems of teaching Russian to primary schoolchildren in a multicultural environment. A definition of the model of multicultural education is given, and the principles on which the model is based are outlined.

**Keywords:** interference, multicultural environment, principle of cultural conformity, foreign students.

На современном этапе реформирования системы образования Республики Узбекистан требует создания и осуществления новых подходов формирования языковых умений в поликультурной среде. Уникальность поликультурной среды многих регионов Узбекистана заключается в том, что вопросы языкового образования должны рассматриваться под углом межкультурной коммуникации. Поликультурная среда представляет собой межкультурное и межязыковое пространство, в котором взаимодействуют представители различных языков и культур, что требует регулирования культурно-языковых контактов.

Перед педагогом стоит задача способствовать тому, чтобы разные культуры мирно и плодотворно взаимодействовали в среде классного коллектива и страны в целом. Основу полиглантического образования составляют гуманитарные дисциплины. Наиболее эффективный путь включения детей в родную этнокультуру – это изучение языка и литературы. Язык есть не только средство общения и выражения мысли, но и аккумуляция ценностей культуры. В условиях поликультурной среды русский язык преподается в качестве обязательного общеобразовательного предмета в школах Узбекистана и как родной, и как неродной язык.

Уроки развития речи наиболее благоприятны для достижения цели воспитания толерантности в поликультурном образовательном пространстве. Для изложения учащимся можно предложить тексты произведений русской литературы, раскрывающие традиции, обычаи, особенности религии народов Узбекистана.

Модель поликультурного образования младших школьников в процессе изучения иностранного языка, состоящая из целевого, содержательного, организационно-процессуального и аналитико-оценочного компонентов, включающих в себя: цель (поликультурное образование младших школьников), задачи (формирование знаний о культуре стран изучаемого языка; развитие стремления к изучению иностранного языка; воспитание толерантного отношения к представителям иноязычной культуры), содержание предмета и его

культурный потенциал (языковые знания, знания национальной культуры, межкультурные знания), принципы, на которых базируется процесс поликультурного образования (принцип дидактической культурообразности; принцип доминирования мультимедиа технологий при изучении культуроведческого / страноведческого материала, принцип аутентичности, принцип поликультурности), комплекс методов (практические, наглядные, методы стимулирования и контроля), форм (индивидуальная, фронтальная, групповая, самостоятельная работа; ролевые игры; инсценировка, драматизация) и средств учебной деятельности (аудио- и видеоматериалы с аутентичными записями; средства народной педагогики (сказки, игры, песни, поговорки, пословицы), мультимедийные программы), педагогические условия (организация учебного процесса на основе комплексного использования различных компонентов иноязычной культуры; оптимизация языкового материала с точки зрения информативности, компактности и аутентичности; включение в содержание образовательного процесса фактов культуры, посредством программы «Дети мира») и результат (наличие культурологических знаний о культуре страны изучаемого языка; стремление к изучению иностранного языка; толерантное отношение к представителям иноязычной культуры).

Вторичная языковая личность детей младшего школьного возраста сформирована недостаточно. На низком уровне сформированности оказываются знания особенностей родного и иностранного языков, особенностей родной культуры в поликультурной среде и культуры страны изучаемого языка, представления о национально-культурной специфике речевого поведения и реализация этих представлений в собственной межкультурной коммуникации. Расхождения в системах различных языков требуют внимания к тем грамматическим понятиям русского языка, которые будут являться для учащихся новыми, отсутствующими в их родном языке. У учащихся, для которых русский язык является неродным, при усвоении категории рода имен

существительных возникают трудности. Это объясняется тем, что в отдельных языках данная категория либо отсутствует, либо имеет существенные отличия в средствах выражения. Незнание рода имен существительных в русском языке приводит к ошибкам в согласовании подлежащего и сказуемого, прилагательных, порядковых числительных или отдельных разрядов местоимений с именами существительными.

Школьники-инофоны испытывают сложности и при употреблении форм множественного числа. Это может быть связано с тем, что в родном языке имеет место один способ образования формы множественного числа. Имена существительные множественного числа в русском языке имеют в одних случаях одинаковые, а в других — разные окончания. Особые затруднения у учащихся возникают, когда при образовании формы множественного числа в слове происходят фонетические изменения, например: чередование звуков (друг друзья), выпадение беглых гласных (день дни), перемещение ударения (окно — окна), образование формы множественного числа от другой основы (человек — люди). Трудность для учащихся-инофонов представляет и предложно-падежная система русского языка, что обусловлено многозначностью падежей, разнотипностью склонения, а также расхождениями в значении и употреблении падежей в русском и родном языках.

Проблемы возникают у учащихся и при усвоении видовременных форм глагола. Для повышения эффективности изучения морфологии в условиях поликультурной среды ознакомление с грамматическими понятиями необходимо осуществлять посредством ситуативно-тематической организации учебного процесса. Грамматический материал следует предъявлять с помощью речевых образцов (моделей), каждый из которых обладает конкретностью, предъявляется точно, непротиворечиво. Например: "Замени словосочетания одним словом по образцу: оказывать помощь — помогать; проявлять заботу — ..." При отборе грамматического материала учитываются этап обучения, степень знакомства с новым языком. На начальном этапе

обучения важно включать в учебный материал минимум грамматических явлений. Но этот материал должен содержать типовые явления, па основе которых учащийся обобщает, систематизирует разрозненные языковые факты, строит в своем сознании правила использования русского языкового материала в речи. Работа над новым грамматическим явлением должна проводиться на знакомой лексике. Задания должны быть насыщены такими языковыми единицами, которые частотно воспроизводятся в речи носителей русского языка в условиях естественной коммуникации. Для закрепления грамматических явлений на продвинутом уровне обучения используется сюжетный текст, в котором изучаемое явление встречается многократно. При изучении грамматики русского языка возможно непосредственное использование фактов родного для ребенка языка, сравнение грамматических явлений разных языков. Однако делать это необходимо небольшими фрагментами. Главная цель обратить внимание учащихся на многообразие языков, наличие в них универсального и отличного.

Сегодня задача анализа структуры поликультурной среды, ее содержания и механизмов функционирования выходит на первый план. В этой связи понятие «обучение языкам» постепенно вытесняется понятием «обучение языку и культуре», которое предполагает у ребенка способности активно участвовать в межкультурной коммуникации.

### **Использованная литература**

1. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования, Ростов, 2000
2. Корякина А.А. Роль поликультурного образовательного пространства в формировании толерантности/ Интернет-журнал «Мир науки». -2018.-Т 6.- № 6. <https://mir-nauki.com/PDF/35PDMN618.pdf>
3. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию,-2-е изд., -М.; Смысл, 2001

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434552>

## **JONATHAN SVIFTNING "GULLIVERNING SAYOHALTLARI" ASARIDA SAYOHALT TAASSUROTLARI VA YARATGAN OBRAZLAR XARAKTERI**

**G‘affarova Gulbahor**

**Yarasheva Mashhura**

Termiz davlat universiteti talabalari

*Annotatsiya: Mazkur maqolada Jonatan Swiftning Gulliverning sayohatlari asaridagi obrazlar xarakterini boricha gavdalantirib, voqeal-hodisalarning umumiy tasnifi hamda asarda tasvirlangan manzaralar xususida fikr yuritilgan.*

*Kalit so‘zlar: "Gulliverning sayohatlari"asari, sayohatlar, Liliput mamlakati, Brobdingnag oroli, Britaniya, Gyognmlar, satira.*

Jonathan Swiftning "Gulliverning sayohatlari" asari – XVIII asr ingliz adabiyotidagi eng mashhur va o‘ziga xos asarlardan biri bo‘lib, satirik, sarguzasht va fantastik elementlarni o‘zida mujassam etgan. Bu asar orqali Swift o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy masalalarini keskin tanqid qilgan. Asar Gulliverning to‘rtta turli mamlakatga bo‘lgan sayohatlari orqali inson tabiatining ijobiy va salbiy tomonlarini ochib beradi. Har bir mamlakatda uchraydigan obrazlar orqali Swift odamlar xarakteridagi kamchiliklar va ijtimoiy muammolarni ochib beradi.

"Gulliverning sayohatlari"ning asosiy xususiyati – uning kuchli satirik asar ekanligida. Swift asar orqali Britaniya jamiyatidagi, xususan, hukumat, qonunchilik, ilm-fan va harbiy sohalardagi kamchiliklarni tanqid qiladi. Misol uchun, Lilliput oroliga qilgan sayohatida Swift kichik odamlar orqali hokimiyatdagi kichik tafakkur egalari va mayda qonunlarni masxara qiladi. Swift asar orqali ko‘pincha o‘quvchini kuldiradi, lekin shu orqali u jamiyatdagi illatlarni fosh etadi. Swift o‘z davrida tarqalgan

jamiyatdagi muammolarni tanqid qiladi. Misol uchun, Brobdingnag oroliga sayohatda u Britaniya monarxiyasini va harbiy siyosatni tanqid qiladi. Bu orolda gigant odamlar yashaydi va ular odamlarga o‘z ko‘zi bilan tikilib qaray olishadi, bu esa kichik Britaniya va uning katta ambitsiyalarini nazarda tutadi hamda ular insoniyatning axloqiy va ma’naviy jihatlarini ko‘zga yaqqol ko‘rsatadi. Gulliver ulkan odamlarning jamiyatida o‘zini kichik va zaif his qiladi, bu esa odamzodning arzimas xatti-harakatlarini ulkan ko‘rinishda namoyon etadi. Ushbu obrazlar orqali Swift odamlarning manmanligi va kuchga bo‘lgan ortiqcha ishonchini tanqid qiladi. Gulliverning sayohatlarida muhim falsafiy va axloqiy masalalar ko‘tariladi. Masalan, Gulliverning Gyognmlar oroliga qilgan oxirgi sayohatida Swift inson va hayvonlar o‘rtasidagi chegarani o‘rganadi. Bu orolda aqli otlar yashaydi, ular insoniyatdagi illatlarni, ayniqsa tamagirlilik va manmanlikni fosh qiladi. Shu bilan Swift inson tabiatini qattiq tanqid qiladi va axloqiy jihatdan mukammallikka intilish kerakligini anglatadi.

Asarda Swift fantastik va sarguzasht elementlardan foydalanib, qiziqarli obrazlar yaratadi. Gulliverning sayohatlari davomida duch kelgan turli xil xalqlar – Lilliputlar, Brobdingnaglik gigantlar, Laputa orolining aqli ahonisining xarakterlari orqali jamiyatdagi turli tiplarni ko‘rsatadi. Bunday fantastik tasvirlar o‘quvchini bir vaqtning o‘zida o‘ziga jalb qiladi va chuqur mulohazaga undaydi. Asar davomida Gulliverning xarakterida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Avvaliga u sayohatdan ilhomlangan sarguzashtparast odam bo‘lsa, oxiriga borib u hayotga, odamlar va jamiyatga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi. Xususan, Gyognmlar bilan tanishgach, u o‘zini jamiyatdan uzoqlashtiradi va odamlardan qochadi. Bu esa inson tabiatiga nisbatan chuqur tanqid va umidsizlikni ifodalaydi. Swift ushbu qiyos orqali insoniyatning axloqiy tanazzulini va o‘z instinctlariga bo‘ysunishini tanqid qiladi. Swift asari bir vaqtning o‘zida sarguzasht, sayohatnoma, falsafiy esse va satirik asar janrlarini birlashtiradi. Bu esa unga chuqur mazmun bag‘ishlaydi va o‘quvchilar orasida keng ommalashishiga yordam beradi. Swift o‘ziga xos yozuv uslubi va obrazlari orqali o‘quvchiga qiziqarli

sayohat davomida ham qiziqarli syujet, ham mazmunli axloqiy va falsafiy xulosalarni taqdim etadi.

Umuman olganda, "Gulliverning sayohatlari" – zamonamizda ham muhim ahamiyatini yo‘qotmagan asar bo‘lib, uning o‘ziga xosligi satirik ifoda uslubi, fantastik dunyo yaratilishi va chuqur ijtimoiy, falsafiy masalalarining yoritilishi orqali namoyon bo‘ladi. Swift o‘z davridagi illatlarni keskin tanqid qilgan va shu bilan birga o‘quvchini insoniyat haqida chuqur o‘ylashga undagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo‘ldasheva Ma’mura Boqijonovna Gulliverning sayohatlari asaridagi atamalar tasnifi-2020 maqolasi
2. Jonatan Swift, Gulliverning sayohatlari Oksford universiteti nashriyoti, 2005, 165-166-betlar.
3. SH Yakubova, M Suyunova JONATAN SVIFTNING “GULLIVERNING SAYOHATLARI” ASARLARIDA SAFAR MOTIVI TALQINI maqolasi
4. Yusupova Shodiyona Dilshodovna, Mardonova Bahora Golibjon Kizi, Usarova Laylo Ibragimovna JONATAN SVIFTNING “GULLIVERNING SAYOHATLARI” ROMANIDAGI OBRAZLAR TAHLILI maqolasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434670>

## HARBIY JAMOADA LIDERLARNI ANIQLASHNING ISTIQBOLLI IMKONIYATLARI

**Sherzod Xasanovich Xudayberdiyev**

Markaziy harbiy okrug boshqaruv apparati

Jangovar tayyorgarlik boshqarmasi bo‘lim katta ofitseri

Oriental universiteti magistranti

Mayor

**Shaxzod Salom o‘g‘li Samadov**

13060 harbiy qism vzzvod komandiri kapitan

*Annotatsiya. Harbiy jamoalarda liderlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu faqat jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun emas, balki jamoaning moral holatini saqlash va uning strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun ham zarurdir. Shuning uchun, harbiy tashkilotlar uchun liderlarni aniqlash va ularning salohiyatini to‘g‘ri baholash istiqbolli imkoniyatlarga ega.*

*Annattosia. Leaders is essential in military teams, not only for the successful completion of combat missions, but also for maintaining the morale of the team and the implementation of its strategic goals. Therefore, identifying leaders and correctly assessing their potential has promising opportunities for military organizations.*

**Kalit so‘zlar:** harbiy jamoa, liderlar, harbiy xizmatchilar, motivatsiya psixologik baholash, liderlik ko‘nikma, hulq-atvor.

### **Kirish**

Liderlik, ayniqsa harbiy jamoalarda, muvaffaqiyatli missiyalarni amalga oshirish va jamoaning motivatsiyasini saqlash uchun muhim faktor hisoblanadi. Harbiy liderlarni aniqlash jarayoni nafaqat jangovar malakalar, balki psixologik xususiyatlar,

qaror qabul qilish qobiliyati, ijtimoiy ko‘nikmalar va strategik fikrlashni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullarni qo‘llash orqali bu jarayonni yanada samarali va tezkor amalga oshirish mumkin. Ushbu maqolada harbiy jamoada liderlarni aniqlashning istiqbolli imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

### **Liderlikning asosiy roli**

Harbiy jamoalarda liderlik nafaqat jangda, balki jangdan tashqari vaziyatlarda ham muhim rol o‘ynaydi. Liderlar, harbiy xodimlarning motivatsiyasini saqlash, aniq va tezkor qarorlar qabul qilish, va samarali jamoa ishini ta’minlash kabi mas’uliyatlarga ega. Ularning qarorlari jamoaning natijalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun liderlarni tanlash va baholashda yanada kompleks yondashuv zarur.

### **Psixologik va ijtimoiy baholash**

Liderlikni aniqlashda psixologik baholash juda muhim ahamiyatga ega. Harbiy tashkilotlar, xodimlarning stressga chidamliligini, qaror qabul qilish qobiliyatini va ularning jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlarini aniqlash uchun psixologik testlar va intervylarni qo‘llashadi. Bu jarayonlarda shaxsiyatning o‘ziga xos xususiyatlari, masalan, mustahkamlik, empatiya va liderlik ko‘nikmalari alohida e’tiborga olinadi.

### **Texnologiya va sun’iy intellektdan foydalanish**

Zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt (SI) yordamida harbiy jamoalarda liderlarni aniqlash jarayoni sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, xulq-atvorni modellashtirish va ehtimoliy liderlik xususiyatlarini bashorat qilish uchun sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish mumkin. Bu metodlar yordamida liderlarni aniqlash yanada tezroq va aniqroq amalga oshiriladi, shuningdek, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi.

### **Simulyatsiyalar va treninglar**

Harbiy jamoalarda simulyatsiyalar va maxsus treninglar orqali harbiy xizmatchilarning liderlik ko‘nikmalari sinovdan o‘tkaziladi. Bu treninglar real jangovar sharoitlarni taqlid qilgan holda, liderlik salohiyatini aniqlash va

rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, bu jarayonlarda jamoa ichidagi muvofiqlik, stressga chidamlilik va qarorlar qabul qilish tezligi ham baholanadi.

### **Mentorlik va tajriba almashish**

Mentorlik tizimi harbiy jamoalarda liderlarni aniqlash va ularning salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tajribali rahbarlar yangi yetakchilarni yo‘naltirib, ularga o‘z bilimlarini va tajribalarini o‘rgatadilar.

Bu tizim orqali yosh harbiy xizmatchilar tezda rivojlanib, kelajakdagi liderlik salohiyatlarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

### **Xulosa:**

Harbiy jamoalarda liderlarni aniqlashning istiqbolli imkoniyatlari kengaymoqda. Psixologik baholash, zamonaviy texnologiyalar, simulyatsiyalar, va mentorlik tizimlari yordamida samarali liderlarni aniqlash mumkin. Bu jarayonlarda ilg‘or ilmiy yondashuvlar va innovatsion metodlar harbiy jamoalarning samaradorligini oshirishi mumkin. Shuningdek, psixologik, ijtimoiy va texnologik baholashlarning birlashishi, harbiy jamoalarda yuqori darajadagi liderlikni shakllantirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. Bass, B. M. (1990). Bass & Stogdill's Handbook of Leadership: Theory, Research, and Managerial Applications. Free Press.
2. Northouse, P. G. (2018). Leadership: Theory and Practice. Sage publications.
3. Zaccaro, S. J. (2007). Trait-based perspectives of leadership. American Psychologist, 62(1), 6-16.
4. Avolio, B. J., & Kahai, S. S. (2003). Adding the “e” to e-leadership: How it may impact your leadership. Organizational Dynamics, 31(4), 325-338.
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company.

6. Cannon-Bowers, J. A., & Salas, E. (2001). The science of training: A decade of progress. *Annual Review of Psychology*, 52(1), 341-372.
7. De Gieter, S., & Wouters, K. (2005). The development of leadership competencies: Lessons learned from military training. *Leadership & Organization Development Journal*, 26(7), 395-404.
8. Kram, K. E. (1985). *Mentoring at work: Developmental relationships in organizational life*. Glenview, IL: Scott, Foresman.
9. Scandura, T. A. (1998). Mentorship and career mobility: An empirical investigation. *Journal of Organizational Behavior*, 19(8), 119-136.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14434747>

## THE MAKING OF NICKNAMES AND PSEUDONYM THROUGH WORD-MAKING TOOLS

**Obidova Azizaxon Davronboy qizi,**

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

E-mail address: [obidovaaziza61@gmail.com](mailto:obidovaaziza61@gmail.com)

Rus adabiyotining ulkan namoyandalaridan biri Fyodor Dostoyevskiy o‘z ichki dunyosi bilan kurashuvchi, ijtimoiy adolatsizliklar qurbaniga aylangan kishilar taqdiri haqida hikoya qilinuvchi asarlari bilan kitobxonlar qalbidan joy egallagan. Uning “Jinoyat va jazo” romani 1866-yilda Rossiyada “Russian Bulletin” jurnalida nashr etilgan bo‘lib, bir yil o‘tgach biroz o‘zgartirilishlar kiritilib, kitob holida chop etilgan. Bugungi kunda 100dan ortiq tilga tarjima qilingan. Asarda qonuniy jazo emas ruhiy jazoning og‘riqli, dahshatli ekanligi muallif tomonidan mohirona yoritib berilgan bo‘lib, roman realizm uslubida yozilgan va o‘z zamirida achchiq haqiqatlarni jamlaganligi sababli kitobxon shuuriga singib ketadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, asar chop etilgach, uni mutolaa qilish uchun insonlar tarjima qilinishi kutishga emas balki rus tilini o‘rganishga kirishishgan ekan.

Asar voqealari 1860-yilda Sankt-Peterburgning kambag‘allar yashovchi qismida sodir bo‘ladi. Bosh qahramon talaba Rodion Romanovich Raskolnikov qilgan jinoyatini bilishmasidan burun jazolangan edi. U o‘zini o‘zi jazolaydi, ruhan og‘irlik,

ma’naviy ezilishni boshidan o’tkazadi. Aslini olganda u Alyona Ivanovnani o‘z xohishi yoki jinoyat a’zosiga aylanganligi uchun emas balki moddiy tomonlama qiynalganligi uchun ham o’ldiradi. Bu romanda ham “Yevgeniy Onegin”, “Makr va muhabbat” asarlaridagi kabi maktub motivi mavjud. Unga onasidan kelgan xat qotillik qilishiga turtki bo‘ladi, yovuz, sudxo‘r kampirni o’ldirish niyatini kuchaytiradi, chunki unda singlisini tuhmat toshlari ostida qolganligi, moddiy tomonlama ehtiyoj ko‘rmaslik va Raskolnikov universitetni tugatishi uchun moliyaviy yordam ko‘rsatishiga umid qilib yoshi katta Lujinga turmushga chiqayotganligi bayoni bor edi. Raskolnikov aslida jinoyat odami emas, u qotillikka qo‘l urganidan so‘ng olgan pullarni ham ishlatmaydi, o‘zini ruhan azoblab yuraveradi, dahshat bilan o‘zi va boshqa odamlar orasida begonalashuvni his qiladi, biroq jahon adabiyotining yana bir namoyondasi Alber Kamyuning “Begona” romanı qahramoni Merso arablarni otib qo‘ygach hech qanaqa hisni tuymaydi, aybdorlik unda sezilmaydi, va uning holati haqida: **“Jilla qurmasa, u afsus qilyaptimi? Go‘yo hech narsa bo‘lmaqanday! Tergov davom etgan shuncha vaqt ichida biron marta bu odamning o‘z qilmishiga sal-pal bo‘lsa ham pushaymon bo‘lganini eshitmadik”**(99b) degan fikrlar beriladi. Asarning yana bir qahramoni Sonya oilasini qashshoqlikdan qutqarish uchun faxsh yo‘lini tanlaydi, aslida bu ikki qaharmonning asardagi holati o‘xshash bo‘lib, yo‘qchilik ularni qing‘ir yo‘llarga yetaklaydi. Sonyaning bu qo‘ygan qadami F. Shillerning “Makr va muhabbat” asaridagi otasini qutqarish uchun sevgisidan kechish maqsadida soxta xatga imzo chekkan Luizani eslatса, Luizaning Volter bilan nikoh qurishiga otasi Millerning ko‘zi yetmasa-da onasi ularni birga bo‘lish tarafdori bo‘ladi, sababi Volter prezidentning o‘g‘li, u orqali muammosiz hayot kechirish mumkin edi, “Jinoyat va jazo” romanida esa Katerina Ivanovna Sonyani boshi berk ko‘cha tomon yetaklagan asosiy qahramon edi.

Jahon adabiyotidagi ko‘plab asarlarda ota obrazi befarq, xiyonatkor, o‘zini o‘ylovchi shaxs sifatida gavdalantirilgan, biroq o‘zbek adabiyoti bu tomonlama undan faqlidir. Masalan, Abduqayum Yo‘ldoshevning “Puankare” asari qahramoni o‘z oilasini boqish uchun tinim bilmay bir nechta joylarda hatto kechqurunlari ham

ishlaydi, u ayoli, farzandlaridan mehr ko‘rmasa-da, ro‘zg‘orini kam-ko‘stsiz qilish uchun harakat qiladi. Ichkilik sabab oilasiga e’tiborsiz bo‘lib qolgan Marmeladov obrazi esa bizga G. Floberning “Bovari xonim” romanidagi Charlzning farzand tarbiyasiga e’tiborsiz bo‘lgan otasi, Jeyms Joysning ‘Navqiron san’atkorning siyrati” asaridagi pul qadrini bilmaydigan, butun oila qashshoqlashib borayotganda ham befarqlik qilayotgan ota obrazini esga soladi. Marmeladovda oilaga befarqliknii ko‘rayotgan bo‘lsak, Marfa Petrovnaning turmush o‘rtog‘i Svidrigaylov bolalari uchun enaga bo‘lgan Dunyani ishrat yo‘liga taklif etib, xiyonatkor ota timsolida gavdalanadi.

Bilamizki, asar nomlari uning mavzu ko‘lamidan kelib chiqib tanlanadi, masalan, Alber Kamyuning “Begona” asari qahramoni Merso aslida o‘ziga begona edi, Tolstoyning “Tirilish” romani qahramoni Nexlyudov esa Katerina Maslovaga yordam berish orqali ancha o‘zgarib, o‘z vijdonini poklagan, qaytadan tug‘ilgan edi, Dostoyevskiyning asarini “Jinoyat va jazo” deb nomlanishi esa majoziy ma’noda bo‘lib, aslida qotillikning jazosi Raskolnikov kechirayotgan vijdon azobi, ma’naviy zarbalar edi. Uning iztirobli kunlarini Nexlyudov hayotiga ham o‘xshatish mumkin. Dmitriy Ivanovich Maslovani sud zalida ko‘rgach, uning faxsh yo‘liga kirishi, yosh umrini xazon bo‘lishida o‘zini ayblab, unga yordam berib, uni oqlash uchun bor vujudi bilan harakat qiladi va bu yo‘lda bir necha bor vijdoni bilan yuzlashadi. Ikki ijodkorning asarlari yakuni o‘xhash bo‘lib, Maslova hamda Raskolnikov jazo o‘tash maqsadida surgun qilinishganda Nexlyudov Katerina, Sonya Raskolnikov bilan birgalikda ketadi. Sonya ota-onasidan ayrılganligi, uni ushlab turuvchi kishilar bo‘lmanligi uchun ham bu hayot yo‘lini tanlasa, Dmitriy Ivanovich Katyushaga yordam berish, uni oqlash hamda uylanish maqsadida u bilan ketadi. Aslini olganda Rodionning Sibirga surgun qilinishi xotima emas, u qilgan qotilligi bilan jamiyatni unga zarar ko‘rsatayotgan, qari bo‘lsa-da hatto singlisini zir titratadigan bir sudxo‘r ayoldan qutqarishi va shu orqali yurtdagi jirkanch illatlarni ochib berishi haqiqiy yakunlovchi qismdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ushbu roman faqatgina bir jinoyat hikoyasi emas, balki insonning o‘z-o‘zini o‘rganishi, ijtimoiy adolatsizliklar va axloqiy

masalalar haqida chuqur fikr yuritishga undaydigan muhim asardir. Romanni o‘qish, har bir kitobxon uchun o‘zini tanish va insoniyatning murakkab qirralarini tushunishga yordam beradi, inson tabiatini va uning qiyinchiliklariga qaratilgan chuqur bir asar sifatida o‘qishga imkon beradi. Raskolnikovning ruhi, jinoyatdan keyin juda murakkab holatga keladi. U, ichki iztiroblarini, ayblov va taqsimlangan hissiyotlarini izlaydi. Roman, shuningdek, ijtimoiy muammolarni ham yoritadi. Yuqorida aytilganidek, Dostoyevskiy Rossiyaning o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tanqidiy mulohaza qiladi va o‘z asaridaadolatsizliklar, odamlarning ruhiy holatidagi qiyinchiliklarni namoyon etadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.** Dostoyevskiy F.M. “Jinoyat va jazo”(roman): G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. – Toshkent, 1977
- 2.** Alber Kamyu. “Begona”. Yangi asr avlod, 2014.
- 3.** Qosimova S. “Jinoyat va jazo” romani tahlili va roman syujetining psixologik tabiatini(maqola): XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta’lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar.
- 4.** Ostonova Sh. Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asaridagi falsafiy va diniy mavzular(maqola): Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari.
- 5.** Abdurahmonova G, Hafizova F. “Jinoyat va jazo” asarida qahramon ruhiyatining badiiy ko‘lami(maqola): Eurasian journal of academic research.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504361>

## GYUSTAV FLOBERNING “BAVARIXONIM” ROMANINING QIYOSIY TAHLILI

**Temirova Mahliyo Munisovna**

**Maxramova Feruza Namatovna**

TerDu o‘zbek filologiya fakulteti talabalari

**Annotatsiya:** Gyustav Floberning "Bavarixonim" romanining kelib chiqish tarixi va tahlili. Romanga o‘xshash romanlarning qiyosiy tahlili. G. Flober va Tolstoy, Ch. Aytmatovlarning asarlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar.

**Kalit so‘zlar:** G. Floberning "Bovari xonim", L.Tolstoyning "Anna Karanina", Ch. Aytmatovning "Jamila", realizm, naturalizm.

XIX asr fransuz realizmi rivojlanishining ikkinchi bosqichi (1850–1870-yillar) Flober nomi bilan bog‘liq. Yozuvchi asosan 1857-yilda yozilgan "Bovari xonim" romani bilan shuhrat qozondi. Flober rus yozuvchilari I. Turgenev, L.Tolstoy bilan yaqin ijodiy aloqada bo‘lgan edi. Ijodi Rossiyadagi adabiy jamoatchilik diqqatini ham o‘ziga tortdi. Yozuvchi o‘ziga xos asarlari bilan jahon adabiyotida realizm taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shdi. Flober badiiyatining fransuz va jahon adabiyotiga ta’siri katta. Ko‘pchilik adabiyotshunoslar uni Balzakning realistik an’analari davomchisi deb hisoblaydi. "Bovari xonim" romani esa Floberning dunyoqarashi va estetik tamoyillarini aks ettiruvchi ilk muvaffaqiyatli asari sifatida jahon adabiyotidan munosib o‘rin egalladi. Yozuvchi ushbu asar ustida besh yil ishlagan edi. 1851-yilning kuzida Flober "Bovari xonim" romanining birinchi syujetini yaratdi. Flober u tasvirlayotgan manzara – burjua dunyosining manzarasi uning umidsizligi bilan ifodalananashini aytib o‘tgan edi. Roman ustida ishlayotgan Flober "o‘ylaymanki,

kitobxonlar birinchi marta o‘z qahramonini masxara qiladigan kitobni mutolaa qiladi”, deb yozadi. Roman ilk bora Parijdagi Revue adabiy jurnalida 1856-yil 1-oktabrdan 15-dekabrgacha nashr etildi. Roman nashr etilgandan so‘ng yozuvchi axloqni buzish haqida asar yozganlikda ayblandi va jurnal muharriri bilan birgalikda 1857-yil yanvar oyida sudga tortildi. Ammo asarning katta shon-shuhrati uni ommalashtirdi va 1857-yil 7-fevraldagi oqlov romanni o‘sha yili alohida kitob sifatida nashr etishga imkon berdi.

Romanda adabiy naturalizmning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Floberning odamga nisbatan shubha bilan qarashlari uning asarlarida ijobiy qahramonlar yo‘qligida namoyon bo‘ldi. Bugungacha Flober Fransiyaning uch buyuk realistlaridan biri sifatida baholanib kelinmoqda. Fransuz realizmi taraqqiyotida Floberning faoliyati Balzak va Stendalning asarlari singari muhim bosqichdir. 2007-yilda taniqli mualliflar orasidagi so‘rovnoma ga ko‘ra, “Bovari xonim” romani o‘z davrining eng katta ikki romanidan biridir. Turgenev bir vaqtlar romanni “butun adabiy dunyodagi eng yaxshi asar”, deb aytib o‘tgan edi. Roman asosida bugungi kungacha Jan Renuar, Vinsent Minnelli, Aleksandr Sokurov, Klod Shabrol va boshqalar tomonidan filmlar suratga olingan.

Flober, o‘z asarlarida inson hayotining murakkabligini va zamonning ijtimoiy sharoitlarini aks ettirishga harakat qildi. U har bir voqeя va personajni real hayotdan olishga intildi. Flober detallarni juda aniq va intensiv ravishda tasvirlaydi. U yozuv jarayonida qahramonlarning hissiyotlariga va fikrlariga e’tibor berishi, ularni realistikroq qilish uchun muhim ahamiyatga ega. U har doim savodxonlik va maqbul uslubni saqlab qolishga harakat qilgan. Floberning tili juda nazokatli va uyg‘un bo‘lib, u ko‘plab adabiy uslublarni o‘z ichiga oladi.

Roman Emma Bovari ismli yosh ayolning hayoti atrofida aylanadi. U o‘z hayotidan qoniqmaydi va romantik g‘oyalar, sevgi va ishq nazaridagi idealizatsiya bilan hayol qiladi. Emma qishloq shifokori Charle Bovari bilan turmushga chiqadi, lekin uning hayoti tez orada harakatlanuvchini va qiziqarli bo‘lmaydi. U o‘z hayotidagi bo‘shliqlarni yo‘qotish uchun boshqa erkaklarga, ayniqsa Rodolphe va Léon kabi

ishqiy aloqalarga kiradi. Emma o‘z sevgisi va romantik aloqalarini topishga harakat qiladi, lekin har doim bir xil natijalarga erishadi – umidsizlik, baxtsizlik va o‘zining ichki to‘sqliari. O‘zini yengish va o‘zi haqidagi illuziyalardan voz kechish o‘rniga, u qarzlar ichiga tushadi va nihoyat o‘zining baxtsizliklariga olib keluvchi yo‘lni tanlaydi. Emma Bovari romanining markazida o‘zining romantik idealizmini hayot haqiqati bilan to‘silda duch kelishi o‘rganiladi. U haqiqiy hayotdagi baxtni topa olmaydi. Flober romanida 19-asr fransuz jamiyatini keskin tanqidiy nuqtai nazardan ochib berishga muvaffaq bo‘ladi. U qishloq hayotidagi oddiy insonga nisbatan ma’naviy va iqtisodiy qiynalishlarni ko‘rsatadi. Emma Bovari ayollarning hayoti, ijtimoiy roli va qiyinchiliklari to‘g‘risida muhim savollarni ko‘taradi. Uning shakllanishi va kuchayishi o‘zining xohishlariga ko‘ra o‘zini o‘zgartirishga zaruriyat yo‘lida kechadi, lekin oxir-oqibat dastlabki orzularining o‘zini bo‘sh to‘ldiradi. "Bovari xonim" asari o‘zining chuqur psixologik tahlili, zamonaviy yondoshuvi va ifodalangan hissiyotlar bilan adabiyotda katta ta’sir ko‘rsatgan. Flober o‘zining aniq va o‘ziga xos uslubi bilan o‘z asarlarini shakllandı, va bu asar zamonaviy roman janrining tug‘ilishi uchun asos bo‘ldi. Bugungi kunda "Bovari xonim" hali ham dunyo adabiyotida eng muhim asarlardan biri sifatida tan olinadi.

"Bovari xonim" asari bilan o‘xshash asar "Anna Karenina" - Lev Tolstoyning asari bo‘lib,bu roman ham qahramonning shaxsiy hayoti, sevgi va baxtsizliklarini o‘rganadi. Anna Karenina, o‘zidayuq, jilovlanmaydigan orzular va haqiqiy hayot o‘rtasidagi ziddiyatni his qiladi, bu Emma Bovari bilan parallel ravishda o‘rganilishi mumkin.

Ch.Aytmatovning "Jamila" asari va G.Floberning "Bovari xonim" asari orasida bir qator o‘xshashliklar mavjud. Har ikkala asarda qahramonning ichki ruhiy holati va tasavvurlari muhim o‘rin tutadi. Emma Bovari o‘z hayotidagi muammo va qoniqmasliklarni his qiladi, Jamila esa sevgisi va o‘zining ijtimoiy mavqeい o‘rtasida kurashadi. Ikkalasi ham o‘z orzularidan, sevgilaridan va o‘z hayotlaridan qoniqmaydilar. Ikkala asarda ham romantik tuyg‘ular bilan ijtimoiy qonunlar o‘rtasidagi ziddiyat ko‘rsatiladi. Emma Bovari o‘z sevgisining romantiq idealizmi

bilan real hayotdagi muammolar o‘rtasida kurashadi. Jamila esa, o‘z orzulari va sevgisi sababli o‘zini ijtimoiy muammolaridan qochishga harakat qiladi. Har ikkala asar ham taqdir va insoniyat fojiasidan bahs etadi. Emma Bovari va Jamila o‘z hayotini o‘zgartirish uchun kurashsa ham, ular oxir-oqibat o‘z taqdirlaridan qochib qutula olmaydilar. Ularning hayoti, atrof-muhit va ijtimoiy sharoitlarning ta’siri ostida shakllanadi. Ikkala asar ham mahalliy madaniyat va an’analarni hisobga oladi. "Bovari xonim" fransuz jamiyatining ijtimoiy strukturasi va madaniyatini aks ettirsa, "Jamila" Qirg‘izistonning an’ana va urf-odatlarini ifodalaydi.

"Bovari xonim" g‘oyalari, qahramonning hayoti davomida sodir bo‘lgan voqealar va ularning chuqur tajribasi, modernizm va realizm janrlarining birinchi misollaridan biridir. Asar, shuningdek, adabiyotda yangicha yondashuvni ishlab chiqishga yordam berdi. Ushbu roman, ijtimoiy tanqid, psixologik tahlil va insoniy his-tuyg‘ularni chuqur o‘rganish orqali adabiyotda birinchi navbatdagi ahamiyatga ega. Flaubertning ushbu asari, adabiy tarjimalar, sahnalashtirishlar va o‘qishlar orqali hamon muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G. Flober " Bovari xonim" Ziyo Toshkent 2022-yil
2. Lev Tolstoy "Anna Karenina" G‘afur G‘ulom nashriyoti Toshkent 1980.
3. Ch. Aytmatov " Jamila" G‘afur G‘ulom nashriyoti Toshkent 2005
4. Uzoq Jo‘raqulov, Komiljon Hamroqulov "Qiyosiy adabiyotshunoslik" Toshkent 2024

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504368>

## "GULLIVERNING SAYOHALTLARI" ASARINI QIYOSIY O'RGANISH

**Karimova Xonzoda**

**Eshpo'latova Munavvar**

TerDU o'zbek filologiya fakulteti talabalari

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Jonatan Swift qalamiga mansub "Gulliverning sayohatlari" asari, shu asar bilan qiyoslash mumkin bo'lgan asarlar yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: ramziy roman, qiyoslash "Sayohatnama", "Robinzon Kruzo", Ezop masallari, O'zbek halq ertaklari.*

XVIII asrning buyuk ingliz yozuvchisi Jonatan Swift (1667-1745) o'zining "Gulliverning sayohatlari" satirik romani bilan dunyoga nom taratdi. Yozuvchi g'azab va ehtiros bilan yozgan bu kitobida o'zi yashagan davr –burjua dvoryan Angliyasidagi mavjud davlat tuzumi, ijtimoiy tartib va xulq-atvorlar ustidan qattiq kuladi, ularni qoralaydi. Yozuvchi hokim sinflarning tekinxo'r va munofiqligini, davlatmand shaxslarning toshbag'ir, qabih va hudbinligini fosh etadi. "Gulliver sayohatlari"dagi voqealar shunday ajoyib tizilganki, kitobxon asar qahramonining g'aroyib kechmishtalarini uzluksiz diqqat bilan kuzatadi, adibning jo'shchin fantaziyasidan zavqlanadi.

Atayin to'qilgan yolg'on narsalar haqida Swift shunday bemalol va rostgo'ylik bilan hikoya qiladiki, go'yo so'z hayotda har qadamda uchraydigan narsa va voqealar ustida borayotgandek tuyuladi. Gulliver hikoyalari shunday asosli va ishonarliki biz ham , xuddi Gulliver kabi, o'sha jimit odamchalarini, ular qurshagan butun muhitni aniq-ravshan ko'rayotgandek bo'lamiz.

Asar qahramoni Lemuel Gulliver, ma'lum bir sabablarga ko'ra sayohatga borishga qaror qilgan shifokor. Safarlari davomida u ajoyib sarguzashtlarni boshdan kechiradi va siz o'zingiznikidan mutlaqo farq qiladigan to'rtta o'ziga xos tsivilizatsiya bilan uchrashasiz. Safar talqiniga ba'gishlangan ushbu maqolada dengiz sayohati janrida qurilgan "Gulliverning sayohatlari" asarida mavjud sarguzashtlar sujetiga alohida e'tibor qaratildi. Öz davrida Angliyada mavjud bølgan ijtimoiy muammolar, davrning öziga xos xususiyatlari asarda alohida chizgilar bilan namoyon bøladi hamda asarda ekzotik mamlakatlar aholisi haqida gapirilib, muallif odamlarning salbiy fazilatlarini masxara qilish bilan ochib beradi.

Jonatan Swiftning "Guliverning sayohatlari" romanini ko'plab sayohat ruhidagi asarlarga o'xshatsak bo'ladi. Xususan, "Robinzon Kruzo" asari bilan o'xshash. Robinzon ham Gulliver singari sayohat qilishni juda yoqtirgan. Sayohatchilarimiz "adashib qolish" motivi bilan ham juda o'xshash. Robinzon sayohati davomida ajoyib xilqatlar bilan tanishib boradi, umrini ko'p yilini o'rmonda yashaydi. Gulliver ham sayohatchi bo'lib, kema halokati bilan turli mamlakatlarga borib qoladi. U ko'rgan ajoyibotlar hammasi g'ayrioddiy va jumboqqa ega edi.

O'zbek adabiyotida ham bunday asarlar uchraydi. Muqimiyning "Sayyohatnoma" asarida ham adib tomonidan har bir o'lka erinmay tasvirlangan. O'ltarma, Qo'shtegirmon, Do'rmoncha, Bo'rbaqliq, Roshidon kabi joylar tavsifi odamlarining xilqati ochib beriladi. "Guliverning sayohatlari" asarida ham har bir borgan joyining sharhi, tili, madaniyati haqidagi xulosalar mavjud.

Shuningdek, Ezop masallarida ramziy ma'noda hayvonlar orqali odamlarga ishora qiladi. "Guliverning sayohatlari" asari ham xuddi shu yo'sinda. Ramziy ma'noda ifodalash jihatida ikki asarni o'xshatishimiz mumkin O'zbek xalq ertaklarida safar syujetni harakatga keltirgan muhim motivlardan bo'lib hisoblanadi. Safar motivi, ayniqsa, sehrli-fantastik ertaklarda o'zi bilan bog'liq butun boshli yo'nalish markazida turadi. Maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarda ham muhim o'rin tutgan safar motivi qahramonni shakllantirish, faoliyatga undash va alal-oqibat murod-maqsadiga yetkazishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan g'oyaviy vositalardan sanaladi. Xalq

dostondarida safar motivi muhim ahamiyatga ega hisoblanib, safar bilan bog‘liq yo‘nalishlar ancha real bo‘ladi. Bu esa kelajakda ushbu tipdagi asarlarning jahon sayohatnoma janridagi asarlari bilan qiyosiy o‘rganishni taqozo etadi.

O‘zbek xalq ertaklarida safar syujetni harakatga keltirgan muhim motivlardan bo‘lib hisoblanadi. Safar motivi, ayniqsa, sehrli-fantastik ertaklarda o‘zi bilan bog‘liq butun boshli yo‘nalish markazida turadi. Maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarda ham muhim o‘rin tutgan safar motivi qahramonni shakllantirish, faoliyatga undash va alal-oqibat murod-maqsadiga yetkazishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyaviy vositalardan sanaladi. Xalq dostondarida safar motivi muhim ahamiyatga ega hisoblanib, safar bilan bog‘liq yo‘nalishlar ancha real bo‘ladi. Bu esa kelajakda ushbu tipdagi asarlarning jahon sayohatnoma janridagi asarlari bilan qiyosiy o‘rganishni taqozo etadi.

Romanda satira va hajvnining õziga xos xususiyatlari mavjud bõlib, uni birinchi falsafiy romanlardan biri deyishimiz ham mumkin. Asarbir vaqtning õzida turli xil shakllarni õz ichiga oladi: satira,fantaziya,utopiya,distopiya hatto siyosiy risola."Gulliverning sayohatlari" Jonatan Sviftni butun dunyoga mashhur qildi va dunyoga noyob qahramon berdi. Jahon klassikasi durdonasi bo‘lgan ushbu asarda sarguzasht va safar talqini bizda va kelgusi avlodda qiziqishini ortirishda davom etadigan motiv sifatida qarasak bo‘ladi. Ishimizni eng qiziqarli jihat shundaki bua sarda hali biz nazr solmagan so‘zlar va tahlil qilinmagan jihatlari anchagina.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jonatan Swift. Gulliverning sayohatlari. — Toshkent: SM1-AS1A, 2009
2. Muqimiyy. Bog‘ aro. T.: Akademnashr. 2010
3. Toshkanov S. O‘zbek adabiyotida satirik xarakter problemasi. T.:1987
4. Shachkova V. A. "Sayohat" fantastika janri sifatida: nazariya savollari // Nijniy Novgorod xabarnomasi
5. Mayga A. A. Adabiy sayohatnoma: janrning o‘ziga xos xususiyatlari // Filologiya va madaniyat. 2014 yil. No 3(37). 254–259-betlar. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=22939599> (kirish sanasi: 07/01/2018)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504376>

## O'QUVCHILARNING IJODKORLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Olimov Temurmalik Olim o‘g‘li**

O‘zbekiston Milliy Universiteti O‘ZMU Psixologiya(faoliyat turlari bo‘yicha)

II bosqich magistranti

E-mail:[temurmalikolimov@gmail.com](mailto:temurmalikolimov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mavjud bilimlar yuzasidan o‘quvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Bunda har xil trening mashg‘ulotlarining o‘rni hamda ularning qo’llanilishi bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, ayrim metodikalardan namunalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ijodkorlik, qobiliyat, pedagogik, o‘quvchi, ijodiy shaxs.

## ORGANIZING STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY

**Abstract:** This article provides information on the formation of creativity activity in readers on the available knowledge. This provides practical recommendations on the role of various training sessions as well as their application. Examples of certain methodologies are also given.

**Keywords:** creativity, ability, pedagogical, student, creative person.

## ОРГАНИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

**Аннотация:** В данной статье представлена информация по формированию творческой деятельности учащихся на основе имеющихся знаний. В нем изложена роль различных тренингов, а также даны практические рекомендации по их использованию. Также приведены примеры некоторых методов.

**Ключевые слова:** творчество, способность, педагогический, ученик, творческий человек.

## KIRISH

Qobiliyatlar muammosi, birinchi navbatda, umumiylar hamda barcha - fiziologiyadan tortib, to'kognitiv sohalarining e'tiborini talab qiluvchi kompleks psixologik muammo sifatida talqin qilinadi. Qobiliyatga rivojlanish natijasi sifatida qaraladi, u hayot davomida, ta'limga va tarbiya jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Ijodiy faoliyatning eng muhim determinantlariga ijodiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlar kiradi. «Mahsuldorlik» va «selektivlik» (avtonomlik) tafakkurning muhim tavsiflari deb tan olinadi. Mahsuldorlik deganda, fikrlash jarayonida obyektning yangi aloqalarda ishtirok etishi va yangi sifatlarda ishtirok etish qobiliyat tushuniladi, ular yangi tushunchaviy tavsiflarda qayd etiladi. Selektivlik deganda esa, ijodiy faoliyatni tashkil qilish tamoyillaridan biri sifatida ongli ravishda izlash sohasini cheklash nazarda tutiladi.

O'quvchilarning ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish hamda rivojlantirishda pedagogik psixologik jihatdan ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, uning ro'yobga chiqishida nazariy izlanishlar va amaliy faoliyatni to'g'ri tashkil etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlari, ularni ijodkorlikka o'rgatishning maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda ijodkorlik darslarini quyidagi tamoyillar asosida loyihalashtirish tavsiya etiladi.

- O'quvchining faoliyati undagi mavjud bilimlar doirasidan tashqariga chiqib keta olmaydi. Shuning uchun ularga avval bu asosiy bilimlarni ma'lum qilish, ularni loyihalashtirilgan, shu jumladan ijodiy mahsulotlarni yaratish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakaga o'rgatish lozim.

- Mashg'ulotlarni tashkillashtirishda o'quvchi uchun kerakli axborotni tanlay bilish lozim. Zero, yakuniy maqsadga qaratilmagan har qanday axborot maqsadga erishishni qiyinlashtiradi, ta'limga samaradorligini keskin pasaytiradi.

- Mehnatning ko'pgina turlarida o'quvchilar ilgarigi ishlaridan tanish bo'lgan ayrim ish elementlari, usul va qoidalari bilan uchrashadilar. Ular yangi materialni o'rganish chog'ida o'ziga ma'lum qoidalarni qo'llaydilar.

- O‘quvchi bir ishni bir nechta mashg‘ulotda katta qiziqish bilan bajarishi mumkin. Demak, unda mehnatga qiziqishni ushlab turish uchun ish turlarini tez-tez o‘zgartirib turish zarur.

- Maktab o‘quvchisi aksariyat hollarda katta yoshdagilarga taqlid qilishga intiladi. Boladan kattalar rahbarligisiz ijodiy va savodli ishni kutish qiyin.

O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda umumpedagogik prinsiplarga amal qilish lozim.

1.O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning foydali yo‘nalishi: O‘z ishidan ma’naviy qoniqishni ta’minalash.

2. Har bir o‘quvchining o‘z moyillari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tegishli buyumlarni ixtiyoriy va ongli ravishda tanlash.

3.O‘quvchilarning dars jarayoni ijodiy xarakterda bo‘lishi, mustaqil topshiriqqa ijodiy yondoshish.

4.O‘quvchilarning ijodkorlikini rivojlantirish ommaviy xarakterda bo‘lishi ya’ni ko‘pchilik o‘quvchilarni jalg qilish.

5.O‘quvchilarni individual xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olish lozim.

P.N.Andrianov o‘quvchilar ijodkorligi misolida ijodkorlik faoliyatini quyidagi bosqichlarga bo‘lib ko‘rsatadi:

- g‘oyani idrok etish va asoslash;
- topshiriqni texnik jihatdan ishlab chiqish;
- topshiriq (obyekt) ustida ishlash;
- obyektni ishda sinab ko‘rish va ijodiy yechim natijasini baholash.

Biroq, o‘quvchilarning ijodkorligi nisbatan soddaroq jarayon bo‘lganligi sababli keltirilgan bosqichlarni o‘quvchilarning ijodkorligiga, bevosita tadbiq qilib bo‘lmaydi. O‘quvchilarni mehnatga tayyorlashda ijodkorligini rivojlantirish yo‘llari pedagog olimlar tomonidan ko‘rsatib berilgan.

Ijodkorlik faoliyatida o‘quvchining psixologik xususiyatlari aqliy yaratuvchan, ixtiroga moyilligi, xohishi va bevosita qiziqishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda texnika taraqqiy etayotgan davrda bu muhim omillardan biridir.

Ijodkorlik faoliyatida qobiliyat muhim bir omil hisoblanadi lekin qobiliyat o‘zi nima?

Qobiliyat-shaxsning individual psixologik xususiyati bo‘lib, unga bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni o‘zlashtirilishining to‘liqligi, yengilligi, chuqurligi, hamda turli faoliyatni o‘zlashtirish va uni muvaffaqiyatli bajarishga bog‘liqligidir. Ijodkorlik qobiliyatları ijodkorlikda o‘quvchilarni psixologik xususiyatlarini ko‘rsatsa ularni jismoniy, aqliy fiziologik jihatdan buyumlarni, xar hil operatsiyalarni bajara olishi ularni rivojlantirish ijodkorlikda fiziologik xususiyatlarini o‘rganish texnologiya darslarida o‘qituvchining mahoratini ko‘rsatib beradi.

Ijodiy qibiliyatlar (kreativlik), ba’zi tadqiqotchilarining fikrlariga asosan (Dj.Gilford, K.Teylor, Ya.L.Ponomarev), umumiy qobiliyatlarga bog‘liq bo‘lmagan va ijodiy tafakkur va faoliyatni faollashtirish uchun zarur bo‘lgan mustaqil omil hisoblanadi. Ijodiy qibiliyatlar - bu birinchi navbatda:

1) egiluvchan tafakkur, bu hodisalar bir turidan boshqasiga tez va oson o‘tish qobiliyatini anglatadi;

2) tekshirishdan avval ko‘plab muqobillardan birini baholash, tanlash qobiliyatidir;

3) «birlashtirish» qobiliyati - ya’ni yangi qabul qilinayotgan ma’lumotni ilgari ma’lum bo‘lgani bilan birlashtirish, ularni mavjud bilimlar tizimiga kiritish qobiliyati;

4) osongina g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati. Shu bilan birga har bir g‘oya to‘g‘ri bo‘lishi shart emas;

5) boshlangan ishni oxiriga yetkazish qobiliyati. Bu yerda boshlangan ishni yakunlashga shunchaki qat’iylik, tirishqoqlik, tartiblilik va irodaviy kayfiyat emas, balki aynan har tomonlama puxta o‘ylab ishlab chiqish, me’yoriga yetkazish, dastlabki rejalarни takomillashtirishga qobiliyat nazarda tutiladi.

Aynan intilish noan’anaviy, nostandart yechimni topish, boshqalarning yordamisiz, mustaqil ravishda ilgari ma’lum bo‘lmagan natijaga erishishga intilish -

shaxsning butun tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim qobiliyati. Albatta, birgina mana shu sifat hisobiga ijodiy shaxs bo‘lib qolish mumkin emas: u bir qator boshqa, juda muhim sifatlar bilan birgalikda shakllanishi lozim. Ular orasida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: maqsadga erishishda qat’iylik, topqirlik, o‘ziga nisbatan talabchanlik va tanqidiylik, chaqqon fikrlash, dadillik va jasorat, g‘ayratlilik va boshqalar. Faqatgina maxsus va umumiy qobiliyatlarning yaxlit birligi natijasida ijodiy shaxs paydo boladi.<sup>1</sup>

Shunday qilib, o‘quvchilarining ijodkorligi ilmiy texnikaviy va umumta’lim fanlaridan olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularni tafakkurini rivojlantiradi, mustahkam mehnat ko‘nikmalari va malakalarini tarkib topishiga yordam beradi, rasionalizatorlik va ixtirochilikka o‘rgatadi, siyosiy bilim doirasini kengaytiradi. Shunday ekan, yosh avlodni ijodiy mehnatga o‘rgatish, uni o‘z zamonasining eng ilg‘or bilimlari bilan qurollantirish barcha davrlarda hamma xalqlar uchun eng dolzarb vazifa hisoblangan.

## METODOLOGIYA

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun pedagogik metodlar va mashqlarni qo‘llash o‘quvchilarining kreativ fikrlash va yangicha yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini oshiradi. Quyida ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi ba’zi metodlar va mashqlarni keltiraman:

### 1.Brainstorming (Ijodiy fikr yuritish)<sup>2</sup>

Tavsif: Bu metod o‘quvchilarga ko‘plab fikrlar yaratish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar biror muammo yoki vaziyat bo‘yicha birgalikda turli xil yechimlarni taklif qiladilar. Fikrlar tanqid qilinmasligi kerak, faqat ularga e’tibor qaratish muhim. Mashq: Guruhga biror mavzu yoki masala beriladi (masalan, "Kelajakdagi shahar qanday bo‘lishi kerak?"). O‘quvchilar bir nechta fikrlarni tezda yozib chiqadilar. Keyin bu fikrlar muhokama qilinadi va eng yaxshi yechimlar tanlanadi.

---

<sup>1</sup> Sh.Q.Mardonov, S.K.Annamuratova, V.I.Andriyanova. O‘quvchilarining dizayn ijodkorligini shakllantirish T., “Sano-standart”, 2012.

<sup>2</sup> Alex Osborn "Your Creative Power". Charles Scribner's Sons. 1953

## 2. Kritik fikrlash va tahlil qilish<sup>1</sup>

Tavsif: Bu metod O‘quvchilarni ma’lumotlarni tanqidiy ravishda o‘rganishga undaydi, ular o‘z fikrlarini asoslab, turli xil nuqtai nazardan tahlil qilishadi. Mashq: O‘quvchilar biror matn yoki video materialni ko‘rib chiqadilar. Ular materialning asosiy g‘oyasini, unga nisbatan qarshi fikrlarni va alternativ yechimlarni tahlil qilib, o‘z fikrlarini taqdim etadilar.

## 3. Rol o‘ynash (Role-playing)<sup>2</sup>

Tavsif: Bu metod o‘quvchilarni muayyan vaziyatda yoki turli personajlar sifatida namoyon bo‘lishga undaydi. Bu ularning ijodiy fikr yuritish va yangicha qarashlarni rivojlantiradi. Mashq: O‘quvchilarlar guruhlarga bo‘linib, biror hayotiy muammoni hal qilishda turli rollarni o‘ynashadi (masalan, konfliktni hal qilish, ijtimoiy muammoni hal qilish). Har bir o‘quvchi o‘z rolini ijodiy tarzda bajarishi kerak.

## 4. "What if?" (Agar... nima bo‘lsa?) metodikasi<sup>3</sup>

Tavsif: Bu metod o‘quvchilarni qarorlar va vaziyatlar haqida ijodiy savollar berishga undaydi. "Agar shunday bo‘lsa, nima bo‘lardi?" savollari orqali turli xil ehtimolliklar va yechimlar ishlab chiqiladi. Mashq: O‘quvchilarga "Agar bugun elektr ta’minoti to‘xtab ketsa, qanday qilib vaziyatni hal qilish mumkin?" kabi savollar beriladi. Ular ijodiy fikrlar va yechimlar ishlab chiqishadi.

## 5. Divergent fikrlash (Ko‘p yo‘nalishli fikrlash)<sup>4</sup>

Tavsif: Bu metod biror masalani ko‘p nuqtai nazardan ko‘rishga undaydi. Fikrlar va g‘oyalar bir nechta yo‘nalishlarda rivojlantiriladi. Mashq: O‘quvchilar biror kundalik narsani (masalan, chashka, o‘quv kitobi) boshqa kontekstda qanday ishlatilishi mumkinligini o‘ylashadi. Masalan, chashkani qanday qilib boshqa maqsadlar uchun ishlatish mumkinligi haqida ijodiy fikrlar ishlab chiqiladi.

<sup>1</sup> John Dewey. "Logic: The Theory of Inquiry". Henry Holt and Company.1938

<sup>2</sup> Kurt Lewin. Field Theory in Social Science. Harper & Row. 1951, Jacob L. Moreno. Who Shall Survive? Beacon House.1953

<sup>3</sup> Edward de Bono. Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to Create New Ideas. HarperBusiness.1992

<sup>4</sup> Edward de Bono. The Use of Lateral Thinking. Penguin Books.1967

## 6. Metaforalar va analogiyalar<sup>1</sup>

Tavsif: Metaforalar va analogiyalar o‘quvchilarga yangi g‘oyalarni tushunish va ularni boshqa kontekstlarda ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi. Mashq: O‘quvchilar biror murakkab kontseptsiyani metaforalar orqali izohlashadi. Masalan, "Hayot bir daryo kabi, har bir to‘sinq uni o‘tib ketish uchun imkoniyat yaratadi" tarzida metafora yaratish va uni ta’kidlash.

## 7. Kreativ yozish mashqlari<sup>2</sup>

Tavsif: Yozish O‘quvchilarga o‘z fikrlarini tashkil etish va ijodiy tarzda ifodalash imkoniyatini beradi. Mashq: O‘quvchilarga qiziqarli boshlanishni berish (masalan, "Bir kuni oddiy bir kishi kosmik kemaga chiqib ketdi...") va ular bu boshlanishni davom ettiradigan biror hikoya yoki qissa yaratishadi. Bu mashq ularning tasavvurini rivojlantiradi.

## 8. Kombinatsiya va sintez (Synthesis)<sup>3</sup>

Tavsif: Bu metod O‘quvchilarni bir nechta g‘oyalarni yoki konsepsiyalarni birlashtirib, yangi bir yechim yoki mahsulot yaratishga undaydi. Mashq: O‘quvchilar turli sohalardan (ilmiy, madaniy, san’at) olingan bir nechta g‘oyalarni birlashtirib, yangi bir mahsulot yoki ideya yaratishadi. Misol uchun, ilm-fan va san’atni birlashtirib, yangi bir texnologiya yoki san’at asarini tasavvur qilish.

## 9. Tasavvur mashqlari<sup>4</sup>

Tavsif: Bu mashqlar o‘quvchilarning tasavvurini ochish va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘zlarining fantaziyalarini haqiqatga aylantirishga harakat qilishadi. Mashq: O‘quvchilar “Agar sizni boshqa bir sayyora yoki vaqtga olib boradigan mashina topsa, u yerda qanday hayot kutmoqda?” kabi savollar beriladi. Ular o‘z tasavvurlarini yozadilar va ijodiy fikrlarini bo‘lishadilar.

## 10. Fikrlar almashinuvi (Mind Mapping)<sup>5</sup>

<sup>1</sup> George Lakoff va Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.1980

<sup>2</sup> Julia Cameron. *The Artist's Way*. TarcherPerigee.1992

<sup>3</sup> Edward de Bono. *The Use of Lateral Thinking*. Penguin Books.1967

<sup>4</sup> Ken Robinson. "Creative Schools".2015, Edward de Bono. *The Use of Lateral Thinking*. Penguin Books.1967

<sup>5</sup> Tony Buzan. "The Mind Map Book".2006

Tavsif: Bu metod o‘quvchilarga biror mavzu bo‘yicha fikrlarni tartibga solish va yangi g‘oyalar yaratish imkoniyatini beradi. Mashq: O‘quvchilar biror mavzu yoki masala bo‘yicha fikrlar xaritasini yaratishadi, unda asosiy fikrlar va ularning o‘zaro aloqalari ko‘rsatiladi. Bu usul yangi g‘oyalarni yaratish va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlashda yordam beradi.

## NATIJALAR

Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodlar va mashqlar o‘quvchilarning fikrlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi va ular uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. O‘quvchilar o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini yaxshilab, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish hamda muammolarni yangicha usulda hal qilishni o‘rganadilar. Bu metodlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy, analitik, va kreativ tafakkurlari uyg‘unlashadi, bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Shu bilan birga, pedagogik metodlarni amalda qo‘llashda darslarni interaktiv va o‘quvchilarni faol ishtirokini talab qiladigan tarzda tashkil etish zarur. Ta’lim jarayonida turli metodlarni birgalikda qo‘llash, o‘quvchilarning ko‘nikmalarini rivojlantirishda maksimal natijalarga erishishga olib keladi.

Natijada, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va metodlar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga, ularda mustaqil fikrlash va yangi yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatları nafaqat ta’lim jarayonida, balki jamiyatda, ijtimoiy va professional hayotda ham ularga katta foyda keltiradi. Shu sababli, pedagoglar ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun samarali metodlarni doimiy ravishda yangilab, ularni amaliyotga tadbiq qilishlari kerak.

## MUHOKAMA

Ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodlari va mashqlari o‘quvchilarga nafaqat akademik sohada, balki kundalik hayotda ham yangi g‘oyalar ishlab chiqish, muammolarni ijodiy yechish imkoniyatini beradi. Ijodiy fikrlash jarayoni, ayniqsa, bugungi tez o‘zgaruvchan va raqobatbardosh jamiyatda muhimdir. Ta’lim jarayonida

o‘quvchilarga bunday metodlarni o‘rgatish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi va ularga yangi fikrlarni kashf qilish imkoniyatini yaratadi.

Agar o‘quvchilarga ijodiy mashqlarni muntazam ravishda taklif qilinsa, bu ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, brainstorming (ijodiy fikrlar almashish) metodini qo‘llash o‘quvchilarda yangi va original yechimlar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shu bilan birga ular guruh ishlari orqali kommunikativ qobiliyatlarini ham yaxshilashadi. Shuningdek, "What if?" metodikasi orqali, o‘quvchilar o‘zlarining kreativ tafakkurlarini kengaytirishadi va shablonlardan chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, rolli o‘yinlar (role-playing) metodini qo‘llash o‘quvchilarni ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va empatiya qilishga o‘rgatadi, bu esa ijodiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Yana bir muhim jihat, divergent fikrlash metodini qo‘llash orqali o‘quvchilar bitta masala bo‘yicha ko‘p xil yechimlarni ishlab chiqsa olishadi, bu esa muammoni tahlil qilishda kengroq nuqtai nazarga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

Biroq, ba’zi metodlar ba’zi o‘quvchilar uchun qiyin yoki noqulay bo‘lishi mumkin, chunki ular o‘zlarini yangi va noma’lum vaziyatlarda qiyin his qilishlari mumkin. Shuning uchun metodlarni tanlashda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini va o‘quvchilar guruhining dinamikasini hisobga olish muhimdir.

## XULOSA

O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, nafaqat o‘qitish jarayonida, balki butun pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarning tafakkurini, bilimlarini, ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va yangi, innovatsion fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Ijodiy faoliyatning muvaffaqiyati, o‘quvchilarning qiziqishlarini uyg‘otish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. O‘quvchilarga kreativlikni rivojlantirishda pedagogik va psixologik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ijodiy faoliyatni amalga oshirishda, faoliyatga qiziqish, motivatsiya va to‘g‘ri yo‘naltirish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin. Shu sababli, yoshlarni ijodiy mehnatga tayyorlash va ularni o‘z zamonining ilg‘or bilimlari bilan qurollantirish, har bir jamiyat uchun dolzarb va muhim vazifa hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. "O‘zbekiston milliyensiklopediyasi" 3-qismT., Davlatilmynashriyoti
2. Sh.Q.Mardonov, S.K.Annamuratova, V.I.Andriyanova. O‘quvchilarning dizayn ijodkorligini shakllantirish T., “Sano-standart”, 2012.
3. Alex Osborn "Your Creative Power". Charles Scribner’s Sons. 1953
4. **Edward de Bono.** Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to Create New Ideas. HarperBusiness.1992
5. Edward de Bono. The Use of Lateral Thinking. Penguin Books.1967
6. George Lakoff, Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.1980
7. Howard Gardner."Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences". Basic Books.1983
8. **Jacob L. Moreno.** Who Shall Survive? Beacon House.1953
9. John Dewey. "Logic: The Theory of Inquiry". Henry Holt and Company.1938
10. Julia Cameron. The Artist’s Way. TarcherPerigee.1992
11. **Ken Robinson.** "Creative Schools".2015
12. **Kurt Lewin.** Field Theory in Social Science. Harper & Row. 1951
13. Lev Vygotsky."Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Harvard University Press. 1978
14. Michael Michalko."Cracking Creativity: The Secrets of Creative Genius". Ten Speed Press. 2001
15. Tony Buzan. "The Mind Map Book".2006

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504382>

## FYODOR DOSTOYEVSKIYNING “JINOYAT VA JAZO” ROMANINING MAZMUNI, ASOSIY G‘OYALARI VA FALSAFIY TAHLILI

**Jumayeva Shaxlo**

**Safarova Fotima**

TerDu talabalari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va Jazo” romanida jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, insonning axloqiy tanlovi, jinoyat va jazo tushunchalari chuqur tahlil qilingan. Asar bosh qahramoni Raskolnikov orqali Dostoyevskiy inson ruhiyati, vijdon azobi va o‘z-o‘zini kechirish kabi mavzularni o‘quvchiga ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** Dostoyevskiy, Raskolnikov, Jinoyat, Jazo, Axloqiy relativizm, Vijdon azobi, Inson ruhiyati, Ichki monolog, Shaxsiy huquqlar, Tavba, Poklanish, Sonya, Jamiyat, Adolat, Psixologik tahlil.

Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va Jazo” <sup>1</sup>(rus tilida: “Преступление и наказание”) romani inson ruhiyatini chuqur o‘rganishga qaratilgan rus adabiyotining eng mashhur asarlaridan biridir. 1856-yilda yozilgan ushbu roman insoniy axloq, jinoyat va jazo masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, uning asosiy qahramoni Rodion Raskolnikovning ichki qarama-qarshiliklari va qiyinchiliklarini tasvirlaydi.

Romanning qisqacha mazmuni

“Jinoyat va jazo” romani olti qism va epilogdan tashkil topgan. Asar voqealari ijara yashovchi talaba Raskolnikovning qarzdorligi sabab hujrasidan yashirincha chiqishga urinishi tasviri bilan boshlanadi. Voqealar iyulning boshlarida yuz berayotgani ta’kidlanadi. Yana bu voqealar ro‘y berayotgan joy nomi S – ko‘chasi, K

– ko‘prigi deya mavhum ko‘rsatiladi.Harflar orqali obyekt va subyektni bu tarzda nomlash esa bevosita F.Kafkaning “Jarayon”<sup>2</sup> romani sujetini yodga soladi. Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li” romanida ham bu belgilar bor.

<sup>1</sup>Mixaylovich Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romani 1956-yil Random House nashriyoti

Rodion Raskolnikov – yosh, kambag‘al talaba bo‘lib, Sankt-Peterburgda yashaydi. Uning ichki dunyosi murosasiz va azobli. Rodion o‘zini "oddiy" va "noyob" kishilarga ajratadi va o‘zi kabi "noyob" shaxslar ba’zi hollarda jamiyatning axloqiy me’yorlaridan chiqishi mumkin, degan fikrni olg‘a suradi. U "noyob shaxs" o‘ziga xos bo‘lib, boshqalarga qonun ustidan hukm chiqarishi huquqiga ega, deb hisoblaydi.Bu g‘oyaga asoslanib, Raskolnikov jamiyat uchun ahamiyatsiz bir kishini o‘ldirish orqali o‘zining "kuchli va o‘ziga ishonuvchi shaxs" ekanligini tasdiqlashga urinadi. U kambag‘al foizchi ayolni – Alena Ivanovnani o‘ldirishni rejalashtiradi, uni shafqatsizlik bilan o‘ldiradi, ammo kutilmagan voqeа sodir bo‘lib, uning singlisi Lizavetaning ham qotiliga aylanadi. Bu jinoyat Raskolnikov uchun hayotiy o‘zgarishlarni boshlaydi.U butunlay psixologik iztirobga tushib qoladi va o‘z ichidagi azoblarni yengish uchun kurashni boshlaydi.Raskolnikov qilgan jinoyati uchun nafaqat qonun oldida, balki o‘z vijdoni oldida ham javobgar bo‘ladi. Jinoyatdan keyin u ichki ruhiy azoblar va vijdon qiyonoqlariga duch keladi. Bu esa jinoyat va jazoning ichki bog‘liqligi, o‘z-o‘zini kechirishning qiyinligi va ichki jazoning qanchalik qiyin bo‘lishini ifodalaydi.

<sup>2</sup>Frans Kafkaning “Jarayon” (nemischa: Der Proceß, Der Prozeß, birinchi nashrda: Der Prozess) — romani 1925-yilda nashr etilgan[].

Dostoyevskiyning Raskolnikov orqali ko‘rsatgan qiyofasi, shaxsiy axloqiy e’tiqodlar va ichki haqiqat bilan kurashish jarayonlari, o‘quvchini inson ruhi va axloqiy qarama-qarshiliklarning murakkabligiga chuqurroq qarashga undaydi.Dostoyevskiy o‘z asarida ichki monolog va dialoglardan keng foydalanib, qahramonning ichki olamini chuqur o‘rgangan. Bu uslub romanning psixologik chuqurligini oshiradi va o‘quvchiga qahramonning ruhiy holatini yanada yaqinroq his qilish imkoniyatini

beradi. Asar voqealarida sodir bo‘ladigan ichki va tashqi qarama-qarshiliklar orqali Dostoyevskiy insonning axloqiy tanlovi, jinoyat va jazo o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi. Roman voqealari va obrazlari, masalan, Raskolnikov va uning sevgilisi Sonya o‘rtasidagi munosabatlar orqali jinoyatning ichki va tashqi oqibatlari ko‘rsatiladi. Sonya obrazida shafqat va mehr-muruvvatni ifodalagan Dostoyevskiy, jinoyat va axloq o‘rtasidagi keskinlikni yengishga o‘ziga xos yechim sifatida mehrni taqdim etadi. Sonya, o‘zining shafqat va sevgisi orqali, Raskolnikovni qutqarishga va unga ichki tinchlik topishga yordam beradi. “Jinoyat va Jazo” Dostoyevskiy tomonidan inson tabiatining murakkabligi, iymon va axloqiy muammolar bilan kurashish haqida chuqur falsafiy fikrlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Dostoyevskiy, jinoyat qilgan shaxsning ruhiy va axloqiy azoblari orqali insonning shaxsiy va jamiyat oldidagi javobgarligini yoritadi. Roman yakunida Raskolnikovning tavba qilishi va oxir-oqibat jazo olish orqali o‘z ruhini tozalashi muallifning insoniy o‘zgarish va ruhiy poklanishga urg‘u berishidan dalolat beradi.

Har doim dolzarb bo‘lib qoladigan muammo insonning ichki kurashidir. Kimdir uchun u umr bo‘yi davom etishi mumkin, kimdir kutilmagan tarzda “davo” topadi. Histuyg‘ular, fikr kuchi, hissiyotlar, ruhiy iztirob, ongning mo‘rtligi – bu kitobning mazmuni. Mutolaa jarayonida zo‘riqish va hayajonlanish boshidan oxirigacha sizga hamroh bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dostoyevskiy, Fyodor. Jinoyat va Jazo.
2. Mihail Bakhtin. Dostoyevskiy poetikasining muammolari.
3. Joseph Frank. Dostoyevskiy: A Writer in His Time.
4. Victor Terras. A History of Russian Literature.
5. Rene Wellek va Austin Warren. Theory of Literature.
6. Likhachyov, D. S. Rus adabiyoti va madaniyati..
7. Gide, Andre. Dostoyevskiy haqida.
8. Freyd, Zigmund. Psixoanaliz va adabiyot.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504390>

## JONATAN SVIFTNING “GULLIVERNING SAYOHALTLARI” ASARI MOHIYATI

Ilmiy rahbar: **Muxtorova Mahfuza**

TerDu o‘zbek filologiyasi fakulteti, adabiyot kafedrasi o‘qituvchisi

**Adurahmonova Dilafro‘z**

**Adunazarova Muqaddas**

TerDU o‘zbek filologiya fakulteti talabalari

